

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

ISMOIL ERGASHEVICH DAVRONOV

UMUMIY PEDAGOGIKA

(Ijtimoiy pedagogika)

60110500-boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

“FAN VA TA'LIM” nashriyoti

Toshkent - 2022

UO'K 37.013(075.8)

KBK 74.00ya73

D 13

O'quv qo'llanma 60110500- boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallagan bo'lib, ularda umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish, jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy omillarni, o'rganish, mazkur fanning obyekti, predmeti. uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi, kategoriyalari, ijtimoiy pedagog kasbining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni ilmiy-nazariy jihatdano o'rganishga xizmat qiladi. I. E. Davronov. – Toshkent: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 116 b.

TAQRIZCHILAR:

M. H. Mahmudov

– pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva

– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN~978-9943-8863-7-7

© "FAN VA TA'LIM"

KIRISH

Mamlakatimiz fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida ham muhim o'rin egallamoqda. Shaxsda insoniylik, mehribonlik o'zbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi ta'kidlanadi va ijtimoiy xarakterdagi ko`pgina muammolar-sog'liqni saqlash, mакtab va shifoxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, yashash, sport-so'lomlashtirish majmularini barpo etish, ko`p bolali oilalarga yordam berish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda ta'lim mazmuniga shaxsni ijtimoiylashuvi masalasi ham asosiy g'oya sifatida kiritilayotgan hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogikani fan sifatida uning mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi. Buning uchun mazkur fanning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi darslik hamda o'quv qo'llanmalar g'oyatda zarur. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha qadimiyl davrlarga borib taqaladi. Uning qadimiyligi buyuk mutafakkirlarning ilmiy qarashlarida ham o'z ifodasini topgan.

Hozirda, respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim borasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqqa. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillar o'zgarib borayotgan bir paytda ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g`ayri ijtimoiy hodisalar — alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishabozlik kabi ijtimoiy muammolarni yechish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda ijtimoiy yordam va muhofazaga birinchi navbatda bolalar, lekin shu bilan birga kattalar ham muhtojdirlar.

Bunday sharoitda jamiyatning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsning ijtimoiy muammolari bilan bog`liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qilishga yordam beruvchi mutaxassisga — ijtimoiy pedagogga extiyoj paydo bo'ladi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jamiyatda insoniylik, fuqarolarning haq-huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlashga asoslangan yangi demokratik qadriyatlar paydo bo'lgani bilan ham izohlanadi. Bu masalaning

ahamiyati davlatimizning boshqaruv tizimlari tomonidan izchil ravishda o'rganilib, uning dolzarbliligiga alohida e'tabor qaratilayotganligi ham bejis emas. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda mazkur o'quv qo'llanma bo'lajak mutaxassislar uchun muhim daturilamal bo'lib xizmat qilishiga ishonch bildiramiz.

I-BOB. IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT - PEDAGOGIKA FANI

SOHASI SIFATIDA

Tayanch atamalar: sotsializatsiya (ijtimoiylashuvi), psixologik-pedagogik, sotsiologiya, ijtimoiy pedagogika, pedagogik sotsiologiya, jamiyat, sotsium, shaxs, ehtiyoj, O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo`lish shart-sharoitlari, amaliy ijtimoiy faoliyat.

1. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti va predmeti

Ijtimoiy pedagogika fanining maqsadi- jamiyatda har bir shaxsning hayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va hal qilishdan iboratdir. Ta'lim va tarbiya masalalari bilan shug'ullanish, keksalar , qariyalar, kasallar va boquvchisini yo'qotganlar, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar holidan xabar olish ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Shu jumladan fohishabozlik, giyohvandlik va huquqbazarlikka qarshi kurashish hamda bu illatlardan jamiyatni, ayniqla kelajak avlodni himoya qilish mumim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika kursining vazifasi quyidagi 4 bosqichni o`z ichiga oladi:

1. Bola va o'smirni haqiqatparvar, ro'stgo'y shaxs sifatida tarbiyalash hamda voyaga etkazish;
2. Shaxsning mustaqil fikrlay olishi, muammoga duch kelganida uni mustaqil ravishda hal qila olishi va o'z munosabatini bildirishi;
3. Atrofdagi kishilar bilan erkin va madaniy holda muomala qilishni o`rgatish;
4. Hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini ongli ravishda tushunishga o`rgatish;

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat ishlarining rivojlanish tarixi bir-biriga juda yaqin. Eng avvalo, ularni odamlarga alohida gamxo'rlik va e'tibor talab etadigan madaniy – tarixiy an'ana birlashtirib turadi. Ijtimoiy pedagogika va

ijtimoiy ishlarda rahm – “shafqat”, “xayriya”, “yordam” kabi tushunchalar juda ko’p qo’llaniladi.

Ammo ularning aniq ifodalangan o`ziga xos jihatlari ham bor. Mamlakatimizning dastlabki rivojlanish bosqichida ular rasman tan olingan ijtimoiy institut sifatida namoyon bo’ldi. Masalan, ijtimoiy ishlar aholini ijtimoiy himoyalash sohasida rivoj topadi, ijtimoiy pedagogika esa, yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim tizimida va yoshlar ishlari bo’yicha qo’mita muassasalarida rivojlandi. Ijtimoiy pedagogika – bu bilish nazariyasi va amaliyotini, ta’limiy–tarbiyaviy vositalar yordamida ijtimoiylashuv jarayonini boshqarish va amalga oshirish bo’lib, bu oqibat natijada kishi tomonidan (individ tomonidan) xulq – atvor, hatti – harakat andozasini (ishonchlar, qadriyatlar, muvofiq keluvchi sezgilar va hatti – xarakatlar) egallab olishdir. Bu xususiyatlar jamiyatga, aholining turli qatlamlari va guruhlariga, individlarga nisbatan, ijtimoiy moslashish darjasи, turi, ijtimoiy faoliyat ko`rsatishiga bog`liq xolda namoyon bo`ladi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy borliqning odamning butun umri davomida uning maqsadi va vazifalariga nisbatan ta’sirini o’rganadi. Bu ta’sirning odam va jamiyat uchun pedagogik oqibatlarini tadqiq etadi.

Ijtimoiy siyosat shunga muvofiq keluvchi ta’limiy – tarbiyaviy tizimlarni, dasturlarni, uslublarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Shuningdek, u o’z oldiga qo`yilgan maqsadlar va ijtimoiylashtiruv vazifalarini individning ehtiyojlarini, ijtimoiy o’z taqdirini o’zi belgilashi, jamiyatda o’z o’mini topishini nazarda tutgan holda bajaradi. Ayrim odamlar va aholi guruhlariga (ijtimoiy yordamga juda muhtoj bo’lgan) o’zining ijtimoiy mavqeini, ijtimoiy rolini qayta tiklab olishida yordam berish ham uning vazifasiga kiradi.

Ijtimoiy – pedagogik nazariya va amaliyotining ob’ekti sifatida o’zining individual va ijtimoiy tavsiflari majmui bilan birga sotsium a’zosi bo’lgan inson hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishining, ijtimoiy mavqeining, ijtimoiy faoliyatining tashkil topishi hamda

hozirgacha erishgan ijtimoiy tavsiflarini ko`paytirish va yo`qotilganlarini qayta tiklash bo`yicha pedagog jihatlaridir.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar Markaziy Osiyo hududida jahon dinlari orasida eng qadimgi dinlardanbiri hisoblangan *Zardushtiylik* dini hukmronlik qilgan. Zardushtiylik insoniyatga katta ta'sir o'tkazdi, ya'ni insonni birinchi o'ringa olib chiqdi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi sanalgan «Avesto» ni o'z davrining o'ziga xos *qomusiy asari* deb hisoblash mumkin. Zardusht dinida axloqiy me'yorlar asosi (axloqiy mezonlar) oltin uchlikka tayangan edi. Bu nodir yodgorlik ayniqsa ijtimoiy -pedagogik masalalarni tarixiy puqtai nazardan yoritganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. «Avesto»da jamiyat bir buyuk ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlanadi. Bunda davlat muassasalari bilan birga jamoat tashkilotlari bahamjihat faoliyat ko'rsatishlari kerakligi ta'kidlanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatni boshqarish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagogika fanining rivojida Islom ta'limotining o'rni va roli ahamiyatlidir. Islomda ta'lim tarbiyaga katta o'rinn berilgan. Shu bois islom axloqi bir necha asrlar mobaynida shakllanib, qanchadan-qancha ajdodlarimiz sinovidan o'tib, o'zining haqqoniyligi, hamma zamonlar va avlodlar uchup muvofiqtigi, kishilik jamiyati manfaatlariga mosligi, insoniyat kamoliga, ma'naviyat taraqqiyotsha xizmat qilishini amalda tasdiqtagan, shu tufayli davrlar sinovidan eson-omon o'tib kelayotgan o'lmas bir ta'limot, umumbashariy hayot dasturi bo'lib kelmoqda. **“Ijtimoiy” (lotinchada socialis-umumiyy, ijtimoiy)** tushunchasi ostida odamlarning xulq-atvori, ularning o`zaro munosabatlarini turli shakllari bilan bog'liq umumlashgan holda barcha hodisalar tizimi tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim- tarbiyasi haqidagi fan bo`lsa, **ijtimoiy pedagogika** ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyatdagi hayotga qo`shilishiga bog'liq hodisalarni alohida ajratadi. Bolaning jamiyatga kirish jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo`lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) ijtimoiylashuv deyiladi.

Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o`rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o`rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatları hisoblanadi, **ijtimoiy pedagogikaning** predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatları hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu ikki fanlarning uzoq tarixiy aloqasiga qaramay natijada ularning o`ziga xos vazifalari tufayli bir- biriga bog'liqligi ro'y berdi. Umumiyligida pedagogikaning spetsifik vazifasi ta'lim-tarbiyadir. Bola va bolalikni himoya qilish ijtimoiy pedagogning asosiy kasbi hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosini ijtimoiy ish,muruvvat ko'rsatish, xayriya, mehribonlik kabi tushunchalar tashkil qiladi.

Ijtimoiy ish – aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlariga yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obekti inson hisoblanadi, lekin ulardan faqatgina o'ziga tegishli muammolari bo'lganlari (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki sog'lom bo'lмаган, jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lganlar hisoblanadi.

Muruvvat ko`rsatish – muhtojlarga yordam, xayriya-saxovat – alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan muhtojlarga yoki aholi guruhlariga beminnat yordam berish. Bunda rahim-shafqat, marhamat, rahimdillik – barchaga yordam berish, yoki o`zgalarni kechirish, gamxo'rlik qilish tushuniladi.

Xayriya – (muhtojlarga yordam, xayr-saxovat) – muhtoj odamlarga yoki aholining ijtimoiy guruhlariga alohida shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam ko'rsatish.

Insoniylik — bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g`ururi va erkinligini himoyalash bilan tavsiflanadigan, inson manfagini ijtimoiy institutlar “baholashning asosiy me`yori“ deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

Mehribonlik (Miloserdie) ko'ngilchanlik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam ko'rsatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

Rahmdillik - inson tabiatidagi eng go'zal tuyg'u bo'lib, aynan mana shu tuyg'u orqali inson o'zgalarning g'am anduhlarini his qiladi, uni bartaraf etishga oshiqadi, xato va kamchiliklariga o'kinadi, doimo tinchlik va xotirjamlik bo'lish

orzusi bilan yashaydi. Rahmdillik ehg oily insoniy fazilatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Rahmdillik yuksak va murakkab insoniy hisdir. O'zgalarga nisbatan rahmdil va muruvvatli bo'lich eng ulug' fazilatlardan bo'lib, har bir inson mazkur fazilatni o'zida ziyoda bo'lishiga harakat qilmog'I lozim. Zero, rahmdillik tuyg'usi bizlarning qonimizga shunchalik singib ketganki, o'zaro mehr –oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat hamda kechirimli bo'lish hissi xalqimizga xos fazilatga aylangan.

Ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o`rganadi, insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlari, nimaga bir guruhga birlashishlari va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy pedagogika bu muammolarni biroz boshqacha tarzda, uning ilmiy vazifalariga mos ravishda o`rganadi. Shu bilan birga o`z rivojlanishida umumiyligi pedagogikadan ajralib chiqib, u kompleks xarakterga ega bo`ladi. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga muktab va maktabdan tashqari muassasalarda tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga gamxo'rlik qilish, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi. Ijtimoiy pedagoglar faoliyatning turli soxalari: ekologiya, badiiy ijod, sog'lomlashtirishga ixtisoslashishadi. Ijtimoiy pedagogning kompleks xarakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida namoyon bo`ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi xalqning etnografik, tarixiy, madaniy an`analari va xususiyatlariga bog`liq bo'lib, inson, insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga tayanadi. Inson tsivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o'zi mustaqil mavjud bo'lishini ta`minlay olmaydigan a`zolari: bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g`oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va milliy xususiyatlariga bog`liq ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo'q qilinishidan tortib, jamiyatda to'liq integratsiyalashuvlarigacha bo'lган ko'rinishlarda ifodalangan.

O'zbekislonda xayr-saxovatning rivojlanish bosqichlari

1991 yilda O'zbekiston Respublikasipi mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan pedagogikaning ko'pgina sohalari, shu jumladan *ijtimoiy pedagogikani* ham o'zining yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

Datlabki «Ta'lif to'grisida»gi Qonunning qabul qilinishi bilan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali yo'llarini topish, ma'naviy madaniyatni rivojlantirish, shaxsni fuqaro sifatida, erkin tafakkurli shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali yo'llarini yaratish maqsadida pedagogika fan oldiga ta'lif tizimini demokrat- lashtirish va insonparvarlashtirish kabi vazifalar qo'yildi. Respublikamizda ijtimoiy pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi shunchalik dolzarbki, bu fan bo'yicha mamlakatimizda: «Ma'naviyat va ma'rifat markazi», «Oila» markazi, nodavlat, hukumatga qarashli bo'limgan Xayriya jamg'armasi «Sog'lom avlod uchun», O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi qoshidagi g'oyaviy-siyosiy kafedralar va boshqalar, ya'ni har bir navbatdagi yilning ijtimoiy muammolarning biriga bag'ishlanishi va uning an'ana tusiga kirishi katta ahamiyat kasb etadi. *Masalan:* 2001 yil — «Onalar va bolalar» yili deb e'lon qilingandi. Shu munosabat bilan «O'smir va sog'lom turmush tarzi» deb nomlangan Respublika metodik seminari o'tkazilib, maktablarda «Sog'lom avlod » o'quv predmeti kiritilib, sog'lom turmushtarzini shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-pedagogik kontseptsiyasi

Ijtimoiy muammolarga nihoyatda katta e`tibor qaratilishining sababi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonidir. Bu davrda, ayniqsa, ijtimoiy muammolar nihoyatda keskinlashadi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi esa milliy xavfsizlikka tahdid qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham o'z vaqtida tegishli choralar qabul qilish nihoyatda muhim va mas`uliyatli vazifadir.

Iqtisodning liberallashuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni: ishsizlar sonining ko'payishi, turli tengsizliklarning paydo bo'lishi, hayot tarzining buzilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun O'zbekiston taraqqiyotining o'z yo'li, asoslanadigan yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borish hisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardan iborat:

-bozor islohotlarining hamma bosqichlarida aholining ijtimoiy himoyasini ta`minlash.

-aholining turli qatlamlarini paydo qilmaslik orqali ijtimoiy kelishuvni ta`minlash.

Keyingi yillarda qo'yilgan vazifalarga muvofiq aholi ijtimoiy himoyasining yangi mehanizmi shakllangan bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;

-davlat mablag`laridan tashqari, mehnat jamoalari, ijtimoiy va mehribonlik fond va tashkilotlarining mablag`larini yo'naltirish;

-aholi daromadlarining yuqori tabaqalashuviga yo'l qo'ymaslik;

-kambag`allikka qarshi kurashish, nogiron, yetim va qariyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Hozirgi kunda, milliy mentalitet va hayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta`minlangan oilalarni aniqlash va ularga mahalla qo'mitalari orqali yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shakli keng qo'llanilmoqda.

Bunday yondashuv bizning xalqimizda ko'p asrli ildizlarga ega bo'lib, uning amaliy ahamiyati mablag`larning hayotda to'g'ri taqsimlanishi ta`minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning huquqiy asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarga oid meyoriy hujjatlar qabul qilingan:

Xayriyaga oid —O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdag'i "Sog`lom avlod uchun xalqaro nohukumat xayriya fondining faoliyatini ta`minlash choralarini to'g'risida"gi Farmoni. Unda fondning quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:

-mablag`larni "Sog`lom avlod" davlat dasturiga qaratish;

-oila va jamiyatda sog`lom hayottarzini targ`ib qilish;

-xorij va milliy homiyarlarning xayriya yordami vosita va mablag`larini jalg qilish;

-ko`p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko`rsatish.

Mehr-muruvvatga oid O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 yanvardagi “Mehr-muruvvat to`g`risida”gi Farmoyishi. Uning asosiy maqsadi jamiyatda do`stlik, bag`rikenglik, xalqlararo fuqarolar totuvligi, ayniqsa, yoshlarning yaxshi axloqiy hislatlarini rivojlantirishdir.

Sog`lom avlod tarbiyasiga oid O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog`ligini saqlash to`g`risida”gi Qonuni hamda aholining malakali tibbiy yordam va ijtimoiy himoya olishdagi konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishi, sog`liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12-noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasida sog`liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to`g`risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrdagi “O`sib kelayotgan avlodni sog`lomlashtirish muammolarini kompleks hal qilish to`g`risida”gi Farmoyishi, 2000 yil 15 fevraldagagi “Sog`lom avlod davlat dasturi to`g`risida”gi, 2002 yil 31 oktyabrdagi “O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to`g`risida”gi hamda 2002 yil 25 yanvardagi “Ayollar va o`sib kelayotgan avlodning sog`ligini mustahkamlash to`g`risida”gi Farmonlari.

Ayollarning ijtimoiy himoyasiga oid O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Ayollarga qo’shimcha imtiyozlar to`g`risida”gi 1998 yil 14 apreldagi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 17 martdagagi “Ayollarning maxsus himoyasini kuchaytirish to`g`risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagagi “Zararli va sharoiti og`ir ishlarda band ayollarning daromadlariga soliqsolinayotganidagi imtiyozlar to`g`risida”gi Farmoni.

Oilani qo’llab-quvvatlashga oid O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi “Ko`p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini

mukammallashtirish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 10 dekabrdagi "Ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Farmoyishi. "Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi Nizomida bu nafaqalarni olish huquqiga kimlar ega ekanligi aniq qilib belgilangan:

- nogiron bolali oilalar;
- ota-onasi yo'q bo'lgan va bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug`ullanuvchi oilalar;
- ota-onadan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
- ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lsa.

Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining "Yoshligidan nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va mehnat qilishga layoqatsiz shaxslarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi 1994 yil 24 iyundagi 319-sonli Farmoyishi. Ushbu xujjatlarda nazarda tutilgan choralar nogironlarning individual rivojlanishlari, ularning ta`lim olishlari, ishlab chiqarishda qatnashishlari hamda sog`liqparini saqlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan.

Aholining kam ta`minlangan qatlamlarini himoyalashga oid O'zbekiston Respublikasining aholining kam ta`minlangan oilalarini himoyasi to'g'risidagi farmon, farmoyishlari. Bu me`yoriy xujjatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga joylashtirishda ish o'rinalining minimal soni belgilanganligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 30 iyuldagagi "Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni. Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 22 apreldagi 213-F-son Farmoyishi "Mahalla" xayriya va jamoat fondi huzurida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tashkil etildi. "Saxovat va ko'mak" jamg'arma mablag'lari karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga, ko'p farzandli oilalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yo'igiz qariyalarga o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ichsiz bo'lgan ishsiz shaxslarga yordam berish uchun

ishlatiladi.Ular pul mablag'lari,kundalik iste'mol tovarlari,dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlanadi.

2. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning bir butun tizimi mavjud. Ijtimoiy institut jamiyat a`zolarining ijtimoiy resurslardan foydalanishi jarayonida vujudga kelgan, u yoki bu ehtiyojlarini (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshqa) qondirish uchun birgalikdagi faoliyatlariningtarixan shakllangan turg'un shaklidir. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida, jamiyat a`zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirishni nisbatan nazorat qilish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini targib qilish, ijtimoiy ehgiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish, umuman olganda, jamiyatning faol a`zolarini etishtirish uchun yuzaga kelgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan fenomen hisoblanadi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab. **Metod** - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan bosqichlarda quyidagilarning sodir bo'lishi kuzatiladi:

-tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi, ularning o'rni, ahamiyati va o'zaro munosabati o'zgarmay qoladi;

-tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga qarab yo'naladi va borgan sari ko'proq yosh guruuhlarini qamrab oladi;

-ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy qismlari ajraladi: ta`lim olish, keyinchalik esa ma'lumotli bo'lish;

-korreksion tarbiya paydo bo'ladi;

-totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g`ayri- ijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi;

-tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari o'zgaradi;

-tarbiyaning ahamiyati ortib, u jamiyat va davlatning alohida funksiyasi bo'lib qoladi hamda ijtimoiy institutga aylanadi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: oilaviy, diniy, ijtimoiy, korreksion tarbiya majmuasi; ijtimoiy rollar yigindisi; tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, oila a`zolari, din arboblari, mintaqaviy, xududiy tarbiya tashkilotlari rahbarlari, jinoiy va totalitar guruhlar etakchilari; turli xildagi tarbiya muassasalari; ijobiy va salbiy sanktsiyalar yig`indisi; tarbiyachilararning ta`lim va professional tayyorgarligi darajasi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega bo'lib, uning eng umumiy vazifalari quyidagilardir:

-jamiyat a`zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish;

-jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

-ijtimoiy hayot barqarorligini, madaniyatni avlodlarga meros qoldirish orqali ta`minlash;

-o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a`zolarini moslashishini ta`minlash; jamiyat a`zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg`unlashuvini ta`minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yo'naliishlarga bog`liq asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

Ijtimoiy tarbiya tamoyillari. Tarbiya tamoyillari tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning shakl metod va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg`unligi tamoyili. Tarbiyaning tabiat bilan uyg`unligi haqidagi g`oya antik davrlarda paydo bo`lgan va bizgacha Demokrit, Aflatun, Arastu asarlari orqali yetib kelgan.

Tarbiyaning tabiat bilan uygunligi haqidagi tamoyilni XVII asrda Yan Amos Komenskiy ta`riflagan va u XVIII — XIX asrlarda pedagogikada keng rivojlangan. XX asrda tabiat va inson haqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uyg`unligi tamoyilini ancha boyitdi. Bunda rus olimi V. I. Vernadskiy tomonidan noosfera haqidagi ta`limotning yaratilishi ham muhim rol o`ynadi.

Noosfera — rivojlanishning shunday bosqichini aks etadigan tushunchaki, u bosqichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo`lishi va hal etilishiga ta`sir qiladi.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg`unligi tamoyili tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o`zaro aloqasini ilmiy tushunishni, inson va tabiat taraqqiyoti rivojlanishning umumiyligini qonunlariga mos kelishini, insonning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tarbiyalashni, shuningdek, uni o`z rivojlanishiga o`zini javobgar etib tarbiyalashni va noosferaning kelajakdagi taraqqiyotini shakllantirish uchun mas`ul ekanligini nazarda tutadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, tarbiyaning tabiat bilan uyg`unligi tamoyiliga ko`ra, inson:

- o`zini borliqning bir bo`lagi, deb his qilishini;
- ro`y berayotgan planetar jarayonlarni va undagi mavjud global muammolarni tushunishini;
- o`zida noosfera uchun mas`uliyatni his qilishini;
- o`zini noosferani yaratgan sub`ekt sifatida bilishi hamda tabiat, planeta va biosferaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirilishi kerakligini ko`zda tutadi.

Madaniyat bilan uyg`unlik tamoyili.

Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili. Tarbiya madaniylashuvining zaruriyati g`oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), frantsuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy (XVIII asr) va shvetsariyalik pedagog Iogann Pestalotschi asarlarida o`z aksini topgan.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan berilgan ta`rifga ko`ra, tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili madaniyatning umuminsoniy qadriyatlar asoslanishi, u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlariga va me`yorlarga mos ravishda bunyod etilishini nazarda tutadi.

Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili o`z oldiga bolalar va o`smirlarga xalq hamda jamiyat madaniyatining turli yo`nalishlari, ularning o`ziga xos xususiyatlarini o`rgatishni maqsad qilib qo`yadi. Bunda madaniyatning maishiy, jismoniy, ma`naviy, aqliy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy yo`nalishlari nazarda tutiladi.

Tarbiyaning madaniylashuv tamoyilining amalga oshirilishi umuminsoniy tavsifdagi madaniy qadriyatlarning turli jamiyatlarda farqlanishi sababli qiyinchiliklarga duch kelmoqsa. Bizning davlatimizda shahar va qishloq aholisi o`rtasida, shaharda esa turli ijtimoiy-kasbiy guruhlar orasida farqlar mavjud. SHu bilan bir vaqtda turli madaniyat va submadaniyatlardagi qadriyatlar o`rtasidagi muvozanatni saqlash tarbiya samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili. Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g`oya chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlarida o`z ifodasini topgan bo`lib, XVII asrdan boshlab u turli davlat pedagoglarining tadqiqot ob`ektiga aylangan. Bu g`oya XVIII asrda frantsuz mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi L. Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida ham o`z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagogik nuqai nazaridan insonparvarlashuv tamoyili pedagogning o`z tarbiyalanuvchisiga, uning rivojlanish jarayonida, mas`uliyatli va mustaqil sub`ektga nisbatan munosabatda bo`lishini ko`zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar. o`smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi natijasida:

-tarbiya ijtimoiylashuv obekti bo`lmish inson qay darajada g`ayri ijtimoiy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me`yor va qadriyatlarni o`zlashtirishini aniqaydi;

- tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub`ekti sifatida his qilishi, o'z sub`ektivligrining namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;
- tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi;
- tarbiya insonni turli yosh bosqichlarida turli xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi yoki insonning ijtimoiylashuv qurbaniga aylanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlari ni shakllanishiga, g`urur hissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlar tashuvchisi insonning shakllanishiga ijobiy ta`sir ko'rsatadi. Yanada kengroq ma`noda, insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi aloqalarning yaxshilanishiga hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda insonlarning birlashishiga yordam beradi.

Tarbiyaning variativligi tamoyili. Ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan belgilanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning mintaqaviy va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek, mintaqaviy munitsipial va lokal sharoitlarni inobatga olib, shaxeiy, yosh, differentzial va individual yondashuvlar asosida ma`naviy qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirishda muhim o'rinn tutadi.

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilining ta`riflash imkoniyati va zarurati XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sababli vujudga keldi (A. G. Asmolov). Bu o'zgarishlarni insonning jamoaviy guruqlar hamda jamiyatning yosh va ijtimoiy guruqlari maqsadlari bilan bir qatorda, individual maqsadlarini tan olishi, ta`limning etnik xususiyatlar va mintaqaviy sharoitlarga mos qilib isloh qilish uchun sharoitlar yaratilishi kabilalar bilan izohlash mumkin.

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- turli yoshdagi shaxslarning manfaatlari va ehgiyojlarini, turli etnik qatlamlarning ijtimoiy-kasbiy talablarini, hududiy va mintaqaviy tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi tarbiya muassasalarini tashkil etish;
- ijtimoiy tarbiyaning mintaqaviy va hududiy tizimlarini tashkil etish;
- mahalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish;
- inson tomonidan o'zining rivojlanish strategiyalari, hayotiy va kasbiy yo'llarini tanlashdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish.

Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili. Bolaning ijtimoiylashuvi mikroomillar ta'sirida, tengdoshlari va kattalar (oila, qushnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o'zaro munosabatlarida ro'y beradi. Ijtimoiy tarbiya bir tomonidan, jamoalarda amalga oshirilsa, boshqa tomondan, bolalar va o'smirlarni jamoa hayotiga ob`ektiv zarurat sifatida kiritib boradi.

Jamoa tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi haqidagi g`oya juda qadimda paydo bo'lган. Uning nazariy asoslari XIX asrdan boshlab, pedagogik nuqtai nazardan, jadallik bilan ishlab chiqilgan. Jamiatning hozirgi rivojlanish bosqichida real hayotdagi inson ijtimoiylashuvi muammolari va insonning o'zgarib turuvchi dunyoga kirishi, jamoaviylik tamoyilini ijtimoiy tarbiyaning etakchi tashkiliy asosi, deb hisoblashga zamin yaratadi.

Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta`rifiga ko'ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga hayot tajribasi, umuman olganda esa, jamiatga ko'nikish tajribasini qo'lga kiritish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarbiyaning bиргалидаги фаoliyat tamoyili. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi suhbatning zarurligi g`oyasi qadimgi Elladada paydo bo'lib, o'rta asrlar ta`lim metodlarida, keyinchalik esa bir qator pedagoglarining asarlarida o'ziga xos rivojlanishga erishdi.

So'nggi o'n yilliklarda tarbiyaga sub`ekt-ob`ekt jarayoni sifatida qarash, keyinchalik esa bu yondashuvni pedagogik amaliyotda tarqatish bu tamoyilni pedagogika uchun nihoyatda muhim tamoyilga aylanishiga olib keldi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko'ra bolalar, o'spirinlar, o'smirlarning ma`naviy-ma`rifiy rivojlanishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi qadriyatlar (aqliy, ijtimoiy) almashuvi jarayonida amalga oshiriladi. Bular:

- dunyo madaniyatlari va aniq bir jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlar;
- ijtimoiy tarbiya sub`ektlariga xos bo'lgan qadriyatlar;
- tarbiya tashkilotlarining muayyan a`zosiga xos bo'lgan qadriyatlar.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyili tarbiyachi vatarbiyalanuvchining tengligini taqozoetmaydi. Bu hol yoshdagি tafovutlar, hayotiy tajribaning bir xil emasligi, ijtimoiy rollarning assimmetrialligi bilan izohlanadi. Birgalikdagi faoliyat tamoyilida birinchi o'rinda tenglik emas, balki o'zaro hurmat va sofdillik turadi.

Tarbiyaning davomiyligi tamoyili. Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylik tavsifidan kelib chiqadi. Tarbiyaning davomiyligi tamoyili inson rivojlanishining har bir bosqichini individual va ijtimoiy qadriyat, deb biladi. Bu tamoyilga ko'ra, har bir bola yoki o'smirning ijtimoiy rivojlanishida doimodavomiy va tugallanmaydigan jihatlar mavjud bo'ladi. Chunki bolalar dunyo va o'zi bilan o'zaro munosabatda bo'la turib, doimo o'zlarining innovatik xususiyatlarini saqlab qolishadi (Masalan, J. Tolstoy o'z hayoti davomida unda beshta inson o'zgargan, deb hisoblaydi).

Tarbiyaning davomiyligi tamoyiliga ko'ra uni shunday tashkil qilish kerakki, har bir yosh bosqichida inson "qayta shakllanish" imkoniyatiga ega bo'lsin.

Sanab o'tilgan tarbiya tamoyillarini inobatga olinishi va ularning ta`minlanishini ijtimoiy pedagogik faoliyatda ijobiy natijaga erishishning shartlaridan biri, deb hisoblash mumkin.

3. Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari

Har bir fanni shu fanning o`rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida o'z ifodasini topadi. Tushuncha-real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biridir. Realliklarning o`zgaruvchanligi va ko`p kirraligi tufayli tushunchalar

dinamik, rivojlanadigan xarakterga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'lik ravishda o`zgaradi.

Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalari birlashishadi. **Fan kategoriyalari shu fanda qo'o'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.**

Har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatları, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Insonshunoslik fanlari tizimida ijtimoiy pedagogika fanining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarbiya, ta'lism, ma'lumot qonuniyatlarini o'rghanadi va ularning yaxlitligini, uyg'unligini ta'minlash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratadi. Shu bois Pedagogika fanining asosiy tushunchalari (kategoriyalari) tarbiya, ta'lism, ma'lumotdir.

Tarbiya- aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir hisoblanib, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Tarbiya jarayonida insonda alohida xususiyatlar, qarashlar, fikrlar rivojlanishi bilan bir qatorda, unining intellekti(aqliy qobiliyati), jismoniy hamda ruhiy sifatlarini tarkib toptirish amalga oshiriladi. Tarbiya inson ma'naviy olami-ko'zgusidir.

Tarbiya haqida pedagogik nuqtai nazardan keng ma'no beradigan bo'lsak, ta'lism tarbiya muassalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv tarbiya jarayonining biror maqsadni amalga oshirish uchun oldindan tashkil etilgan faoliyat tushuniladi.

Ikkinci asosiy pedagogik kategoriya - **ta'lism** ya'ni o'qitish, bilim berish, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish tushunchasidir. O'qitish o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatidan iborat bo'lган, aniq maqsadga karatilgan jarayondir. Ta'lism jarayonida o'quvchilar, o'qituvchi rahbarligida insoniyat tomonidan yaratilgan, hayot uchun, kelajak faoliyati uchun zarur bo'lган ilmlar

bilan qurollanadilar, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Ta'lism jarayonining o'ziga xos xususiyatlardan yana biri shundan iboratki, bu jarayonda ijodiy tafakkur rivojlanishi, intellektual qobiliyatlarni jadal o'sishi, mustaqil bilim olishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Agar bu jarayon o'qituvchi va o'quvchining faolligi asosida tashkil etilmasa o'qishdan kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'qituvchi bu jarayonda faqat ma'lumotlar bayon qilish, o'zlashtirish jarayonini boshqarish bilan cheklanmay, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatlarini tashkilotchisi bo'lishi kerak.

Asosiy pedagogik kategoriyadan yana biri **ma'lumot** tushunchasidir. Ma'lumot- ta'lism tarbiya jarayonining natijasi orqali egallangan bilim, ko'nikma malakalar yig'indisi va shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lism standartlari bo'yicha bilim beradigan, aniq rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil kilinadigan ta'lism-tarbiya jarayonidir. Ma'lumot ta'lism tarbiya natijasidir.

Xullas, pedagogikaning asosiy kategoriyalari tarbiya, ta'lism, ma'lumot jarayonida o'quvchilar ma'naviy axloqiy yuksaklikka erishadilar, qo'lga kiritilgan ilmiy bilimlar yordamida o'z dunyokarashlarini shakllantiradilar, intellektual qobiliyatları, ijodiy tafakkurları, aqliy faolliklarini namoyon qiladilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari olimlar "**ijtimoiy pedagogik faoliyat**" "**ijtimoiy ta'lism**" va **ijtimoiy tarbiyani kiritishadi**.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq- atvorning me'yor va qoidalari haqida juda ko'plab bilimlarni o'zlashtiradi. Ular shuningdek jamiyatga ko`nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradilar. Bu jarayon ayniksa bolalikda juda jadal amalgal oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha o'zining keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U ularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-

onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – “agent”lar) katta ta’sir ko`rsatishadi.

Bolalar hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o`zlashtirishlari va ularni hayotda qo`llashga intilishlari aynan ularning o’ziga bog’liq.

Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog’liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta’lim muassasida o’quvchi ta’lim olishi jarayonida avvalo akademik bilimlarni o`zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarni ham qo`lga kiritadi. Bu bilim, ko`nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo`lganda juda zarur bo`ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko`nikmalarni shakllantirish jarayoniga **ijtimoiy ta’lim deyiladi.**

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Shu bilan birga “tarbiya” tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug’aviy ma’nosiga qaraganda ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyat, bilim, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko’rib chiqish lozim.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo`naltirishdir.

Bu sharoitlar individual va guruxiy sub'ektlarning uchta o`zaro boglik va shu paytning o`zida mazmuni, shakli, usuli jixatidan nisbatan mustaqil bo`lgan jarayonlar: (bolalar, o`smirlar, o`sprinlar)ni qamrab oladi. O`smirlarning ijtimoiy tajribasini uyuştirish, ularga individual yordam tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko`rsatishning o`zaro munosabati jarayonida yaratiladi.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoa)larning hayotiy faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bularga guruh a'zolarining o`zaro munosabatlarini

tashkil qilish, guruhdagi faoliyatga rag'batlantirish va norasmiy mikro guruhlarga ta'sir etish.

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko`nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko`nikish, shuningdek o`z-o`zini anglash, o`z-o`zini aniqlab olish birligidir.

Ta'lim o`z ichiga quyidagilarni oladi: tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targib qilish va tarqatish, o`z-o`zini shakllantirishga yo`naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda yordam berish, o`z-o`zini rivojlantirishga yordam berish, jamiyatdagi mavqeい, o`rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Individual yordam boshqa insonlarning extiyojlarini kondirishga zarur bo`lgan bilim, malakalarni o`zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o`z kadriyatlarini anglashi, o`z-o`zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, kaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiymadaniy mansubligiga boglik. Bu jixatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda bir-biridan farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o`z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'lik bo'ladi.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o`zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvildir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jixatdan tabaqalashgan, alohida ko`rinishga ega. Chunki o`zaro munosabatning anik ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruqlar vakili bo`la turib o`z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlarga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda o`zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o`zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog`liq.

O`zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma`naviy bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishda qulay shar-sharoitlar yaratadi.

Shu bilan birga, “tarbiya” tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsaddariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshqa tomondan, tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiyligi kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug`aviy ma`nosidan ancha kengdir. Shuni hisobga olib, ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, kdtsriyatlar, u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarinirivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko`rib chiqish lozim.

Boshqa so`zlar bilan ifodalaydigan bo`lsak, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo`naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiy sub`ektlarning uchta o`zaro bog`liq va shu paytning o`zida mazmuni, shakli va usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo`lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o`smirlar, o`sipinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta`lim olishlarini ta`minlash hamda ularga individual yordam ko`rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoa)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o'z- o'zini boshqarish faoliyatini rag`batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta`sir etish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba keng ma`noda turli ko`nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me`yori va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek, o'z- o'zini anglash, o'ziga ishonch, o'z ijtimoiy xayot yo'lini belgilash va shu yo'lidan borish tushuniladi.

Ta`lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: uzlusiz tizimli ta`lim (rasmiy ta`lim), madaniyatni targ`ib qilish vatarqatish, o'z-o'zini shakllanti{5ishga va mustaqil ta`lim olishga yo'naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o'z- o'zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqeini, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, uning o'z qadrini bilishi, o'z-o'zini anglashi hamda unda oila, guruh va jamiyatga mansublik hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta`lim va individual yordamning usul, shakl, mazmun, tavsifi va jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarining yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi va ularning qaysi ijtimoiy madaniy soxaga mansubligiga bog`liq. Bu jihatlar ta`lim muassasalari va tashkilotlarida turlicha bo'lib, bu farq tashkilot turiga, unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning amalga oshirayotgan ishlariga bog`liqdir.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat shu jarayonning sub`ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari va qadriyatlar almashinuvdir. Bunday munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqlashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular o'zlariga mansub guruhlarga tegishli ijtimoiy xulqni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati, bu faoliyatning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, faoliyat ishtirokchilari va ular o'zlarini qay darajada shaxe deb hisoblashlariga bog`liqligi bilan belgilanadi.

O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma`naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi. Ijtimoiy pedagogikaning bilim soxasi bir nechta bo`limlardan iborat. Bu bo`limlarda olingan bilimlar ijtimoiy tarbiyani ijtimoiy amaliyotning turlaridan biri sifatida xarakterlashga va uni mukammallashtirish bo`yicha muayyan yondashuv va tavsiyalarni berish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy tarbiya falsafasi falsafa, etika, ijtimoiy sotsiologiya va pedagogikaning o'z-aro to`qnashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o`rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta'rifi beriladi: inson obrazini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chikiladi; **ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab chiqiladi** va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya pedagogikasi ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o`rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya soloxiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etishi mumkin bo`lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish va salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya pedagogikasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar **jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo`lishi mumkin**.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiyaning **faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi**. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chikib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma'lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individ, guruh, ijtimoiy sub'ektlari nima ekanligini va ular o`zaro qanday munosabatda bo`lishlarini o`rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o`zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya metodikasi ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomonidan jamiyatning inson mablagiga extiyojini, boshka tomonidan ijtimoiy tarbiyani tashkil etishda foydalanishi mumkin bo`lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo`limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko`rib chiqiladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir kator vazifalarga ega. A.V.Mudrik bu vazifalarni 3 guruhga ajratib ko`rsatadi: nazariy, insoniylikka oid va amaliy.

Nazariy vazifa ijtimoiy pedagogik bilimlarni to`plab zamonaviy jamiyatda o`rganayotgan jarayon va xodisalarining to`lik tasvirini tuzishga intilishida namoyon bo`ladi.

Amaliy vazifalarga ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashqiliy-pedagogik va psixologik yo`nalishlardagi ta`sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog`liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

-bola (o`smir) ongida yaxshilik,adolat,yaqinlariga,ijodga,o`zaro tushunishga muxabbatni tarbiyalash;

-inqirozdan mustaqil chiqib ketish maqsadini qo`yish, chiqish yo`llarini aniqlash, atrofdagilar bilan muomala qilishni o`rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlash;

-atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma`naviy xususiyatlari, jamiyatdagi huquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish;

-g`urur, mustaqillik, o`ziga ishonch xissini rivojlantirish;

-bola (o`smir)da insonlar bilan oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala qilishga ishtiyokni oshirish. Bunda ijtimoiy pedagogika o`z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, u bolaga

ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq normalariga suyangan xolda insonlar, shaxs va jamiyat o`rtasidagi nizolarni echishga o`rgatishi kerak. Bu vazifalarni yaxshilik qilish, o`z xayotini tashkil qilishni o`rgatish, o`ziga xosligi va iqtidorini tashkil qilishga rivojlantirishda o`z aksini topadi.

Insonparvarlik vazifasi shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o`z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o`rtasidagi munosabatlarni qattiqqo`llik emas, o`zaro tushunishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi **bolaning jismoniy, axloqiy va ma`naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.**

Y.V.Vaselkova ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalari sifatida tarbiyaviy, ijtimoiy- huquqiy va ijtimoiy -reabilitatsion umumlashmalarni ajratadi.

Tarbiyaviy vazifa bolani atrof muhitga ko`shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o`quv va tarbiya jarayoniga ko`nikishini ko`zda tutadi.

Ijtimoiy- huquqiy vazifa davlatning bolalarga g`amxo`rligi, ularning huquqiy himoyasini bildiradi.

Ijtimoiy reabilitatsion vazifa- nogiron, jismoniy va ruxiy nuksonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o`quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi.

Shu bilan birga u vazifalarning yanada kengroq tavsiflarini ham beradi:

- 1.Falokatga uchragan bola(o`smir)larga yordam ko`rsatish. Inqirozdan chiqish yo`llarini topish, qiyin vaqtda qo`llab-quvvatlash ham muhimdir.
- 2.Bola(o`smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o`rganish.
- 3.Bolani o`rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalardagi ijtimoiy tarbiya holatining tahlil.
- 4.U bola (o`smir) faoliyatini o`z-o`zini tarbiyalash, o`z-o`zini o`kitish va o`z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi .

5.Ijtimoiy pedagog bola (o`smir) muammolarini hal qiluvchi, uning inqirozi, huquqlariga aloqador tashkilot, mutaxassislarini birlashtirish bilan ham shug`ullanish.

6.Ijtimoiy pedagogning vazifalaridan biri ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o`rganishni tashkil qilish, ijtimoiy pedagoglar faoliyatini taxlil qilishi lozim.

4. Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo`lishi va rivojlanishi

1917 — 1940 yillardagi ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlari

Bu vaqtida barcha joylarda, jumladan, O`zbekistonda ijtimoiy tarbiya bo`limlari tuzila boshlanadi. Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy huquqiy himoyasi bo`yicha muassasalar tashkil etiladi. XX asrning 20-yillarda maktabga moddiy yordam beruvchi “komsod” (yordam qo`mitasi) nomli tashkilotlar faoliyat yuritgan. Shuningdek, kam ta`minlangan oilalarni moddiy ta`minlovchi "kambag`allik fondlari" ham mavjud bo`lgan. Bu fondlar kambag`al oilalarni eng kam miqdsordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlaganlar.

V. F. Lubentsov tomonidan boshqariladigan Karl Libxknet nomli mehnat maktabining tuzilishi respublika hayotida muhim voqeа bo`lgan. Maktabining faoliyati ijtimoiy pedagogik tamoyillarga asoslangan edi. Ushbu ta`lim muassasasi Toshkent shahri yaqinidagi 600 ta etim bolalar tarbiya topgan ilk maktablardan edi. Turkiston ASR hukumati 1918 yilda maktabga Nikolskoe qishlog`i yonidagi yangi binoni beradi. 1919—1920 yillar qishi juda og`ir keladi. Bolalar isitilmagan xonalarda yashashar edi, na chiroq, na kerosin bor edi. Qiyinchiliklarga qaramay maktab pedagogik jamoasi ijod bilan mashg`ul bo`lishni davom ettirardi. Maktab bayramlarida yosh iqtidorli bolalar turli tomoshalarda ishtirok etishardi. O`quvchilar aksariyat vaqtlarini toza havoda, sport bilan shug`ullanish yoki turli rasmlar chizish bilan o`tqazishardi. O`quvchilarning o`ziga xos hususiyatlarini inobatga olib, maktab pedagoglari ta`lim- tarbiyani qattiqqo`llik va kuchli intizom tamoyillari asosida olib borar edilar. Maktabning o`quv va mehnat faoliyati yorqin ijtimoiy yo`nalishga ega bo`lgan. Masalan, “Nihol” to`garagi eng kambag`al

aholiga 6000 dona nihol hadya etdi, 30 ta dehqonga qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida ishtirok etishga ko'maklashadi.

"Tozalik" to'garagi qishloqdagi ovqatlanish, suvdan foydalanish, maishiy va sanitar-gigienik sharoitlarni nazorat qilardi. O'qituvchilar o'zлari turli fanlardan o'quv qo'llanmalari tuzar edilar. Jismoniy mehnat, o'quv va sinfdan tashqari mashg`ulotlar bilan o'rIN almashtirib o'tkazilardi. Bahor, yoz va kuzda mashg`ulotlar dala va bog`larda o'gkazilar edi. Ular bug`doy, paxta, guruch, jo'xori, sabzavotlar etishtirish bilan birga ipakchilik, asalarichilik bilan ham shug`ullanishardi. Bunday turli xil mashg`ulotlar o'quvchilarda agrotexnik va zootexnik ko'nikmalar shakllanishiga olib kelgan.

Bolalar mustaqilligi va mas`uliyatligini rivojlantir ishning yana bir metodi o'z-o'zini boshqarish tizimi bo'lib, u jamoada muomala qilish ko'nikmalarini shakllanishiga ko'mak bergen.

Maktab jamoasi barcha moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etgan va 1921 yilda bu muassasa tajriba maktabiga aylantirilgan. Qisqa vaqt mobaynida iqqidorli va qiziquvchan pedagoglar jamoasining tashabbusi bilan ushbu maktabga o'qituvchi kadrlar malakasini oshirish bilan shug`ullanuvchi, shahar va qishloq maktablari uchun metodik qo'llanmalar, dasturlar chiqaruvchi respublika ilmiy-metodika markazi maqomi berilgan.

Maktab jamoasi ilk marta "Qishloq o'qituvchisining kutubxonasi" nomli metodik darsliklar yaratgan. Shuningdek. 1925 yilda V. Lubentsovning "Boshlang`ich maktabda dars berish metodlari" (o'zbek tilida) nomli kitobi, 1928 yilda V. F. Lubentsov va N. P. Arxangelskiy taxriri ostida "Bilim" nomli o'zbek maktablari boshlang`ich sinf o'quvchilari uchun ilk xrestomatiya chop etilgan.

Bu maktab tajribasi nihoyatda qiziqarli bo'lib, ba`zi jihatlarini zamonaviy ijtimoiy vaziyatda qo'llash maqsadida o'rganishni talab qiladi.

1920 — 1930 yillarda ijtimoiy pedagogik tarbiyaning asosiy yo'naliishlari quyidagilar bo'lган:

- savodsizlikni bartaraf etish (ayniqsa, ayollarda);
- mehnat tarbiyasi va ta'limni yo'lga qo'yish;

- maktab-internatlarni yaratish;
- ta`limni ishlab chiqarish bilan birlashtirish.

XX asrning 30-yillarida bolalarning maktabdan tashqari faoliyati rivojlanan boshlagan. Bunda bolalarning texnik va qishloqxo`jalik stantsiyalari, klublari, kutubxona va teatrлari faoliyat yuritgan. Maktab to`garaklari yoshlarning ijodini rivojlantirish hamda ularning bo`sh vaqtlarini maroqli o`tkazishlari uchun vosita sifatida tashkil qilinard edi. Aynan shu davrda pedagogik faoliyatini boshlagan o`zbek shoiri G`. G`ulomni (1903 — 1966) tilga olmay iloj yo`q.

1918 yilda G`. G`ulom ilk o`zbek maktab-internatlarining ochilishida faol ishtirok etgan va 1943 yilgacha bu maktablarda dars bergan. Uning faoliyati bir qator ijtimoiy pedagogik vazifalardan—savodsizlikka qarshi kurash, kattalar uchun kechki kurslarni tashkil qilish, ta`lim berishning ilg`or usullaridan foydalanish, o`quvchilarning mustaqil badiiy faoliyatiga rahbarlik qilish, o`quvchilarda kasbga va mehnatga qiziqish uyg`otishdan iborat edi. G`.G`ulom oilaviy tarbiyaga katta e`tibor bergan va bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy rivojlanishi ko`p jihatdan ota-onaning shaxsiy namunasiga bog`liq ekanligini dalillar bilan asoslab bera olgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha qadimiy davrlarga borib taqaladi. Uning qadimiyligi buyuk mutafakkirlarning ilmiy qarashlarida o`z tasdig`ini topgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi 3- bosqichdan iborat.

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo`lga kiritgandan so`ng o`qitala boshlagan bo`lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat-ijtimoiy himoya ko`rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go`ro`gli) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chikishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etishini ko`ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida Islom dinining tarqalishi yangi ma`naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta`sir ko`rsatdi. Markaziy Osiyoning arab xalifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o`zaro munosabatlarning

shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik va ishlab chiqarish hamda savdo rivoji extiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma’naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o`zlashtirishga yordam berdi.

Hozirgi vaqtida ijtimoiy pedagogika faniga zaruriyat va uning ahamiyati

XX asrda yoshlarning ijtimoiylashuvi muammosi nafaqat umummilliy, balki xalqaro xarakterga ega bo`la bordi. Ta’lim va tarbiya, xususan ijtimoiy tarbiya hukmron doiralar tomonidan odamni individ sifatida rivojlanishida bir vositagina emas, balki o`sha davrda hukmron bo`lgan ijtimoiy, siyosiy va ideologik tartiblarni barqarorlashtirish vositasi sifatida ham olib qaraldi. Shunga muvofiq tarzda ko`pchilik mamlakatlarda barcha jamiyat a’zolarini o`qitish va ularga madaniy tarbiya berish davlat dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Davlat va siyosiy tashkilotlarning, harakatlarning rahbarlari o`zlarining saylovoldi dasturlariga ta’lim va tarbiya masalalarini albatta krita boshladilar. Albatta, bu shaxslar birinchi navbatda o`z manfaatlarini ko`zlagan bo`lsalarda, shu bilan birga unda ma’lum ma’noda jamiyatni gumanizatsiyalash va demokratlashtirish, shu asnoda har bir shaxsning rivojlanishi uchun ham sharoit yaratib berish kabi masalalar ham qo`yildi.

Mana shu tendentsiyalar pedagogik kontseptsiyalar va eksperimentlarda o`z ifodasini topdi. Endi insonga ta’lim va tarbiya berish odamni butun rivojlanish yosh boskichlarida uni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida olib qaraladigan bo`ldi. Har bir jamiyat a’zosi o`zining ongini har tomonlama shakllantirishi, insoniyatning kelajagi uchun mas’uliyatni chuqur sezishi kabi masalalar vazifa qilib ko`yildi. Ijtimoiy tarbiyaning mana shunday nazariyasi va amaliyoti tushunchasiga binoan «ijtimoiy faoliyatga loyiqliq» uning maqsadi qilib e’lon qilindi.

Ana shunday jarayonlar oqimida ijtimoiy ta’lim tizimida, ya’ni, «anomal odamlar»ga ta’lim berish va tarbiyalashda katta o`zgarishlar sodir bo`ladi. XX asrning 2 – yarmida G`arbiy Evropa mamlakatlarida pedagogika nazariyasida va

amaliyotida jamiyatdagi xulq – atvori salbiy xarakterda bo`lgan shaxslarni har tomonlama o`rganish g`oyasi ilgari suriladi. Ammo, milliy – etnik, siyosiy, diniy hamda jismoniy va aqliy jihatdan ojiz shaxslarni ajratib olishning iloji bo`lmaydi.

Yangi madaniy norma asoslarini yaratishga (odamlar o`rtasidagi farqlarni hurmat etish, odamlar o`z rivojlanishida qanchalik og`ir salbiy xulq – atvorga ega bo`lsada, ularni ta`lim – tarbiya olishga yaroqli deb hisoblash) kirishildi. Barcha turdagи internatlar va maktablar, dispanserlar, segregatsion muassasalar deb, maxsus ommaviy ta`lim tizimidan ajralgan, bekik muassasalar esa – diskriminatsion (haq – huquqlari cheklangan, kamsitilgan) deb tan olinadi.

Mana shu tizimga bolani joylashtirib qo`yish – uning huquqlarini buzilishi, deb qoralandi. Yangi terminologiya: «maxsus hojat va ehtiyojli bolalar», «muammoga ega bo`lgan bolalar», kabi iboralar paydo bo`ldi. Oldin ularni **«anomal bolalar»** deb atashardi. Endi – «tentak», «imbetsil», «daun», «mayib», «aqli past», «lunatik» – «oyparast» kabi ta`riflar odobsizlik deb hisoblanadigan bo`ldi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar, tendentsiyalar XX asrning 80 – yillarida asta – sekin ko`pchilik rivojlangan mamlakatlar aholisining ijtimoiy ongida ijtimoiy pedagogik fikr va amaliyotini to`la huquqli oqimi sifatida mustahkam joy oldi.

XX asrning 50-yillariga kelib ijtimoiy pedagogika muammolarining global darajaga etganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda alohida e'tibor yetimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko`p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko`rsatishga qaratilgan.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbazarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uyida tarbiya ishlari o`tkazish maqsadidagi ijtimoiy tarbiya asosi sifatida ta`rif etila boshladи.. Ijtimoiy pedagogika pedagogikani rivojlanishi bilan birga chet ellarda ijtimoiy pedagogika sohasidagi mutaxassislarning kasbga oid faoliyati ham rivojlandi. Xususan, XX asrning 70-yillarida Germaniyada oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlana boshlandi.

Bizning respublikamizda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarinihg tiklanishi murakkab sharoitlarda amalga oshmoqda; davlat ta'lif standartlari, mutaxassisliklar, darsliklar, o'quv rejalarini va dasturlarning yetishmasligi, ijtimoiy muhofazaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi chet el mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik asosida bo'lishi kerak. Chunki Germaniya, Angliya, AQSH larda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy pedagogika predmeti va obyekti haqida ma'lumot bering.
3. Ijtimoiy pedagogikaning prinsiplarini sanab bering?
4. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari mazmunini yoritib bering.
5. Gumanizm printsipi haqida ma'lumot bering.
6. Madaniyat bilan uyg'un bo'lish printsipi haqida ma'lumot bering.
7. Ijtimoiy pedagogikaning pedagogika va sotsiologiya bilan o'zaro bog'liklari nimalardan iborat?
8. Ijtimoiy pedagogikaning qanday kategoriyalari bor
9. Ijtimoiy tarbiya nima ?
10. Ijtimoiy-pedagogikfaoliyatnima?
11. Ijtimoiy ta'limning uziga xosligi.
12. Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlarning ijtimoiy hayotga ta'siri qanday bo`ldi?
13. Hozirgi vaqtida ijtimoiy pedagogika faniga zaruriyat tug'ilganligini nimalarda ko'rish mumkin?
14. Rahmdillik va xayr-sahovatnin o'rni tariximizda va bugungi kunda qanday?
15. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti nimalardan iborat?

16. Ijtimoiy pedagogika qaysi fanlar bilan aloqada rivojlanadi? Misollar keltiring.

II- BOB. IJTIM OYILASHUV OM ILLARI VA MEXANIZMLARI

SHAXSNI O'ZINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Inson dunyoga individ sifatida keladi. Individ deganda biz odamning insonlik jinsiga mansubligini tushunamiz. Individga yangi tug'ilgan chaqaloq ham, katta yoshdagilar ham, til va oddiy malakalarni egallay olmaydigan telbalar ham kiradi. Lekin ulardan ijtimoiy munosabatlarga qatnashuvchi, jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchi odamgina shaxs deb ataladi.

Shaxsning uch asosiy belgisi bor:

1. Shaxsning ijtimoiyligi.
2. Ongi.
3. O'zini anglashi.

Individ sifatida dunyoga kelgan chaqaloq ijtimoiy munosabatlar tizimiga duch keladi va ijtimoiy tajribalarni atrof-muhitdagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlarda egallay boshlaydi. Unda narsa va hodisalarga, atrofdagi kishilarga bo'lgan munosabatlarda faollik paydo bo'ladi. Ijtimoiy muhit bilan organizm

orasidagi qarama-qarshiliklar jiddiylashadi va ularga moslashish, yengish jarayonida faollik kuchayadi. Faollik shaxsga xarakterli bo‘lgan xulq-atvor motivlarida, amal-usullarida keyinchalik bolani tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zgartirishga qaratilgan turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo‘ladi. Odamga ta’sir qilayotgan hamma tashqi ta’sirlar ijtimoiy shart-sharoitlar tizimi yoki faoliyatning ichki sharoitlari bilan o‘zgartiriladi va shaxs shakllana boshlaydi. Jamiyatdan tashqarida odam odam bo‘lolmaydi va kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa ularning amaliy faoliyatidagi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabati bilan belgilanadi. Odam boshqa kishilarga munosabatda bo‘lish tufayligina onglioq bo‘lib qoladi va uning psixik hayoti muayyan mazmunga ega bo‘ladi. Ana shu munosabatlar nechog‘li mazmundor va rang-barang bo‘lsa, odamning psixik hayoti ham shunchalik mazmundor va rang-barang bo‘ladi. Odam ongingin yuksak belgisi – uning o‘zini anglashidir, odamning o‘zini anglashi ham shaxsning muhim belgisidir.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Fransuz olimi Gabriel Tard Amerikalik Uri Bronfenbrener, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiyarning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Mayjud ma’lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko’rsatish imkonini beradi:

I.P.Podlasiy tasnifi bo'yicha: Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o‘z o‘rnida ixtiyoriy va g‘ayri ixtiyoriyga bo‘linadi. G`ayri ixtiyoriy mexanizm-unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi.

Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir; ajratish mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o‘zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog’liq.

Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

O‘z-o‘zini cheklash mexanizmi, bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim

o’rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do’stlarinikidan ko’ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o’z-o’ziga hurmati pasayadi, yomon o’qiy boshlaydi. Bu o’z menini cheklab qo’yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba’zi hollarda o’z-o’zini cheklash mexanizmini qo’llashni oqlasa bo’ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo’lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o’z-o’zini cheklash, o’z-o’ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o’z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so’ng boshlagan ishini tashlab qo’yadi, oqimda suza boshlaydi o’z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash loyihalash mexanizmining mohiyatini tashkil qiladi. O’ziga, boshqalarga qarshi qaratilga qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o’ziga bo’lgan hurmatni saqlab qoladi.

Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi; ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmlaridan biri bu **identifikatsiyadir**. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o’zini o’rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya obyekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo’lishi mumkin. Identifikatsiyaning to’liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud. Identifikatsiya mexanizimi introyeksiya mexanizimi bilan juda bog’liq. Bunda boshqalarning xislatlari o’zgarmagan holda o’zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

Empatiya mexanizmi, ya’ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo’lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

Qiyin holatlarda intellektuallashuv mexanizmi ishga tushadi. Katta yoshdagি tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo’lini o’zi uchun emas, go’yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa mакtabga o’tish, institutga kirish) duchor bo’lganda namoyon bo’ladi.

Ratsionallashuv mexanizmida tarbiyalanuvchi o’z xatti-harakatlarining mantiqiy xulosasini chiqaradi. Yosh ratsianalizatorlar odatda maqsadning diskreditatsiyasini

qo'llashadi. Fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun harakatlarni bekor qilish mexanizmi qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

1. Ta'lim-tarbiya bola (o'quvchi) shaxsni ijtimoiylashtirish omili sifatida.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. **Individ** lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi.

Individuallik esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatları, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskinining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'naliш deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rnlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergen, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixevoirizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib

kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagি murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtaida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtaсидаги murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlichcha bo'ladi. Ta'lim

muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollahadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki

ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyatini tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (40 kun) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha ta'lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar – 7-11- yoshgacha.
5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 12-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Zero, O'zbekiston Respublikasida uzlucksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Kichik mакtab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga

emotionsallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlik 12-15 yosh). O'smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

2.O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarnig hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas. 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagи o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish – kompyuter va teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz

o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxbab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun mакtabga bordigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda bирор нарсага ерішішга nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun mакtab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar.

O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. SHuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar.

Shuning uchun o'smirga o'z vaqtini rejalahtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta mакtab yoshi – kollej, litsey, hunar-maktablari o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi. his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. SHuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik_bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. SHu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeい, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxsning ijtimoyilashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchisi tomonidan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

2.Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoiy sifatlari.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri bu muomala. Muomala va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi::

- go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli o'yinlar;
- ilk muktab davri-o'quv faoliyati;
- o'smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
- o'spirinlikdavri-shaxsiymuloqotfaoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rinn tutishadi. Ularni

ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-onas, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davrig kelib agentlar qatoriga turush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinalariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan.

O'rganilgan omillar haqida bilimlar yetarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari 4 guruhgabo'linadi;

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritса bo'ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir, ko'rsatadi.

2. Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4. Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta'sir qiladi. Mikro omillarga muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar-oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillarajratib ko'rsatiladi.

Biologik omillar . Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiyl jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. SHuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xusuiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari assosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud-qon kasalligi, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni genetika o'rganadi.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayogan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. SHuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. SHuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy subyekttga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqla bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, mактab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. YOsh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallahsga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lган uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Suning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllantirishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'r ganish obyekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rgandilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni. Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'r ganiladi. Shu nuqtai nazaridan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuviningina yetarli bilishi lozim bo'lган ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan

darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqe'larni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafiqqa, ham ona, ham ustoz mavqe'larini egallashi mumkin. Har bir mavqe' insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqe'i ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha bo'yicha diplomga ega bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridaq maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muximdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkabligi jihatni shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ham ijobiy ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi roldir. Bolalar bog'chasi va maktabda sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. CHunki u hayoti mobaynida zarur bo'lган narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol-o'z vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan fahrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. SHu bilan birga bola o'zlashtirishi mumkin bo'lган boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola mакtab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi rolini misol qilsak bo'ladi. Katta shaharlar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv omili sifatida

So'nggi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rghanishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lisi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan *Maks Veberg* uni muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini subyekttiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzlusiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. SHunga qaramay tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini to'liq ochib bera olmaydi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiyligini aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan.

1.A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya-insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariiga mos keluvchi

sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rif to'liq to'g'ri hisoblanmaydi. Bu faqat muallifning nuqtai nazarini aks ettiradi.

ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. **Tarbiya jarayonida bola** ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar- muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniغا ega hamda boshqa omillarning o'rnnini to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon-*o'z-o'zini tarbiyalash* jarayoni rivojana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir.. SHuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Demak, bolaning rivojlanishi ikki yo`nalish asosida amalga oshiriladi: ijtimoiylashuv va individualizatsiyalanish.

Agar sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda o`z navbatida bola o`zining ham individual xususiyatlarini sotsiumga qo'shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi.

Bu jarayonlar, stixiyali va tartibsiz holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma'lum maqsadga yo`naltirilib ham borilishi mumkin. Bu jarayon esa tarbiyalash deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil faoliyati esa o`z-o`zini tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarning va tarbiyachilarining harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan.

Bolaning ijtimoiy muhitga moslashuviga to`sinqinlik qiluvchi ijtimoiy-ma'naviy fazilatlarning yo`qligi hamda ularning shakllanmay qolishi ijtimoiy dezadaptsiya deb ataladi. Bunday holatlarda ularning oldini olish hamda ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak bo`ladi. Demak, bolaning jamiyatda ijtimoiy adaptatsiyalanishiga, uning ijtimoiy statusini qayta tiklashga, yo`qotilgan ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan faoliyat turini ijtimoiy reabilitatsiya qilish deb ataladi.

O'zbek xalqi shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta`lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o`z yurtining o'tmishiga hurmat, milliy an`analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining xarakteri va yo`naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish va madaniy ta`lim darajalari ta`sir qiladi.

Milliy xislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, saqlanishi va avloddan-avlodlarga uzatilish vositasi milliy odat va an`analar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar asosida o'zbek oilasida rostgo'ylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O'zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma`naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy

tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy an`analar va marosimlarga hurmat, bolalarni yaxshi va xayrli amallarni qilishga undash, o`z so`zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo`lishi, sabr-toqatli bo`lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorlik va o`zaro hurmat tamoyillari asosida qurilishi kabilar kiradi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiylashish o`zining mazmuni va shuningdek vositalariga ko`ra odamning turli omillar bilan (tabiatdan boshlab to o`z o`zi bilan tamom bo`lgunicha) juda murakkab o`zaro bir – biriga ta`sir etishi, o`zaro munosabatga kirishishidir. Uni umuman olganda jamiyat va ayniqsa davlat amalga oshiradi. Ular doimo va turli shakllarda hamda turli darajalarda ushbu munosabatlar jarayonini boshqarib turishga chiqarilgandir. Bunda barcha hollarda pedagogik faoliyat maqsadli tashkil etilgan harakat sifatida aholining barcha qatlamlari, turli avlodlar va individlar orasida ta`limiy – tarbiyaviy tadbirlar ijtimoiy qadriyatlar tizimiga kiritiladi. Istalgan bir jamiyat va davlat shunday bir odam tipini shakllantirishga harakat qiladiki, toki u davlat ko`zlagan ijtimoiy ideallarga mos keladigan bo`lsin. Davlat o`z fuqarolarini o`z jinsiy rollarini (erkak va xotin rollarini egallahslari), kasbiy (ijtimoiy xayotning barcha sohalarida omilkorlik bilan qatnashish), siyosiy (qonunga bo`ysunuvchi, uni hurmat qiluvchi fuqaro bo`lib etishish) va boshqa xil ijtimoiylashuvlardan manfaatdordir.

Insonning atrofdagi muhit bilan o`zaro aloqaga kirishishi asosida rivojlanishini, uning ijtimoiylashish jarayoni deb ta`kidlash mumkin. Zero, u ijtimoiy norma – madaniyat, qadr-qimmatlar egallahshi lozim. SHuningdek, jamiyatda insonning o`z qobiliyatlarini realizatsiya qilishi, nazorat qilishi, ijtimoiy tajribalarni egallah (bilimlar, qadr-qimmat, xulq-atvor qoidalari) jarayoni ijtimoiy hodisa deb nomlanadn. Bolani ijtimoiylashtirish murakkab va davomli hodisadir. Bir tomondan har kanday jamiyat o`zining rivojlanish etapida ma'lum ijtimoiy, ma'naviy qadr-qimmatlar, o`zini tutish, axloqiy qonun-qoida normalarini ishlab chiqadi.

Jamiyat, yosh avlod o'zi yashab turgan jamiyatdagi qonun - qoidalarni egallab, uning teng huquqli a'zosi sifatida yashab, faoliyat ko'rsatishini ko`zda tutadi. Buning uchun jamiyat ta'lif-tarbiya normasi orqali shaxsga ta'sir ko'rsatadi Ikkinchi tomondan, atrofdagi olamda sodir etilayotgan turli hodisalar uning shakllanishiga oz ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Jamiyat o`zaro munosabatda bo`lgan, o`zaro harakatlanadigan xilma-xil ijtimoiy institutlarni o`zida namoyon qiladi. SHular orqali bola tomonidan ijtimoiy normalarni egallah jarayoni amalga oshadi. Bulardan ba'zilari bolani rivojlanishi va ijtimoiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatsa, boshqalari uning shaxsiy sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir kursatadi. Bunday ijtimoiy institutlar qatoriga-oila, ta'lif, madaniyat va din kiradi.

Nazorat savollari

- 1) Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlari qaysilar?
- 2) Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mazmunini xarakterlang?
- 3) Ijtimoiy pedagogika atamalariga ta'rif bering?
- 4) Ijtimoiy pedagogikaning funksiyalarini aniqlang?
- 5) Ijtimoiy ish nima?
- 6) Ijtimoiy ishchining faoliyati mazmuni?
- 7) Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning o`zaro munosabati nimadan iborat?
- 8) Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o'rtasidagi farqlarni ayting?
- 9) Ijtimoiy o'qitish va ijtimoiy tarbiyaga ta'rif bering?
- 10) Bola rivojlanishiga muhitning ta'siri qanaqa bo'ladi?
- 11) Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bog'liqlik nimada?
- 12) Ijtimoiy moslashuv nima?
- 13) Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday o'ziga xoslikka ega?
- 14) Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
- 15) Tarbiyav tamoyillarining mohiyatini:

III BOB. OILA BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIM OIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT. VASIYLIK VA HOMIYLIK

1.Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari.

Har bir inson hayotida oila alohida o‘rin egallaydi. Oilada bola voyaga etadi, o‘z hayotining ilk yillaridan boshlab u insoniy munosabatlar meyorlarini o‘zlashtiradi, yaxshilik va yomonlikning farqiga boradi. Voyaga etgach, bolalar oilada o‘z ota-onasining oilasida ko‘rganlarini takrorlaydilar.

Oila jamiyatning ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida qaraladi. Oilaning holati davlatning holatini belgilaydi. Oilada ota-onsa va farzandlar ma’naviy rishtalar bilan

bog‘lanadi. Jamiyatning ma’naviy madaniyat darajasi oiladagi ma’naviy madaniyat darajasi bilan belgilanadi.

Oilaning iqtisodiy ahvoli davlatning iqtisodiy ahvoliga bog‘liq bo‘ladi.

Oila ijtimoiy funksiyani amalga oshirar ekan, shaxsni uning madaniy, ijtimoiy va ma’naviy darajasiga qarab shakllantiradi.

Oiladagi sharoitlar, kundalik hayot xususiyatlari, oilaning ko‘payishi – bularning barchasi davlatning ijtimoiy siyosati bilan belgilanadi.

Oilada ijtimoiylashuv oila tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda buvalar va buvilar yashaydigan katta oilalar soni kamayib Oila – bu nikohga yoki qon-qarindoshlik aloqalariga (ona va bolalar) asoslangan kichik guruh bo‘lib, uning a’zolari kundalik hayot, o‘zaro ma’naviy mas’uliyat va o‘zaro yordam rishtalari vositasida bir-biri bilan bog‘lanadi.

Oilada shaxsnинг ijtimoiylashuvi oiladagi munosabatlarga, ota-onaning obro‘siga va ular oilaning boshqa a’zolariga o‘z hukmini o‘tkaza olishiga bog‘liqdir. Oilaning hozirgi holatiga jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar: bilimlar, texnologiyalarning yangilanishi, axborot ayirboshlash jarayonlari ta’sir ko‘rsatadi.

“Oila – ijtimoiy institut” degan klassik ta’rif oilani nikohdagi kishilar birlashmasi sifatida tavsiflaydi. Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning tarixan o‘zgaruvchi ijtimoiy shakli. Nikoh oila qurish, farzand ko‘rish va uni tarbiyalash maqsadida er-xotinlik, qarindoshlik huquqlari va burchlarini belgilaydi. Ayol va erkak nikohga kirayotganida nikoh shartnomasi tuziladi va u qonun doirasida er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga soladi.

Nikohga kirish uchun ikki tarafning roziligi talab etiladi. Respublikamizda mavjud nikoh institutining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- har bir fuqaro faqat bir ayolga uylanishi yoki bir erkakka turmushga chiqishi mumkin;
- nikohdan chiqish erkinligi davlat tomonidan nazorat qilinadi;
- ota-ona bolalarni tarbiyalashga majbur;

- oila a'zolariga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish majburiyati;
- onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Oiladagi o'zaro munosabatlar oila mavjudligining omillaridan biri hisoblanadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar muloqot an'analariga, iqtisodiy va ijtimoiy holatga, oilaning jamiyatga qaramligiga, xo'jalik yuritishda er-xotinning ishtirokiga, oila tipiga (ko'p bolali, bolasiz), qarindoshchilik xususiyatiga bog'liqdir.

Oilaning rivojlanishi bir necha bosqichdan o'tadi. **Birinchi bosqich** – oila qurish, bunda yosh er-xotin ko'pincha katta oiladan ajralib chiqadi.

Ikkinchi bosqich – bola tug'ilishi, bunda oila ikki avlod vakillaridan tarkib topadi. **Uchinchi bosqich** – uch avlod vakillaridan iborat oila, ya'ni voyaga etgan farzandlar oila quradilar. **To'rtinchi bosqich** – bolalar alohida oilalarda qo'nim topgach, ota-onas pensiyaga chiqadi. Bu davrda oiladagi birdamlik mustahkamlanadi. **Beshinchi bosqich** – oila a'zolari haqida g'amxo'rlik davri, chunki ular yordamga muhtoj bo'ladilar. G'amxo'rlik majburiyati o'rta avlod vakillari zimmasiga tushadi. Keksa yoki kasal ota-onas haqida g'amxo'rlik qilish – oila mazkur bosqichining bosh vazifasi. Bu erda ko'proq stresslar yuz beradi va munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi. Katta avlod vakillari o'lishi bilan oiladagi rollar o'zgaradi, etakchi rollar keyingi avlod vakillariga o'tadi. Ijtimoiy xodimning vazifasi – avlodlarning hamjihatligi va birdamligiga e'tiborni qaratish.

Oila jamoasi tushunchasi mavjud bo'lib, u oiladagi munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Bu erda er-xotinning raqobati mavjud bo'lmaydi, oilaning har bir a'zosi bir-biriga g'amxo'rlik qiladi va o'z mas'uliyatini his etadi, bolalar kattalarga yordam beradilar, byudjet muammolari bahamjihat hal qilinadi. Bunday oilani yaratish oilaning katta a'zolari ta'siri bilan belgilanadi, ya'ni bolalar oiladagi an'nalarga va munosabatlar meyorlariga rioya etadilar.

Oiladagi munosabatlarga ota-onaning ishlab chiqarishdagi yutuqlari, ularning ijtimoiy hayotdagi roli va maqomi ham ta'sir ko'rsatadi.

Oila tiplari, oila demografiyasi. Oila – ijtimoiylashuvning muhim institutidir. Uning sifati bir qator ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Bular:

- demografik ko‘rsatkich – oilaning tarkibiy tuzilishi;
- ijtimoiy-madaniy ko‘rsatkich – oila a’zolarining ma’lumot darajasi;
- ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich – oila a’zolarining mulkiy holati va uydan tashqarida bandligi;
- texnik-gigienik ko‘rsatkich – yashash sharoitlari, turar joyning jihozlanganlik darajasi.

Hozirgi oila oldingi yillar oilasidan iqtisodiy funksiyasi bilangina emas, balki emotsiyal-psixologik funksiyalarning o‘zgargani bilan ham ajralib turadi.

Hozirgi sharoitlarda er, xotin va bolalardan, ya’ni uch-to‘rt a’zodan iborat nuklear oila ayniqla keng tarqalgan. Bunday oilada bolalarga ta’lim va tarbiya berish funksiyalarini aksariyat hollarda maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘z zimmasiga oladi. Bunday oilada oila a’zolarining rollari o‘zgaradi, chunki ayollarning ishlab chiqarishda bandligi salmoqli ravishda o‘sgan.

To‘liq bo‘lmagan oila – faqat ona yoki faqat otadan iborat bo’ladi.

So‘nggi yillarda bunday oilalar soni ko‘payib borayapti. Bunday oilada ko‘pincha ona, ba’zan – ota farzandlarni tarbiyalaydi. Mazkur oila – er-xotinning nikohdan chiqishi, ulardan birining uzoq vaqt yo‘qligi yoki o‘limi, shuningdek nikohsiz bola tug‘ilishi natijasida sodir bo’ladi.

Bunday oilalar ijtimoiy pedagogning alohida e’tiborini talab qiladi. Ular davlat madadiga muhtoj bo’ladi. Nikohsiz bola tug‘ilishi natijasida paydo bo‘lgan oila og‘ir moddiy qiyinchiliklardan tashqari o‘ziga jamiyatning salbiy munosabatini ham his qiladi.

Otaning yo‘qligi bolalarga har xil ta’sir ko‘rsatishi mimkin. Ba’zan bunday oilada onaning kuchli muhabbati salbiy rol o‘ynaydi. Bola tug‘ilganida, u farzandini uni qurshagan muhitdan ajratishga harakat qiladi. Bunday oilada ota asosan bolani tarbiyalashda ko‘pincha ishtirok etmaydi, ba’zan bola tarbiyasiga otaning aralashuvini onaning o‘zi rad etadi.

Takroriy nikohdagi oila – bu ota-onali oila bo‘lib, unda umumiy nikohdan tug‘ilgan farzandlar bilan bir qatorda avvalgi nikohlardan tug‘ilgan bolalar ham bo‘lishlari mumkin. Ba’zan ular birga, ba’zan esa faqat er yoki xotinning bolalari bilan yashaydilar. Bunday oilalarda o‘gay ona yoki o‘gay otaning bolalar bilan munosabatlari, ularning o‘zaro til topishi muammolari qayd etiladi. Ushbu oilalarda birinchi nikoh xatolarini takrorlamaslikka intilish kuzatiladi, shu bois er-xotin ancha ahil yashaydi.

Bunday oila bilan ishlash uchun psixologik, klinik, ta’lim va ijtimoiy dasturlar talab etiladi. Bunday oilalarda yangi hayotga, har bir oila a’zosining yangi munosabatlariga moslashish jarayoni ketayotganini yodda saqlash muhimdir. Bu jarayon o‘rta hisobda uch yil davom etadi. Oilada rollarning taqsimlanishiga, har bir oila a’zosining va umuman oilaning muammolariga e’tiborni qaratish Yosh oila – bolali yoki bolasiz er-xotin, birinchi nikoh, oila qurilganiga 5 yildan oshmagan, er-xotinning yoshi – 30 yoshgacha. So‘nggi yillarda bunday oilalar soni ko‘payib bormoqda, er-xotinning o‘rtacha yoshi esa tashkil etadi.

Er-xotin bilan ishlash jarayonida ijtimoiy xodim vaqt, pullarning taqsimlanishi, asrandi bolalar bilan munosabatlarga e’tiborni qaratadi. Asrandi bolalar alohida e’tiborni talab qilishi bois, ular bilan alohida tarbiya dasturini amalga oshirish talab etiladi.

Oilaning ijtimoiylashtiruvchi funksiyalari. Oilaning asosiy funksiyasi aholini biologik ko‘paytirish yoki nasl qoldirish funksiyasi hisoblanadi. Bundan tashqari, quyidagi funksiyalar ham mavjud: tarbiyaviy – yosh avlodning ijtimoiylashuvi; xo‘jalik-maishiy – oilaning jismoniy holatini quvvatlash, bolalar va qariyalarga qarash; iqtisodiy – oila a’zolarini moddiy quvvatlash; ma’naviy – oilaning har bir a’zosini ma’naviy boyitish; ijtimoiy-maqomga doir – oila a’zolariga jamiyatda muayyan maqom berish; dam olish – bo‘sh vaqtini oqilona tashkil etish; emotsiyal – oilaning har bir a’zosini psixologik muhofaza qilish.

Shaxsni ijtimoiy himoya qilish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan har qanday davlatda bu oilani himoya qilish orqali amalga oshiriladi.

Oila jamiyat bo‘g‘ini sifatida odamlarni birlashtiradi, avlodlarni tarbiyalash jarayonini, shaxsning mehnat faoliyatini tartibga soladi.

Oila bolani jamiyatga olib kiradi. Chaqaloqlik va ilk bolalik davrlarida u hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu davrda mazkur rolni boshqa ijtimoiylashuv instituti bajara olmaydi. Oilada bolalar sog‘lig‘i mustahkamlanadi, ularning qobiliyatlarini rivojlantiriladi, ularni fuqaro sifatida tarbiyalash amalga oshiriladi, ularning taqdiri va kelajagi hal qilinadi. Ijtimoiylashuvning barcha bosqichlarida oilaning bilim darajasi insonning intellektual rivojlanishiga, ma’lumot olishni davom ettirishga intilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Inson ijtimoiy meyorlarni o‘zlashtirishida oila muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar er yoki xotinni tanlash va oiladagi munosabatlardan xususiyati ota-onada oilasidagi muhit va o‘zaro munosabatlardan bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Bolalikda kattalar e’tiborsizligini boshdan kechirgan yoki bolalar muammolarini hal qila olmagan ota-onada ko‘pincha o‘z farzandi bilan ruhiy aloqa o‘rnatishga qodir bo‘lmaydi.

Oilada insonning fundamental qadriyatlarini va mo‘ljallari shakllanadi. Bu qadriyatlar va mo‘ljallar ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ular insonning yashash uslubini, hayot rejali va intilishlarini, ularga erishish usullarini belgilaydi. Oila insonning ijtimoiy kamol topish jarayonida ulkan rol o‘ynaydi, zero uning ma’qullashi, qo‘llab-quvvatlashi yoki qoralashi insonga mushkul vaziyatlardan chiqish yo‘llarini topishga, o‘zgarayotgan hayot sharoitlariga moslashishga yordam yoki xalaqit beradi.

Shunday qilib, har qanday oilada inson stixiyali ijtimoiylashuvdan o‘tadi. Bu jarayon xususiyati va natijalari oilaning konkret ko‘rsatkichlari, yashash uslubi va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari bilan belgilanadi.

Oilada bola mehnat qilishni o‘rganadi, kasb tanlaydi, mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘radi. Shaxsga oila ijtimoiy ta’sirining tahlili kishilarning 40%

ga ularning hayotida oila, 30% ga – ommaviy axborot vositalari, 20% ga – maktab, 10% ga – ko‘cha ta’sir ko‘rsatganidan dalolat beradi.

Oiladagi munosabatlarda ularning holati oila har bir a’zosining mijozи va tabiatiga bog‘liq bo‘lishini yodda tutish lozim. Oila normal bo‘lishi uchun unda ota va ona mavjudligining o‘zигина kifoya qilmaydi, ularning o‘zaro munosabatlari mehribonlik va hamjihatlik bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi lozim. Bolalar bu munosabatlarni teran his qilishlari zarur. Bola otasini ham, onasini ham birdek qadrlaydi, agar ularning o‘rtasida janjal chiqsa, bola buni fofia sifatida qabul qiladi. U o‘z ota-onasida idealni ko‘radi va ularning bittasi yomon ekanligini tasavvur ham qila olmaydi. Ota-onaning befarqligi ularda yolg‘izlik hissini uyg‘otadi va bolalar o‘zlarini tushunishga qodir odamlarni chetdan izlay boshlaydilar.

Hozirgi oila haqida to‘la tasavvur hosil qilish uchun oiladagi rollarni ham ko‘rib chiqish lozim. Oiladagi rol – insonning jamiyatdagi eng muhim rollaridan biri. Oiladagi rollar o‘zi nima?

Bu er, ota, ona, o‘g‘il, qiz, opa, singil, aka, uka, buva, buvi rollaridir. Oilaning har bir a’zosi muayyan rolni bajarar ekan, oilaning qolgan a’zolari o‘zidan nima kutishini tasavvur qiladi. Bir rol turli xil talablarni o‘z ichiga olgan holda konfliktlar yuz beradi. Masalan, oilada ayol ham ona, ham xotin, ham beka, ham bolalarni tarbiyalovchi, keksa ota-onasiga qarovchi bo‘lgan va ayni vaqtda eri bilan tengma-teng oilani moddiy ta’milagan holda. Ayol ijtimoiy yoki kasbiy sohada yuksakroq maqomga ega bo‘lgan taqdirda konflikt yanada kuchayadi.

Inson nikohga kirishiga “ota bo‘lishni istayman”, “bola tarbiyalashni istayman”, “yonimda sodiq va ishonchli odam bo‘lishini istayman” kabi mayllar turtki beradi. Xotin o‘z yonida mehribon, vijdonli, halol erni ko‘rishni istaydi. Er o‘z xotini mehribon, g‘amxo‘r va chiroyli bo‘lishini istaydi. Nikohga kirayotganlarning aksariyati nikoh baxtli bo‘ladi deb hisoblaydi (yigitlarning 67% va qizlarning 73%). Ammo nikohga kirganlaridan so‘ng ularning ko‘pchiligi undan qoniqmaydilar. Bu har bir inson nikohga kirayotib

qaysi andozadagi oilani qurganiga bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqotlar erkaklarning 85% ni oilaviy hayotga hech kim tayyorlamaganini, 15% ni esa uyda “oz-moz” tayyorlaganlarini ko‘rsatadi.

Quyidagilar oiladagi konfliktlarning asosiy sabablari hisoblanadi:

- er yoki xotin faqat o‘z ehtiyojlarini qondirishga intilishi;
- ortiqcha moddiy ehtiyojlar;
- er yoki xotin o‘ziga baland baho berishi;
- bir-biri bilan, qarindoshlar bilan til topa olmaslik;
- er yoki xotin xo‘jalik yuritishni istamasligi;
- mijozlardagi farq, er-xotin bu bilan hisoblashishni istamasligi.

Konfliktlarning mazkur sabablari er-xotin oilada yaxshi tarbiya olmaganligi, oilaviy hayotga tayyorlanmaganligi natijasidir.

Oiladagi munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy xodim yordam berishi mumkin. Statistika ma’lumotlari er-xotinning oilaviy hayotga psixologik va amaliy tayyor emasligi 42% ni tashkil etishini ko‘rsatadi. Ajrashgan er-xotinlarning ko‘pchiligi (28%) nikohni saqlab qolish kerak edi, deb hisoblaydilar. Erkaklarning 68% va ayollarning 28% yangi oila quradilar. Aksariyat erkaklar va ayollar ikki yil mobaynida yangi oila quradilar.

Ajrashishda tashabbus ko‘pincha ayollardan chiqadi. Aksariyat hollarda eri bilan ajrashganidan so‘ng uning moddiy ahvoli yomonlashadi, bola tarbiyalash bilan bog‘liq barcha qiyinchiliklar uning elkasiga tushadi.

Tadqiqotchilar oiladagi munosabatlarning quyidagi qoidalarini ta’riflaganlar:

- bir-biriga yon berish;
- o‘z qarashlari va mulohazalarini o‘tkazishga harakat qilmaslik;
- bir-birini hurmat qilish;
- biri boshqasini kamsitmaslik;
- o‘z kayfiyatini boshqarish;
- o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy ko‘z bilan qarash.

Ijtimoiy muhit tarbiya mikroomili sifatida. Ijtimoiy muhitga qo'shnichilik, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalarini kiritish mumkin.

Qo'shnichilik hududiy jihatdan bir-biriga yaqin yashaydigan kishilar guruhini o'zida ifodalaydi. Ularni shaxslararo aloqalar, o'z yashash joyiga muayyan munosabat, ayrim umumiylar maqsadlar va qo'shma faoliyat bir-biri bilan bog'laydi. Kattalar uchun qo'shnichilikning roli ularning yoshi va ijtimoiy maqomi bilan belgilanadi. Bolalar uchun qo'shnichilik ijtimoiylashuvning qudratli omili hisoblanadi.

Ular uchun muloqot – oila doirasidan chetga chiqish, yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish. Qo'shni tengdoshlar bilan munosabatlarda ular yangi leksika, yangi meyor va stereotiplarni o'zlashtiradilar. Bola ulg'aygani sari, uning ijtimoiylashuvida tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlari yanada muhimroq rol o'ynaydi. Tengdosh qo'shnilarining yo'qligi yoki ular bilan til topishda qiyinchiliklar bu yoshda insonning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kattalarning qo'shnichilik aloqalari haqida gap ketganida, butunlay boshqacha manzaraga duch kelish mumkin. SHaharda kattalarning qo'shnichilik munosabatlari yaxshi rivojlanmagan. Qo'shnichilik munosabatlarining xususiyati va mazmuni oilalarning demografik tarkibi, oila a'zolarining yoshi va ijtimoiy-madaniy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishda pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining qo'shnichilik munosabatlari xususiyatini bilishi muhimdir. Bu ularga qo'shni tengdoshlar va yoshi katta bolalar o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatayotgan salbiy va ijobiy ta'sirlarni inobatga olish imkoniyatini beradi.

Tengdoshlar guruhlari – yosh jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan bolalarning birlashmalari. Ularga yosh jihatidan har xil, lekin qadriyatlari bir bo'lgan odamlar kirishlari mumkin. Tengdoshlar guruhlari ko'pincha individual qiziqishlarning mushtarakligi, shaxsiy farovonlikka tahdid soluvchi vaziyat mavjudligi, formal tashkilot (sinf, guruh) mavjudligi kabi omillarga asoslanadi.

Guruhsda yuzaga keluvchi shaxslararo munosabatlar guruh a'zolarining o'zaro aloqalari xususiyati va usullarida namoyon bo'ladi. Eng avvalo lider ajratiladi. Boshqa rollar – lider favoriti, yordamchilar, bajaruvchilar va h.k.

Tengdoshlar guruhlari tarkibining tavsifi yosh, jins, ijtimoiy tarkib kabi belgilarni o'z ichiga oladi. Yuridik maqomi va ijtimoiy tizimdagagi o'rniga ko'ra tengdoshlarning guruhlari rasmiy, ya'ni davlat yoki jamoat tashkilotlari bilan bog'langan va norasmiy, ya'ni o'z-o'zicha mavjud bo'lgan guruhlarga bo'linadi. O'z mavjudlik muddatiga ko'ra guruhlar doimiy, vaqtinchalik, situativ bo'lishi mumkin. Liderlik tipiga ko'ra ular avtoritar va demokratik bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda tengdoshlar guruhlari yosh avlodning ijtimoiylashuvini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi.

Bunga bir qancha holatlar imkoniyat yaratdi. Ularning orasida urbanizatsiya, to'liq bo'lмаган va bir bolali oilalar sonining ko'payishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishini qayd etish mumkin.

2.Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.

Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro'si otaning, ernening, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa – farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko'p hollarda oilaning, turmush o'rtog'inining ijtimoiy maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, farxzandlar ko'z o'ngida otaning avtoriterti pastlaganday bo'ladi, ayrim holatlarda ernening oila ta'minotaidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta'minotiga bevosita aralashishiga sabab bo'ladi.

Monogam oila – bola manfaatiga yo'nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida paydo bo'lgan hodisadir. U xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda gap ko'proq oilada farzandlar soni haqida emas, balki oilada umuman bola borligining qadrlanishi to'g'risida boradi. Ota-onalar bunday sharoitda ko'proq bolaning kelajakda kim bo'lishi, u egallashi lozim bo'lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg'uradigan, shu bois ham oila budgetining

asosiy qismi uni ta'minlash, unga zarur ta'lim va tarbiyani berish, g'amxo'rlik qilishga sarflanadi. Bolalar bilan bog'liq ehtiyojlarning o'sib borishi oqibatida mamlakatda ham bolalar ta'minoti, ularning ozuqasi, kiyim-kechagi, o'yinchoqlar, bolalarning madaniy-ma'rifiy maskanlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari ko'payadi, rivojlanadi. Bolalar va yoshlarning turli ma'rifiy o'choqlarining kengayishi, yangi texnika va texnologiyalarning asosan bolalar manfaatiga bevosita bog'lanishi, yoshlarning kasb ta'limini takomillashtirish ishlari, ular o'qishi va bilim olishi muddatlarining uzaytirilishi ularning mehnat sohasiga kechroq kirib borishiga olib keladi. Ya'ni, ilgarigiga nisbatan bolalar kechroq mustaqil hayotga kirishadi. Buning oqibatida nikoh yoshi ham tobora kattalashib boradi. Kattalar tomonidan bolaga e'tiborning, shu bilan bir qatorda tashvishlarning ortishi, o'z navbatida bolalarning tug'ilish soni kamayishiga olib keladi. Bolalar erka bo'lib, ular erkinligi ortib boradi, ota-onaning butun diqqat-e'tibori ularga qaratiladi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba'zan ona faqat bolani o'ylash, unga e'tibor qilishni afzal bilganidan, eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatiladi.

Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri *avtoritar tip*dir. Bunda bola soni bittami yoki ikkitami ota-onaning cheksiz g'amxo'rligi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-onada nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga etadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib etishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi.

Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emotsional g'amxo'rligi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisining doimiy erkalashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak, degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

Kvaziavtonom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki,

o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albatta, ham ijobjiy, ham salbiy jihatlari bor.

Er-xotin oilasi XX asrning 60-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro munosabatlar asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiyligi, iliqligiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'rtog'iga suyukli, erka va zarur yor rolini o'ynaydi. *Golod* er-xotinning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihatini farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik.

Monogam bo'lмаган оила toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlariga tayanmaydi.

Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud: ***Ajrimlar tufayli paydo bo'lган noto'liq оила*** – XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. Ma'lumotlariga ko'ra, jahondagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 28 ta oila ajrimi to'g'ri keldi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, farzandlari bilan umuman yuz ko'rmas bo'lib ketishadi. Afsuski, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadrlanmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingdan 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FHDYO orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim bo'lgan oialalrning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala etim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'inining vafoti munosabati bilan noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir. Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan (G. Yadgarova, 2003).

Nikohdan tashqari oila 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-onalar oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Frantsiyada – 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar – 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Rossiyada ota-onalardan bittasigina bo'lgan oilalarda 1989 yilda 4,5 mln. bola yashagan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1994 yilda 5 millonga etdi (A.G.Volkov, E.L.Soroko, 1999). O'zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulotda holatlar sifatida qaraladi, chunki ayrim udumlar va milliy qadriyatlarimiz farzandning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi, SHunday bo'lsa-da, turli sabablar va otag'onalarining vaziyatlar qurban bo'lishi natijasida mamlkataimizda otalikni belgilash holatlari ortib bormoqdaki, unda ham ko'pincha rasman oila nikohsiz oiladay tasavvur etiladi. Sha'riy nikoh o'qilgani bilan rasmiy ravishda nikohning o'z vaqtida qayd etilmasligi mentalitetimizga zid bo'lgan shu toifa oilaalrning rasmiylashtirilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Alternativ oila turlari – kam uchraydigan oila turlari bo'lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va o'z navbatida toifalarga bo'linadi. Masalan, ulardan biri – fuqarolik nikohi deb atalib, unda erkak va ayol o'z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd emay, yashayveradi. Ba'zan bunday qarorga ular kutilmagan homiladorlik paydo bo'lganda ham kelishlari mumkin. Bunday nikoh bizning sharoitimizga, musulmonchilikka sira ham to'g'ri kelmaydi. Alternativ nikohlar ko'proq g'arb mamlakatlariga xosdir. Lekin Golodning

ta'kidlashicha, hozirda Rossiyada mavjud oilalarning 7% shunday nikoh asosida tashkil topgan. Oilaning muqaddasligini tinimsiz targ'ib etishimiz azaliy qadriyatlarni ardoqlab kelayotgan yurtimizda bunday salbiy holatlarning bo'lmasligiga xizmat qiladi.

Alternativ nikohning yana bir ko'rinishi *qayta nikohlardir*. Odatda bunday nikoh turi beva yoki tul qolgan shaxslarda uchraydi. Aslida ham birinchi qayta nikohlar XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan. Hozirda esa bunday nikohlar odatda beva qolganlar yoki ajrashib ketganlar o'rtasida qayd etilishi mumkin. Bunday oila turi ham ajrimlar ko'payishiga mos tarzda ortib bormoqda.

Aralash oilalar yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu – etimlarni boqib olish hisobiga paydo bo'ladigan, otalikka olish, o'gay ota yoki ona bilan yashaydiganlar oilasidir. Ming afsuski, turli hayotiy vaziyatlar tufayli shunday oila ham bor, ular nisbatan ko'p bo'lmasa-da, O'zbekistonda ham mavjud.

Godvin – nikohlar, uning asoschisi bo'lgan ingliz sotsial-monarxi U.Godvin (1756-1836) nomi bilan bog'liq. U bunday oilani ideal deb hisoblagan, chunki bunday oilalar, asosan, ota-onaning xohish-irodasiga ko'ra paydo bo'ladi, yoshlarning istaklari bunda inobatga olinmaydi. Bunday nikohlarda jinsiy yaqinlik ko'zda tutilmaganligi sababli, o'zaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga mo'ljallangan bo'ladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat ma'naviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos. To'g'ri, bir qarashda bunday nikoh bizdagi sovchilik yo'li bilan quriladigan oilaga o'hshab ketadi, lekin bizda surriyod qoldirish, birga yashash talab etiladi. SHuning uchun yigit va qiz bir-birlarini sevmagan bo'lsalar-da, nikoh o'qilayotganda ularning rizochiliklari so'raladi, javob ijobiy bo'lgach, ular chimildiqqa kiritiladi. *Godvin* tipidagi nikohlar ko'pincha O'zbekistonda keksalar o'rtasida rsmiy lashtiriladi. Masalan, kampiridan uning qazosi tufayli juda bo'lgan otaxon o'zaro kelishuv natijasida o'zga bir beva ayolga uylanadi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro samimiyat, hurmat, qo'llab-quvvatlov, keksalikni bezashga yo'naltirilgan. Lekin bu oila o'zidan surriyod qoldirish kabi haqiqiy oilaga xos funktsiyalarning barchasini bajarmaydi. Bunday

oila Islom dini arkonlariga ham mos bo'lib, bu ikki keksa odamning bir-birlari umrlarini cho'zishga qaratilgan samimiy munosabatlari majmuidir.

Qo'shxotinlilik ham alternativ nikoh turlaridan biri bo'lib, bunda bir erkak ko'pincha xufyona o'z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shar'iy nikohda yashaydi. ***Qo'shxotinlilik*** ko'proq Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos deb hisoblansa-da, hozirda bunday oilalar boshqa mamlakatlarga kuzatilmogda. Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan.

Ijtimoiy yetimlikning eng dramatik natijasi ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaning sog'lig'iga, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita zarar etkazishdir. Mehribonlik uylari kontingentining 60% gacha og'ir surunkali patologiyasi bo'lgan bolalar, asosan markaziy asab tizimining, III - V (eng past) sog'liqni saqlash guruhlari tashqari. Jismoniy rivojlanishda deyarli 55% orqada qolmoqda. Bolalarning atigi 4,7% amalda sog'lom deb topiladi. Miyaning organik shikastlanishi oqibatlaridan tashqari, 30% surunkali tonsillit, biliar diskinezi, astmoid bronxit, surunkali pielonefrit, enurez va boshqalar.

Ammo ijtimoiy yetimlik bolaning ruhiy hayotida eng qiyin iz qoldiradi. Ota-onasidan ajralib, maktab-internatga joylashtirilgan bolada umumiy aqliy ohang pasayadi, o'zini o'zi boshqarish jarayonlari buziladi va past kayfiyat hukm suradi. Aksariyat bolalarda xavotir va o'ziga ishonchsizlik hissi paydo bo'lib, dunyoga qiziqish yo'qoladi. Hissiy tartibga solish, hissiy va kognitiv o'zaro ta'sirlar yomonlashadi va natijada intellektual rivojlanish to'xtatiladi. Bola ota-onan oilasidan qanchalik erta ajralib chiqsa, u muassasa sharoitida qancha uzoqroq va ko'proq izolyatsiyada bo'lsa, aqliy rivojlanishning barcha sohalaridagi deformatsiyalar shunchalik aniq namoyon bo'ladi. Olingan asosiy nuqson - bu intellektual va shaxsiy rivojlanishning kechikishi va buzilishi. Ko'p hollarda (85 - 92%) mehribonlik uylari bitiruvchilari umumiy ta'llim mакtab o'quv dasturi bo'yicha o'qish imkoniga ega emaslar, shu bilan birga umumiy bolalar populyatsiyasida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lganlar ulushi 8 - 10% dan oshmaydi.

Yetim bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ining ko'plab sabablari ko'p qirrali. Birinchidan, bizning maktab-internatlarimizda to'plangan bolalarning asosiy qismi shubhasiz salbiy irsiyatga ega, xususan, alkogolizmning irsiy yuki va so'nggi yillarda giyohvandlik; tug'ma ruhiy va nevrologik patologiyaga chalingan etim bolalar sonining doimiy o'sishi kuzatilmoxda. Bu "tashlab qo'yilgan" bolalar ko'pincha tug'ma jismoniy va aqliy anormalliklarga ega, bu mastlik holatida sheriklar tomonidan kontseptsiya yoki homiladorlikni to'xtatish uchun kelajakdagi ona tomonidan turli xil zarar etkazuvchi vositalardan foydalanish. Bundan tashqari, bolalar uylariga joylashtirilgan bolalar psixopatologik irsiyatga, birinchi navbatda aqliy zaiflik va shizofreniya bilan haddan tashqari yuklangan. Bularning barchasi xavf guruhidagi ayollar uchun tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish bo'yicha harakatlarni talab qiladi: kontratseptsiya siyosati va oilani rejorashtirishni takomillashtirish, genetik maslahat, homilador ayollarni prenatal qo'llab-quvvatlash va tug'ruqdan oldin tashxis qo'yish.

3.Yetimlikning kelib chiqishi sabablari.

Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-onasi qaramog'isiz bolalar bo'lган, bor va bo'ladi ham. Bu holatda jamiyat va davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi. Internat turidagi muassasalarda bola muammolarining o'r ganish bilan shug'ullanayotgan pedagog va psixologlar shuni aniqlashdiki hayotning ilk davrlaridanoq yaqinlaridan ajralib qolish bolaning keyingi taqdirini oldindan belgilab berar ekan. Onasidan ayrilish va umuman yaqinlaridan ayrilib qolish bolalar rivojida katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalik insonning ruhiy bardoshliligi, hayotga qiziqishini, maqsadga intiluvchanligini ta'minlovchi asosiyxislatlarning shakllanish davridir. Bu ma'naviy xislatlar betartib shakllanmaydi, ular ota-ona mehri sharoitida, oila bolaga o'zi va boshqalar uchun mas'ul bo'lish, birovga kerakligini sezish sharoitida shakllanadi. Ota-onasini yo'qotgan bola bu haqiqatdan ham fojeali olamdir. Ota-onaga ega bo'lish ehtiyoji bolaning eng kuchli ehtiyojlaridan biri. Ijtimoiy yyetimlik muammosi aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga

xos muammo hisoblanadi. Yetimlikning barcha sabablarini sanab o'tish mushkul, chunki bu turli fan sohalari (tibbiyot, psixologiya, ijtimoiyogiya, pedagogika va boshqalar) olimlari shug'ullanayotgan ko'p aspetli muammodir. Biroq asosiy 3 ta sababni ajratib ko'rsatsak bo'ladi:

1. Ota-onalarning (odatda onalarning) o'z vyaga yetmagan bolasidan voz kechish asosan go'daklik davridagi boladan

2. Uning ota-onasidan ota-onalik huquqini olib qo'ygandan so'ng bolani oiladan majburan ajratib olish

3. Ota-onalarning vafoti. "Yetim" va "ijtimoiy yetim" degan tushunchalar bir-biridan farqlanadi. yetim bolalar bu 18 yoshgacha ota-onasining biri yoki ikkovi vafot etgan bo'ladi. ijtimoiy yyetim-biologik ota-onaga ega bo'lgan, biroq ular turli sabablar uning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan bolalar. Bu holatda unga g'amxo'rlik qilishni davlat va jamiyat o'z bo'yniga oladi.

Shunday qilib ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarga ota-onalari:

-vafot etgan;

-ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan;

-bedarak yo'qolgan;

-muomalaga layoqatsiz;

-axloq tuzatish koloniylarida jazo o'tayotgan;

-jinoyat sodir etishda ayblanib, xibsda bo'lgan;

-bola tarbiyasidan bo'yin tovlayotgan;

-bola vaqtincha joylashtirilgan shifo, ijtimoiy maskanlardan uni olib ketmayotgan bolalar kiradi.

Ularni boqish, ta'lim berish, himoyalash uchun qonun bilan belgilangan vasiylik shakllari mavjud. Vasiy deganda muomalaga layoqatsizlarni shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlovchi shaxs tushuniladi. Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi-bolalaikka olish yoki davlat qaramog'iga topshirish.

Yetimlarga vasiylik qilish

1.Bolalikka olish, qabul qiluvchi oila, vasiylik oilasi, bolalikka oluvchi oila

2.Davlat qaramog`iga olish, vaqtinchalik qabul qiluvchi oila, bolalar uyi, go`daklar uyi, maktab internat

Davlat qaramog`iga olishi-bolalikka olinmagan yyetim-bolaga uni maxsus muassasalarga joylashtirish orqali tarbiyasi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish. Bola vaqtinchalik qabul qiluvchi oila, bolalar va go`daklar uyi, maktab-internetga joylashtirilishi mumkin.

4.Vasiylik va homiylik tushunchasi.

O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risidagi Nizom O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga, “Vasiylik va homiylik to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq vasiylik va homiylik organlarining vakolatlarini, ularning vazifalari hamda vasiylikni va homiylikni belgilash, amalga oshirish va to`xtatish tartibini belgilaydi.Vasiylik va homiylik faoliyati:

- a) voyaga yetmaganlarga nisbatan — tuman (shahar) xalq ta`limi bo`limlari;
- b) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e`tirof etilgan fuqarolarga nisbatan — tuman, shahar tibbiyat birlashmalari;
- v) sog`lig`ining holatiga ko`ra homiy tayinlashga muhtoj bo`lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan — tuman, shahar bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Vasiylik va homiylik organlaridan tashqari boshqa organlar, yuridik va jismoniy shaxslarning vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo`lgan shaxslarni aniqlash va joylashtirish bo`yicha faoliyat yuritishiga yo`l qo`yilmaydi.

Vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari

Tuman (shahar) xalq ta`limi bo`limlari vasiylik va homiylik sohasida o`z vakolatlari doirasida:

- yetim bolalarni va ota-onasining qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi;
- yetim bolalar va ota-onasining qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarning axborot bazasini yuritadilar, ma'lumotlarni O`zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjalarda belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etadi;

-yetim bolalarning va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

-vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan hamda vasiylarga va homiylargaga qo'yiladigan talablarga mos bo'lgan shaxslarni tanlashni hamda hisobga olishni amalga oshiradi;

-yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishni, shuningdek ularning mol-mulkining but saqlanishini ta'minlaydi; vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning shaxsiy hujjalalar yig'majildlarini yuritadi;

-vasiylar va homiylarning o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar, ularga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarni tarbiyalashda, tibbiy kuzatuvini tashkil etishda yordam ko'rsatadi;

-vasiylikni yoki homiylikni tugatish to'g'risida, vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish haqida tuman, shahar hokimiga iltimosnomalar kiritadi;

-bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid paydo bo'lgan hollarda uni ota-onasidan yoxud ota-onasining o'rnnini bosuvchi shaxslardan olib qo'yish choralarini ko'radilar;

-davlat muassasalariga (internatlarga) joylashtiriladigan balog'atga yetmaganlarning hisobini olib boradilar va hujjalarni tayyorlaydi;

-ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan hollarda bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlaydi;

-belgilangan tartibda ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadilar, sudlarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning huquqini cheklash to'g'risida, shuningdek, ota-onalik huquqlarini tiklash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda ishtirok etadi;

-vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga maslahat yordami, huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lif muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar hokimlari vasiylik yoki homiylikni belgilash va tugatish bo'yicha, shuningdek vasiylarni yoki homiylarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etish yoxud chetlashtirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi. Mazkur qarorlar vasiylik va homiylik organlari tomonidan manfaatdor tashkilot va shaxslarga yuboriladi.

Manbalarda oiladagi mavjud muhit, oila a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosabatiga ko'ra oilalarning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

- 1)tinch, baxtli oilalar (ularda vazifalar muvaffaqiyatli bajariladi, oila a'zolari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar yuzaga kelmaydi; har bir ishni bajarishdan oldin maslahatlashiladi, agarda muammolar yuzaga kelsa, birqalikda, hamjihatlikda hal qilinadi);
- 2)ijtimoiy xavf mavjud bo'lgan oilalar (farzandlarni tarbiyalashda muammolar ko'zga tashlanadi);
- 3)notinch oilalar (doimiy janjallar hukmron bo'lib, farzand tarbiyasida katta qiyinchiliklar seziladi);
- 4)asotsial oilalar (ota-onalar axloqsiz hayot kechirishadi; oilada sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilinmaydi, bolalar nazoratsiz qoldiriladi).

Farzandlarni tarbiyalash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda oilalarga quyidagi shakllarda yordam ko'rsatiladi:

Maslahat berish — farzandlar tarbiyasi, ularning ta'lif olishlarini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, samarali shakl, metod va vositalardan foydalanishga oid maslahat beriladi.

Metodik yordam ko‘rsatish — ota-onalar metodik bilimlardan xabardor qilinadi, bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishlarini nazorat qilish, ularni to‘g‘ri parvarishlar va tarbiyalash bazasidan zarur yordam ko‘rsatiladi, oilalarning psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, yordamga muhtoj bolalarga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy himoya qilish — xavf mavjud bo‘lgan, notinch yoki asotsial oilalarda bolalar ota-onalar giyohvand, ichuvchi, shafqatsiz ota-onalardan himoya qilinadi; bolalarni anomal hulqli ota-onalardan ajratib olish, ularni maxsus ta’lim muassasalariga joylashtirish yoki farzandlikka berish, bu borada hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini bajaradi.

Oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko‘rsatilishi muddatiga ko‘ra uzoq va qisqa muddatli bo‘lishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar ijtimoiy maqomiga ko‘ra homiy yoki vasiylarga ega bo‘ladi.

Homiylik – biror shaxsni himoya etish, tarafini olish, majburiyatni o‘z zimmasiga olish.

Vasiylik – voyaga yetmagan yetim bolalarga ular voyaga yetgunga qadar g‘amxo‘rlik qilish va ularga qolgan mol-mulkka qarab turish hisoblanadi. Yetim bolalarga vasiylik qilish ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1)bolalikka olish; 2) davlat qaramog‘iga topshirish

Homiylik va vasiylikka muhtoj bolalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ota-onasi vafot etgan;
- ota-onalari bedarak yo‘qolgan;
- ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan;
- muomalaga layoqatsiz; ota-onasi axloq tuzatish koloniyalarda jazo o‘tayotgan; ota-onasi jinoyat sodir etishda
- ayblanib, hibsda saqlanayotgan;
- ota-onasi bola tarbiyasidan bo‘yin tovlayotgan;
- ota-onalar vaqtincha tibbiy va ijtimoiy muassasalarga joylashtirilgan
- Bolani asrab olish borasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Bolani asrab olishda: oilalarni tanlash;

- ota-onalarni o‘qitish; bolalarning ruhiy holati, ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha patronaj o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

5.Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Bolani asrab olish borasidagi faoliyat bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

- 1)bolani asrab oluvchi ota-onalarni izlash;
- 2)ariza topshirgan nomzodlar tomonidan anketa va zarur hujjatlarni to‘ldirish;
- 3)oila, “Mehribonlik uylari” yoki bola joylashgan boshqa ta’lim muassasasiga tashrif buyurish;
- 4)oila va uning “do‘stlari”ni o‘rganish (tashxis);
- 5)yangi ota-onani dastlabki o‘qitish (ota-onsa 23 kun davomida bola joylashgan muassasada bilimlarni egallash orqali malaka oshiradi);
- 6)bolani uni asrab olayotgan ota-onalarga topshirish (bu jarayon vasiylik va adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi)

Bola yangi oilaga qabul qilingach, **ijtimoiy-pedagogik patronaj** tashkil etiladi.

Bola asrab olish borasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy ta’minot bo‘limlarining xodimlari, shifokorlar, psixologlar, defektologlar va huquqshunoslar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

“Sen yetim emassan” jamg‘armasining ijtimoiy-pedagogik faoliyati. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylikka muhtoj bolalarni tarbiyalash, ijtimoiylashtirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan majmuaviy chora-tadbirlarga bevosita Respublika “Bolalarni ijtimoiylashtirish” Markazi hamda “Sen yetim emassan” jamg‘armasi boshchilik qilib kelyapti. “Sen yetim emassan” jamg‘armasi 2002 yilda tashkil topgan bo‘lib, “Go‘daklar uylari” hamda “Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga moslashtirish yo‘lidagi faoliyatni amalga oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Oilaning bugungi kundagi muammolari haqida fikr yuriting.
2. Demokratik jamiyatda oila funksiyalari nimalardan iborat?
3. Oila maqomi tushunchasi va uning darajalari?
4. Ijtimoiy pedagogning g’ayri ijtimoiy oiladagi faoliyati?
5. Oilaga pedagogik yordam ko’rsatishning asosiy shakllari qaysilar?
6. “Vasiylik”, “bolalikka olish”, “qaramog’iga olish” tushunchalariga ta’rif bering.
7. Qabul qiluvchi oila nima?
8. Ijtimoiypedagogning qabul qiluvchi oila bilan ishlashining asosiy metodlari qaysi?
9. Ijtimoiy pedagogning go’daklar uyidagi faoliyatining xususiyatlari.

IV BOB. DEVIANT XULQ - IJTIM OIY-PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA

Tayanch atamalar: Me'yordan og'ish, me'yor, deviatsiya, deviant xulq-atvor, jismoniy og'ishish, ruhiy og'ishishlar, aqliy rivojlanish, ruhiy nuqson, aqliy jihatdan ortda qolish, aqliy qoloqlik, asab tizimi tug'ma nuqsonlari, bolalarda aqliy qoloqlik, aqliy zaiflik, chuqur — tentaklik, nutq buzilishlari, emotsional-irodaviy soha, deviatsiya, tarbisi og`ir bolalar va o`smirlar ijtimoiy qarovsiz qolgan bolalar, dezadaptsiya, delinkventlilik, reabilitatsiya, profilaktika, korreksiya masalalari.

1.Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif.

Me'yor va me'yorlardan chekinish(og'ish) tushunchasi Har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, doimiy e'tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og'ish bor bo'lgan odamlardir. Bunaqa odamlar doim bir guruh bo'lib ajralishgan, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan. Zamonaviy AQSH va Yevropa davlatlarida u yoki bu og'ishlarga ega jamiyatga integratsiyalashuvi konsepsiysi amalga oshirilmoqda. U konsepsiyaga ko'ra bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli biroq ba'zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a'zosi sifatida ko'rildi. Hozirda cheklangan imkoniyatli shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, O'zbekistonda ham ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada jiddiyashmoqda.

Shuning uchun bunaqa odamlar avvalambor bolalarning ko'payishini rejali ijtimoiy hal qilishni talab qiluvchi doimiy omil sifatida qarash lozim. Me'yor tushunchasi tibbiyot, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng

qo`llaniladi. Unga aniq bir ta'rif berish juda qiyin. Masalan bitta tibbiyotning o`zidagina me'yor tushunchasiga 200 dan ortiq ta'rif berilgan.

Umumiy holda me'yor- bu obektiv voqelikni belgilovchi ideal bilim, real voqealikni tavsiflovchi o`rtacha statistik ko`rsatkichdir.

Tibbiyotda, psixologiyada, sotsiologiyada me'yorlarning o`z tasnifi, parameterlar, ko`rsatkichlari mavjud. Belgilangan jamiyat tomonidan qabul qilingan va tan olingan me'yorlarga mos kelmaslik jarayoni ikkinchi bir tushuncha chekinish yoki oqish bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogika “me'yor” hamda “me'yorlardan chekinish” masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bolalarning ijtimoiy xulqi va rivojlanish jarayoninini tavsiflashda yordam beradi. Chekinishlar asosan, negativ va pozitiv xarakterga ega. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, qobiliyatlilik ham normadan og'ish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, aroqxo'rlik, giyohvandlik va boshqa salbiy og'ishlar ham shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga ham jamiyat rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko`rsatadi. Negativ chekinishlarga aqli zayiflik, shuningdek, narkamaniya, alkogolizim, jinoyatchilik singani insoning ijtimoiylashuviga, umuman jamiyatga salbiy ta'sir ko`rsatadigan xarakterlar negativga kiradi.

1.Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif.

Dastlab o'qituvchi talaba Kamolning ust-boshini yechmasdan divanda uqlab qolgani; yonida aroq shishasining dumalab yotgani; kun yorishib ketgan bo'lsa ham uyqudan turmaganligi; telefon ovozidan uyg'onib ketib, zo'rg'a o'rnidan turishi; sigareta tutatib, hojatxonada o'tirishi tasvirlangan qismini talabalarga so'zlab berish. Ularga voqeanning keyingi rivoji haqida quyidagi savollarni taqdim etadi:

1. Nima deb o'ylaysiz, Kamol hozir qayerga borishi mumkin?
2. Agar Kamol universitetga borgan deb hisoblasak, auditoriyada o'zini qanday tutadi deb o'ylaysiz?

3. Kamolning auditoriyadagi ma’naviy qiyofasini qay tarzda tasavvur etyapsiz?

Talabalar savollarga javob berib bo’lgach, voqeanning davomi – Kamolning tramvayga o’tirib, zo’rg’a uyqusirab o’qishga kelishi, darsda telefonni o’ynab, qo’shiq eshitib o’tirishi, tanaffusda o’rtoqlari bilan bema’ni qilig’lari va gaplashishi, uning tushdan keyin bo’sh vaqtini qanday o’tkazishiga doir quyidagi savollarni taqdim etadi:

1. Kamol tushdan so’ng kimlar bilan birga bo’lgan bo’lishi mumkin?

2. Kamol qayerga borgan bo’lishi va kunni qanday o’tkazadi, deb hisoblaysiz?

3. U uya qanday holatda qaytganligini tasavvur qilib bera olasizmi?

Savollarga javob olingach, o’qituvchi so’zlab Kamolning ichkilikka butunlay ru’ju qo’yan holatigacha bo’lgan voqealarni namoyish etib, talabalardan uning keyingi hayoti tasvirlangan besh minutlik esse yozishni so’raydi. So’ngra talabalardan ayrimlarining yozganlarini o’qib berishni so’raydi. Talabalar o’z fikrlarini bayon etib bo’lishgach, voqealarni davominio’zi xulosaladi.

Har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo’lishidan qat’iy nazar, doimiy e’tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o’z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og’ishish bor bo’lgan odamlardir. Ular guruh bo’lib ajralib, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan.

Hozirgi vaqtda AQSh va Yevropa davlatlarida u yoki bu og’ishishlarga ega bo’lgan kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi kontseptsiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur kontseptsiyaga ko’ra, bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba’zi bir muammo yoki imkoniyatlari cheklangan a’zosi sifatida qaraladi.

Hozirda imkoniyati cheklangan shaxslar soni butun dunyoda, shu jumladan, O’zbekistonda ham ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada

jiddiy lashmoqla. Shuning uchun bunday odamlar, avalambor, bolalarning ko'payishini reja asosida ijtimoiy hal qilishni talab keluvchi doimiy omil sifatida qarash lozim.

Tibbiyat, psixologiya, sotsiologiyada "me'yor" tushunchasining o'z ko'rsatkichlari va me'zonlari mavjud. Me'yorga mos kelmaydigan jihat — "og'ishish", "chetga chiqish" deyiladi. Ijtimoiy pedagogika uchun "me'yor" va "me'yordan og'ishish" tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanishi jarayonini tavsiflash uchun qo'llanadi.

Og'ishish ham ijobiy, ham salbiy tavsifga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, o'ta qobiliyatilik ham me'yordan og'ishish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, aroqxo'rlik, giyohvandlik va boshqa salbiy og'ishishlar shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2.Me'yordan og'ish turlari.

Og'ish turlari. Me`yordan chetga chiqishni shartli ravishda to'rt guruhga ajratsak bo'ladi: jismoniy, ruhiy, pedagogik va ijtimoiy. Quyida ularga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Me`yordan **jismoniy og'ish**, avvalambor, inson sogligiga bog`liq. Sog`liqdagi og'ish irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar og`ir ekologik vaziyat, ichimlik suvining sifatsizligi, oila hayoti darajasining pastligi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sog`ligida va rivojlanishida og`ishga moyillarning xilma- xil tasniflari mavjud. Umumjahon sog`liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch bo'g`ini shkalasining britancha variantini qabul qildi:

- kasallik, xastalik — ruhiy yoki fiziologik funkiiyalar, anatomik struktura unsurlarini har qanday yo'qotish yoki ularning anomaliyasi;
- cheklangan imkoniyat — inson uchun norma hisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yo'qotish yoki cheklab qo'yish;

-nogironlik yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib, insonning biron-bir faoliyatni bajarishini cheklovchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G`arb davlatlarida “imkoniyatlari cheklangan shaxs” tushunchasi mavjud. Ularga ta`lim standartlarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi. Shuningdek, “nuqson” tushunchasi ham mavjud bo'lib, uning to'rt turi: ruhiy, jismoniy, murakkab va og`ir turlari mavjud.

Jismoniy nuqsonlarga inson organining faoliyat yurgizishiga yoki rivojlanishiga halaqit beradigan doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek, har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga insonning ruhiy rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchilik kiradi. Bularga nutq va miya faoliyatining, shuningdek, aqliy rivojlanishning buzilishlari xosdir.

Murakkab nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni o'zida mujassam etadi.

Og`ir nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan shunday nuqsonki, bu nuqson mavjud bo'lgan holatda davlat ta`lim standartlariga mos ravishda ta`lim olishning iloji umuman bo`lmaydi.

Bola jismoniy rivojlanishidagi og`ishlarga kasallik, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kiradi.

Ruhiy og`ishlar, avvalambor, bolaning aqliy rivojlanishi hamda ruhiy nuqsonlariga bog`liqdir. Bu turdagи og`ishlarga ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi va oqibatda, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug`ma nuqsonlari yoki jarohati asosida paydo bo'ladi. Bolalarda aqliy qoloqlik turli darajada engil aqliy zaiflikdan, chuqur — tentaklikkacha namoyon bo'ladi.

Ruhiy og`ishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og`ishlarning yana bir turi emotsional-irodaviy sohadagi faoliyatning buzilishidir. Bu og`ish turining eng og`ir shakllari deb autizm (yunoncha aytos — o'zim) —

muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o’z-o’zini o’ldirish) kabilarni keltirish mumkin.

Bolalarning iqtidorliligi alohida og`ish turi hisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta`minlab beruvchi qobiliyatlarning o’ziga xos uyg`unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab, balki faoliyat mahsullari tavsiifga qarab ham belgilanadi.

Pedagogik og`ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo’llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxe rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta`lim olayotganlar faoliyatini tartibga solishda turli me`yorlar qo’llanilmoqda. Avvalambor, bu ta`lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek, o’quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga qo’shimcha qilib, ta`lim olishda yuqori natijalarni ta`minlab beruvchi bola rivojlanishining me`yorlarini ham kiritsak bo’ladi.

Ta`lim olinishi yoki olinmasligi me`yorlari haqida nihoyatda, aniqpik bilan gapirsa bo’ladi. Turli sabablarga ko’ra ta`lim ololmagan bolalar ham mavjud bo’lib, me`yordan bunday ogishlarni “pedagogik og`ish” desak bo’ladi. Umumiy ta`lim olmagan, mакtabga bormaydigan, faqatgina boshlang`ich mакtabni tugatgan, umumiy o’rta ta`lim olmagan bolalarni alohida toifaga kiritamiz. Bunday holatlarni yuzaga kelishining sabablari talaygina: dars qoldirish o’qishga intilishni susaytiradi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko’chaga chiqaradi, ekologik va ijtimoiy kataklizmalar bolalar ota-onalaridan judo bo’lishlariga olib keladi. Daydilikka moyilligi bo’lgan bolalar soni ham ko’paymoqtsa. Bolalar maktablarda tahsil olishmayotganining yana bir qancha sabablarini keltirish mumkin.

Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og`ishga ega bo’lgan bolalarning ta`lim olishlaridagi katta qiyinchiliklarini ham ta`kiddab o’tish joiz. YUqorida aytilganidek, bunday bolalar uchun alohida maktablar bo’lib, u erda ular etuk mutaxassislar qo’l ostida ta`lim olishadi. Biroq ko’p narsa bola qaerda yashashiga (qishloq yoki shaharda) va qanday oiladan ekanligiga bog`liq. Ba`zi sog`lig`ida

muammosi bor bolalar uchun ta`lim uyda individual tarzda beriladi. Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik kasbiy ta`lim olishlari bilan bog`liq.

Ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo`lganligi sababli, biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bunday bolalarni biror-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohesida o`zlarini sinab ko`rish xohishlarining yo`qligi birlashtiradi. Bu holatdagi og`ishni engib o'tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordamiga muhtoj bolalar ham paydo bo'ladilar.

Ijtimoiy og`ishlar “ijtimoiy me`yor” tushunchasi bilan bog`liqdir. Ijtimoiy me`yor bu insonlar yoki ijtimoiy guruhlar faoliyati, ular xulq-atvorining jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o`rnatilgan tartib-qoidalari namunasidir. Aslida, ijtimoiy me`yor kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modelidir.

Bolalar uchun ijtimoiy me`yorlarning o`ziga xos xususiyati tarbiya omili hisoblanib, tarbiya jarayonida ijtimoiy me`yor va qadriyatlar ijtimoiy muhitga kirish, ijtimoiy tajriba va rollarni o`zlashtirishning sodir bo`lishidadir. Bu holatda tarbiyaning boshqarish funktsiyasi eng muhim vazifani bajaradi, chunki uning vazifasi bolalar ongi va xulq-atvoriga ta`sir qiluvchi omillarni kerakli tarbiyaviy samaradorligi ta`minlanadigan darajada tashkil qilishdir.

Pedagogik, sotsiologik va psixologik adabiyotlarda deviant xulq-atvorga ega bolalar muammolari ustida yetarlicha ish olib borilgan. Bunday xulq-atvorning sabablari ham yaxshi o`rganib chiqilgan. Ular o`smirlik davrining qiyinchiliklari, jamiyatdagi ijtimoiy maqomning noaniqligi, davlat rivojlanishining beqarorligi, bola mustaqil chiqib keta olmaydigan ekstremal holatlarning yuzaga kelishi bilan bog`liq.

O`zbekistonda bunday bolalarga yordam ko`rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar tuzilmoqtsa. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va 11 yoshga to`lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosasini inobatga

olgan holda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga yuborish mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogning me`yordan ogishgan bolalar bilan samarali ish yuritishi og`ishlar profi- laktikasiga, muayyan me`yor va qoidalarni buzilishining oldini olish, xulq-atvorida u yoki bu og`ish aniqlangan bolalarning reabilitatsiyasiga qaratilishi lozim.

Jismoniy	Ruhiy	Pedagogik	Ijtimoiy
irsiy kasallik, ko'rish qobili- yatining buzilishi, eshitish qobiliyatining buzilishi, suyak tayanch tizimidagi kasalliklar	ruhiy rivojlanishning buzi- lishi, aqliy qoloqlik, nutq buzi- lishi, o'ta iqtidorlilik.	umumiyo'rta ma'lumot olishdan chetga chiqish, kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish, o'zlashtirish-da orqada qolish.	yetimlik; xulq-atvor me`yordan og`ish; aroqxo'rlik; norkam -aniya; taksokomani- -ya; fohishabozlik daydilik, o'g'rilik va b

M. A. Galaguzova tomonidan berilgan me`yordan og`ish turlarining tasnifi

3.Deviatsiya turlari.

Deviatsiya - jamiyatda o'rnatilgan huquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me`yorlarga mos kelmaydigan xatti-harakat, xulq-atvorga aytildi.

Odatda deviatsiya hodisasi va uning ko'rinishlari ko'p hollarda shaxs o'smirlik davrida yuzaga keladi. Zotan, bu davr yosh davrlari ichida eng murakkabi bo'lib, o'tish davri deb ham yuritiladi. Darhaqiat, bu davrda o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar, xususan anatomuk-fiziologik, aqliy, ruhiy

jihatlardan rivojlanish yuz beradi. Natijada, ularda hamma narsaga qiziqish xissi kuchayadi, atrof-muhitga, hayotga bo‘lgan munosabatlarida sezilarli darajada o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Garchi ularda o‘zligini anglash, shaxsiy dunyoqarash, turli hodisalarga, o‘zgarishlarga nisbatan baho berish kabi xususiyatlar shakllana boshlansa-da, ammo hali yetarli bilim, tajribaga ega bo‘lmaganliklari sababli ko‘p hollarda yagona hulosaga kelishda qiyinchilik sezishadi. Bu jihatdan ular kattalarning yordamlariga muhtoj bo‘lishadi.

Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, bu davrda bolalarda kattalar, ayniqsa, ota-onalari o‘rtasida muammolar tug‘ilishi mumkin. Zero, ularga kattalar va ota-onalar tomonidan o‘zlariga kichkina bolaga qaraganday muomalada bo‘lishlari yoqmaydi. Bu esa o‘rtada ziddiyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Shunday ekan, bu davrdagi bolalarga kattalar hushyorlik bilan munosabatda bo‘lishlari zarur.

O‘smirlilik davri bolalarga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan yana biri ular o‘zlaricha katta yoshdagi kishilar orasidan, yoxud badiiy asarlar, filmlardan ideal obraz topishga harakat qilishadi.

Ko‘p hollarda ular idealning tashqi ko‘rinishi ya’ni qiziqtiradigan, o‘zini tortadigan tomonlariga o‘z e’tiborlarini qaratadilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, ularda tasavvurga nisbatan emotsiya (xissiyot) kuchliroq bo‘ladi. Demak, o‘smirlarning ideal tanlash jarayoniga ham kattalar, ayniqsa ota-onalar beparvo bo‘imasliklari zarur. Chunki, o‘smirlardagi deviatsiya xodisasining yuz berishida ayni hissiyot bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyat sababchi bo‘ladi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me’yorlaridan chetga chiqqan o‘smirlarni qiyin o‘smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o‘smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish tushuniladi. O‘smirning qiyin tarbiyalanishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yor va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatsiya hodisasi orqali o‘rganiladi.

Deviatsiya ham insonga, ham uni o‘rab turgan olamga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy sohada

o'zgaruvchanlik, insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks xulq-atvorida o'z ifodasini topadi.

Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va svilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunish mumkin.

Deviatsiya deviant, delikvent jinoiy xulq-atvordan iborat.

Deviant xulq-atvor — mikroijsimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bo'lgan ijtimoiy me`yorlar va Deviant xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog`liq me`yordan og`uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni “g`ayri intizomiy” deb atasak ham bo`ladi. xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog`liq g`ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g`ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi g`ayriijtimoiy xatti- harakatlari sifatida tavsiflanadi. Bu harakatlar huquqiy me`yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

- 1.Aressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi;
- 2.G'arazli xulq-atvor: kichik o'g`riliklar, ta`magirlilik, avtoulov larga ziyon etkazish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajovuzlar;
- 3.Giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatishda ishtirok etish.

Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki- shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. Bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarning o'zgarishi ro'y beradi.

Jinoiy xatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga. ma`lum yoshga etganda jinoiy ish qo'zg`ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g`ayriqonuniy xatti-harakatlar hisoblanadi.

Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kirtsak bo'ladi. Ular ichki muqobillashtirish tizimini barbod etishadi, uning asoslariga putur etkazishadi va anchagina zarar keltirishadi.

4. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari

Me`yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq- atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

1. Biologik omillar:

Bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi.Ularga irsiy xususiyatlar. aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi,

turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya`ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar kiradi.

2.Psixologik omillar.

Bularga bolada psixopatalogiya yoki xarakterining aktsentuatsiyasining borligi kiradi. Bu me`yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g`ayriadekvat reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Yorqin namoyon bo'lgan psixopatiyaga (tentaklik) ega bolalar psixiatrlar yordamiga muhtojlar.

Ruhiy me`yorning eng keskin varianti hisoblanmish aktsentuatsiyaga ega bo'lgan bolalar psixologik ta`sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba`zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o'zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan etarli darajada mehr his qilmasa, u holda bolaning himoya vositasi vazifasini “begonalashuv” bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaktsiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsiyal souvuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patologiyalarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarga xos bo'lgan rad etish, qarshi chiqish kabi xislatlar, odatda, bir-biriga emotsiyal bog`liq bo'lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi.

O'smirning axloqiy qadriyatlari tizimi shakllanmasligi oqibatida uning qiziqishlari g`arazli tavsif kasb eta boshlaydi. Bunday o'smirlarga infantilizm, ko'ngilochar hikoyalar xosdir.

Nazorat savollari:

- 1.Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif.
2. Me'yordan og'ish turlarini sanab bering .
3. Ruhiy og'ishishlar, pedagogik og'ishishlar ijtimoiy og'ishishlar mazmun mohiyatini yoritib bering.
4. Deviatsiya turlari qaysilar?
5. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq- atvorini keltirib chiqaruvchi omillari sanab bering
6. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
7. Nima uchun ijtimoiy pedagogikada norma va normadan og'ish tushunchalari o'r ganiladi?
8. Bolalarda normadan og'ishning sababi nimada?
9. Normadan pedagogik og'ish deganda nima tushuniladi?
10. “ ijtimoiy og'ish” tushunchasining mohiyati nimada?
11. Normadan og'ishning qaysi nazariyalarini bilasiz?

12. Deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan ishlashning asosiy texnologiyalarini sanab o'ting.
13. Deviant xulq-atvor profilaktikasida axborot, ijtimoiy-profilaktik, tibbiy-biologik va ijtimoiypedagogik yondashuvlarning xususiyatlari nimadan iborat.
14. "Reabilitatsiya", "Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya" tushunchalariga ta'rif bering.
15. Deviant xulq-atvorli o'smirlar uchun reabilitatsion dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga ta'rif bering.

V BOB. JINOYATCHIIK BOLALARDA G'AYRIQONUNIY XATTI-HARAKTNING NAMOYON BO'LISH SHAKLI SIFATIDA

Tayanch atamalar: Jismoniy og'ishish, ruhiy og'ishishlar, aqliy rivojlanish, ruhiy nuqson, aqliy jihatdan ortda qolish, aqliy qoloqlik, asab tizimi tug'ma nuqsonlari, bolalarda aqliy qoloqlik, aqliy zaiflik, chuqur — tentaklik, nutq buzilishlari, emotsional-irodaviy soha, deviatsiya, tarbisi og`ir bolalar.

1.Voyaga yetmaganlar jinoyatchilik muammozi.

Balog'at yoshiga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik butun dunyoda eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatchilikning o'sishi eng avval rivojlangan kapitalistik mamlakatlar uchun xosdir. Balog'at yoshiga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning asosiy sabablari deb g'arb mutaxassislari yoshlar o'rtasidagi ishsizlikni, yoshlarning kelajaklariga ishonmasliklari, jamiyatni boshqarish hozirgi zamon usullaridan qoniqmasliklarini ko'rsatadilar.

Masalan, Germaniya politsiyasi ma'lumotlari bo'yicha 1996 yili hibsga olingan hamma huquqbuzarlardan 14 % doimiy ish joyiga ega emas edi. Aniq harakatlar bilan o'g'rilik qilgan jinoyatchilar orasida ishsizlar to'rtdan bir qismini

tashkil etdilar, ular tomonidan shaxslarga nisbatan jinoyatlar 28 %, 34 % bosqinchiliklar amalga oshirilgan.

G'arb mutaxassislari balog'at yoshiga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning o'sib borishi sabablari haqida boshqa fikrlarni ham aytadilar. Masalan, balog'at yoshiga yetmaganlar uchun odil sud va huquqbuzarlikni olidini olish AQSH federal byurosi rahbari A.Regneri o'smirlar orasida jinoyatchilikning asosiy sabablari oilalarning buzilishi, bolalar bilan beraxm munosabatlarda bo'lish, bolalarning ta'lif olish va tarbiyalanish huquqlarining buzilishi, yashash uchun qulay sharoitlarining bo'lmasligi va natijada bolalarning uydan ketib qolishlari deb hisoblaydi. Konnektikut shtatida balog'at yoshiga yetmaganlarni tekshirish juda jiddiy zulm o'tkazgan jinoyatchilar orasida 75 % o'zlariga ham ota-onalari va boshqa shaxslar tomonidan shavqatsiz munosabat ko'rsatilganini aniqlab berdi. Ular kuch ishlatib jinoyat sodir etishlarning umumiyligi sonidan 33 % ni sodir etganlar.

Yaponiyalik mutaxassislar o'z mamlakatlarida balog'at yoshiga yetmaganlar jinoyatlari hozircha o'sib borishi sabablarini o'ziga xos baholaydilar. Ular jinoyatchilik o'sishi turmush sharoitlaring, farovonlikning o'sishi va o'qish bilan, oilada tarbiyaning yetarli bo'lmasligi, oilaning an'anaviy qadriyatlari buzilishi, individualizmning namoyon bo'lishi bilan bog'liq oqibatlar-stresslar sababli deb hisoblaydilar. Yaponiyada o'tkazilgan tekshirishlar balog'atga yetmagan huquqbuzarlar ko'pincha ota-onasiz o'sgarlar, hamda kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar bo'lib chiqishini ko'rsatdi.

Rossiyalik mutaxassislar ham jinoyatchilikning o'sishini ko'rsatadilar. Hozirgi davrda o'smirlar Rossiyada aholining eng kriminogen zararlangan qismi hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat Kodeksiga binoan balog'at yoshiga yetmagan huquqbuzar deb jinoyat sodir etish paytiga kelib *14* yoshga to'lgan, lekin hali *18* yoshga to'lmanган shaxslar hisoblanadilar. Balog'at yoshiga yetmaganligi javobgarlikni yumshatuvchi holat sifatida qaraladi. Masalan, balog'at yoshiga yetmaganlarga nisbatan ba'i bir jazolar ko'zda tutilmagan, xususan, o'lim jazosi.

O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotida hukmni ijro etishni kechiktirishdan keng foydalanishni alohida ta'kidlash kerak, bundan hozirgi kunda ozodlikdan mahkum etiladigan hamma balog'at yoshiga yetmaganlarning taxminan yarmiga nisbatan qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, huquqbuzarlarning ma'lum qismi (20 % dan ortig'i) jazo berilishdagi yoki jinoiy javobgarlikdan ozod etilmoqda. Bu ishlar bo'yicha materiallar yoki balog'atga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga yuboriladi yoki ularga nisbatan majburiy tarbiyalash choralar qo'llaniladi, masalan, quyidagilar:

- 1) ogohlantirish;
- 2) ularni ota-onalari yoki ularni o'rmini bosuvchi shaxslar, yoki maxsus davlat organlari nazoratiga topshiriladi.
- 3) keltirgan zararini qoplash majburiyati yuklatiladi.
- 4) bo'sh vaqt cheklanadi va boshqalar.

Tarbiyaviy ta'sir choralarini muntazam bajarmay kelgan holatida sud jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin.

Shunday qilib, haqiqatda jinoiy jazolar jinoiy jazonadigan harakatlar amalga oshirgan o'smirlarning yarmidan kamiga nisbatan qo'llanilmoqda. Alovida balog'at yoshiga yetmaganlar uchun mumkin bo'lgan jazo (amalga oshirish) asosiy turi ozodlikdan mahrum etish hisoblanadi, bu jazoni ular tarbiyalash koloniylarida o'taydilar. Agarda huquqbuzarlik sodir etgan o'smir 14 yoshga to'limgan bo'lsa (ya'ni jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga to'limgan bo'lsa) uni maxsus o'quv-tarbiyaviy tashkilotga yuboradilar.

Ijtimoiy-pedagogikada **delikvent xulq deb o'rnatilgan** huquqiy qoidalarni buzish va huquqbuzarlikka olib keladigan xulqi tushuniladi:

Delikvent (lotincha *delingnens* - **huquqbuzar**) - hulqi o'zining keskin ko'rinishlarida jinoiy jazolanadigan harakatlardan iborat xulqi yomon sub'ekt.

Delikventlik (lotincha *delingnens* – **jinoiy harakat amalga oshiruvchi huquqbuzar**) – sotsiologiyada va yurisprudentsiyada militsiya ro'yxatida turadigan yoki jinoiy jazoga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarga

muntazam amalga oshiruvchi tarbiyasi qiyin o'smirning qonunga xilof harakatlarini ko'rsatish.

Shuni ham alohida aytish kerakki, balog'atga yetmaganlar va yoshlar ishlari bo'yicha Komissiya, «*Yoshlar ittifoqi*» yoshlar ijtimoiy harakati, mahalla jamoyatchiliklari, maktab o'qituvchilari va ota-onalar tomonidan birgalikda katta profilaktik ishlarni amalga oshirilishi natijasida o'zbekistonda balog'atga yetmaganlar orasida jinoyatchilik kamayib bormoqda.

Tarbiyalash koloniyalidagi balog'atga yetmagan hukm etilganlarning yoshi xususiyatlari. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasa

Huquqbuzarlik sodir etgan o'smirlar bilan asosiy profilaktik ishlar asosan ochiq sotsiumda (o'smir kichik huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa yoki shartli hukm etilgan bo'lsa) o'tkazilsa yoki maxsus o'quv tarbiyaviy tashkilotlarda olib borilsa, tarbiyalash koloniyalarda asosan balog'atga yetmagan hukm etilganlarga yordam reabilitatsion dasturlari amalga oshiriladi.

Balog'atga yetmaganlar uchun koloniyalarda tarbiyalash jarayoni «kattalar» koloniyalardan ancha farq qiladi. Bu koloniyalarda qonun hukm etilganlar bilan ishslash uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi, ta'sir ko'rsatish pozitiv choralari qo'llaniladi, bu imtiyozlar sonini ancha oshiradi va jazo choralarini ancha kamaytiradi. o'smirlar bilan ishslashda umumta'lim va professional tayyorgarlikdan iborat o'quv-tarbiyaviy ishlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Hamma tarbiyalanuvchilar uchun ular kasb egallashlari uchun kerakli sharoitlar yaratiladi: shu bilan birga kasb tanlash keng va ixtiyoriy imkoniyatlari ta'minlanadi. Region va mehnat bozori talablari, yoshi, jismoniy va psixik xususiyatlari hisobga olinadi. Mehnat tarbiyasining samaraliligini oshirish o'smirlarni ijtimoiylashtirish masalasini, ularni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Hukm etilganlarning ko'pchiligi koloniyaga kelishidan avva maktablarda kollejlarda o'qigarlar, imtizomni buzuvchi, tartibbuzarlikni boshlovchi va janjallarda ishtirok etuvchi deb ta'riflanadilar, ular darslardan qochib ketadilar, tengdoshlari va o'qituvchilarni haqoratlaganlar. SHuning uchun o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan hukm etilgan o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish kerak. o'z faniga qiziqtirish, foydali ishlarga jalb eta bilish mahorati, chidamli bo'lish va qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iy, tirishqoq bo'lish – mana shular bu turdag'i balog'atga yetmaganlar bilan ishlovchi pedagogning professional mahorati mezonlaridir.

Hukm etilganlarning bilim olishga, mehnatga munosabatlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarni ishlab chiqarishni tashkil etish va madaniyati yuqori darajali ish bilan, texnologiyalar bilan ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bajargan ishlariga haq to'lashni ta'minlashga erishish zarur, bu o'smirlarning o'z mehnatlari natijasiga qiziqishlarini oshiradi. Jinoyatchilarni tuzatish jarayonini ta'minlovchi asosiy vositalarga umumta'lim o'qitish kiradi. Umumta'lim o'qitish balog'atga yetmaganlarga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida alohida rol o'ynaydi. Chunki tarbiyalash koloniyasida tashkilotning asosiy tuzilish elementi va amalda koloniyada olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning markazi hisoblanuvchi umumta'lim maktabida hamma hukm etilganlar bilim oladilar. Koloniyaga kelganlarida hamma hukm etilganlar umumta'lim maktabining kerakli sinflariga taqsimlanadilar, otryadlar bo'yicha taqsimlash ularning bilim darajalaridan kelib chiqib «bo'lim-sinf» printsipi asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda ishslash yoki kasb-hunar maktabi o'qitish faqatgina mакtabdan bo'sh vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Koloniyada tarbiyalash jarayonida mакtab o'qituvchilarining, otryadlar tarbiyachilari va kasb-hunar maktabi o'qituvchilari, ishlab chiqarish murabbiylarining aniq o'zaro aloqalari juda muhimdir. Koloniyada eng keng tarqalgan tarbiyaviy ishlar usullari suhbatlar, leksiya, munozaralar, taniqli insonlar bilan uchrashuvlar hisoblanadi.

Oxirgi paytlarda halol hayot kechirayotgan koloniyaning sobiq tarbiyalanuvchilari bilan hukm etilganlarning qarindoshlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar keng qo'llanila boshlandi. Ozodlikdan mahrum etilish sharoitlarida o'qishdan va ishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi. Koloniyada bu vaqt tartibli belgilab qo'yilgan bo'ladi. Shuning uchun, ular rasmiy ko'rinishda bo'lmasligi uchun (hisobot uchun) hukm etilganlar uchun bo'sh vaqt chora-tadbirlarni aniq rejalashtirish zarurdir. Chora-tadbirlar o'smirlarda hayotga qiziqish uyg'otishi, irodalilik sifatlari va ularning jamoatchilik tartibiga zid ta'sirlarga qarshi turishga imkon beruvchi xarakteri xususiyatlarini shakllantirish kerak. Hukm etilganlarning qarindoshlari bilan ijtimoiy-foydali aloqalardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'ladi, ular tarbiyaviy ishlar jarayonini faollashtiradi, ilgari yaratilgan jamoatchilik tartib qoidalariga zid hayot tarzi va hulqini buzishga imkon beradi. Hukm etilgan balog'atga yetmaganlarga tuzatuvchi ta'sir ko'rsatishlar samaraliligi umumiyligi kriteriylar bo'yicha belgilanadi. Bu kriteriylar ma'lum tuzatish daradalariga asoslangan bo'ladi: «tuzatish yo'liga kirdi», «tuzatish yo'lidan aniq bormoqda».

Bu tushunchalar o'rtasida chegara qanday? Afsuski bu baholash kriteriylari hamma tuzatish koloniyalari uchun yagona hisoblanadi va haqiqiy jarayonlarni mos ravishda aks ettirmaydi.

Demak, tuzatish ta'sir ko'rsatishining samaraliligini belgilovchi aniq ko'rsatkich ozod etilgandan so'ng jinoyatchining hulqi retsidivi (qayta takrorlash) hisoblanadi.

Balog'atga yetmagan huquqbuzarlar uchun tuzatish ta'sir ko'rsatishi amaliyotida jazo turlarini qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazo turiga muqobil jazolar turlaridan biri qisqa muddatga qamoqqa olish bo'lishi mumkin, bu usul Yevropa mamlakatlarida keng qo'llaniladi. SHartli ravishda hukm etish haqida gapirsak jazolashning bu turiga juda ehtiyyotkorlik bilan yondoshish kerak va uni qo'llanilgan o'smirlarni aniq nazorat qilish kerak bo'ladi. Bu talab bajarilmaganda o'smirlar o'z holiga

tashlab qo'yilgan bo'ladi va qilgan jinoiy harakatlari uchun jazolanmasligini his qiladi.

Balog'atga yetmaganlar huquqbuzarlik va retsidiv jinoyatchiliklarini profilaktika qilishda istalgan samaraga ular bilan tarbiyaviy ishlarga ijtimoiy pedagog-professionallarni jalb etilgandagina samaraga erishish mumkin. **Penitensiar**¹ tashkilotlar boshida bunday yuksak va qiyin masalani hal etishga qodir bo'lgan – yuristlar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglarning eng yaxshilari turishlari kerak.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasalarini quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- maxsus ixtisoslashtirilgan umumta'lim mакtablari;
- maxsus ixtisoslashtirilgan kasbiy ta'lim muassasalari;
- rivojlanishdan ortda qolgan, og'ishga uchragan (psixik rivojlanishda kechikishga uchragan, aqliy qoloqlikning yengil shakllariga ega bo'lgan) va ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan o'smirlar uchun maxsus (korreksion) kasiy ta'lim muassasalari.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlashning bunday tajribalarida odatda o'g'il bolalar va qizlar uchun alohida muassasalar yaratiladi. Ammo, muvofiq, yetarli shart-sharoitlar mavjudlik holatida o'g'il bolalar va qizlarni birgalikda o'qitish va qayta tarbiyalash uchun aralash muassasalar ham tashkil etilishi mumkin.

Muassasalar ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun maxsus ixtisoslashtirilgan o'quv tarbiya muassasalarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: ularning psixologik, tibbiy va ijtimoiy realitatsiyasini ta'minlash, xulqini korreksiyalash, jamiyatga moslashuvini ta'minlash, shuningdek, ularning boshlang'ich, umumiy o'rta va kasbiy ta'lim olishlari uchun sharoitlar yaratish.

Ochiq turdag'i muassasalar profilaktik funksiyalarni bajaradi va quyidagi toifadagi bolalar va o'smirlar uchun yaratiladi:

¹ **Penitensiar** – (лотинча *poenitens*) – jinoyatchilikni oldini oluvchi tuzatish tizimi.

- qat'iy, barqaror huququzar (deviant) xulqqa ega bo'lgan;
- sixologik zo'rlik, zo'ravonlikning har qanday turiga duchor bo'lgan;
- umumta'lim muassasalariga borishdan bosh tortgan, ota-onasi bilan muomala, muloqotda muammolarga duch kelayotgan.

Ochiq turdag'i muassasalar davlat, nodavlat va munitsipial shakllarda bo'lishi mumkin.

Yopiq turdag'i muassasalar delikvent xulqqa ega, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan, ta'lim berilishi va tarbiyalanishi uchun maxsus sharoitlar va alohida pedagogik yondashuv talab etiladigan voyaga yetmaganlar uchun tashkil etilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini oldini olishda, profilaktika ishlari maxsus o'quv – tarbiya muassasalaridan foydalanish – ichki ishlar organlari faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi.

Bunday muassasalarning asosiy vazifasi xulqni korreksiyalash, umumta'lim va kasbiy ta'limni to'laqonli qamrab ola olgan pedagogik metodlarni qo'llash orqali ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, ta'lim berish va ularni mehnatga jalg' etish hisoblanadi. Ushbu muassasalarda ommaviy-madaniy va sport ishlarni tashkil etish va o'tkazish alohida parvarish, ta'minlash tartibini talab etadi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarni maxsus o'quv-tarbiyaviy muassasalarga yo'naltirishning eng asosiy shartlaridan biri ularni doimiy yashah joyidagi muvofiq darajadagi ichki ishlar organlari tomonidan hisobga olinishi hisoblanadi. Bu vazifalarni ularning voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha bo'limlar bajarishadi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarni maxsus-ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiyaviy muassasalarga yo'naltirish zarurati tug'ilsa, IIV organlari xodimlari bunday bola uchun maxsus yo'llanma rasmiylashtiradi va uni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Komissiyaga va ularning huquqlarini muhofaza etuvchi maxsus idoralarga yo'llashadi (tuman yoki shahar). Komissiya arizani ko'rib chiqadi, Komissiya arizani ko'rib chiqadi va voyaga yetmagan huquqbuzarni maxsus

o'quv-tarbiyaviy muassasaga yo'naltirish bo'yicha qaror qabul qiladi (11-14 yoshdagilar uchun –maxsus maktablar, 14-18 yoshdagilar uchun – maxsus kasiy ta'lim muassasalari) va ularga maxsus yo'llanma rasmiylashtiriladi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarni maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga yo'naltirish voyaga yetmagan huquqbuzarlarni vaqtinchalik hibsda saqlash bo'limlari orqali amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini yaratish maqsadga muvofiq voyaga yetmagan qonun buzarlarning turli toifalari:

- turli xil profilaktik ro'yxatga olingan voyaga yetmaganlar uchun buzilishi va qiziqishlariga anomaliya;
- noqonuniy harakatlar uchun ro'yxatdan o'tgan voyaga yetmaganlar uchun jinoyat ishini qo'zg'atish yoki tugatishni rad yetish to'g'risida qarorlar qabul qilindi;
- giyohvandlik vositalaridan foydalanganlik uchun ro'yxatdan o'tgan voyaga yetmaganlar uchun va zaharli moddalar;
- huquqbuzarliklar uchun ro'yxatdan o'tgan va voyaga yetmaganlar uchun aqliy rivojlanishdagi anomaliyalar.

Bundan tashqari, o'z vaqtida imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun voyaga yetmagan huquqbuzarlarni maxsus muassasalarga yuborish yo'li bilan izolyatsiyalash ta'lim muassasalari, tibbiyot muassasalari ro'yxatini ko'rib chiqish kerak.

Voyaga yetmagan jazoga hukm qilinganlarning yosh bilan bog'liq o'ziga xosliklari hamda tarbiyaviy muassasalarda joylashuvi

Jinoyat kodeksiga binoan, tarbiyalash koloniylarida ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlar, *14 yoshdan 18 yoshgacha* bo'lган balog'atga yetmaganlar hamda ular *21 yoshga* yetguncha tarbiyalash koloniylarida qoldirilishga hukm etilganlar jazo o'taydilar.

Yoshi ko'p jihatdan insonning jismoniy holatini, uning xulqini, qiziqishlarini, hayotdagi imkoniyatlarini belgilashi hammaga ma'lum.

Jazoni o'tash davrida ham yoshi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ular tarbiyalash jarayonini tashkil etishda, hukm etilganlar jamoalarini tuzishda va boshqalarda hisobga olinadi. Balog'atga yetmagan jazolanuvchi – bu o'smirdir. o'smirlik davri organizmning keskin jismoniy rivojlanishi, kuch-quvvati, faolligi, tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. o'smirning qattiq emotsiyonalligi, ta'sirchan, yengiltakligi intizomni buzish sababi bo'lishi mumkin. Balog'atgaetmagan jazolanuvchilar tashqi ta'sirlarga shu bilan birga ijobiy tomonga ham, salbiy tomonga ham juda ta'sirchan bo'ladilar. Ko'pchilik o'smirlar o'zlariga tanqidiy ko'z bilan qaramaydilar. Bu ma'naviy beqarorlikka olib keladi, u hulqini ijtimoiy boshqarish samarasini pasaytiradi. Bular ularda ijtimoiy foydali ko'rsatmalar, qarashlar va ishonchlarini shakllanishini qiyinlashtiradi. SHu bilan bir vaqtida ma'naviy beqarorligi, «oson va chiroyli» hayot kechirishga intilishi, madaniylik darajasi pastligi xulqini ma'naviy o'zi boshqarishiga zarar keltiradi. Bu holat odob-axloqsizlik harakatlardan ular osongina noqonuniy ishlarni amalga oshirishga o'tishlariga olib keladi.

Bu yoshdagi o'smirning xulqi va faoliyatiga o'zicha baho berishi ta'sir ko'rsatadi, u ko'pchilik hollarda yoki oshirib yuborilgan yoki pasaytirilgan bo'ladi. o'ziga yuqori baho berishda o'smir o'zini hammadan ustun deb hisoblaydi, boshqalar orasida ajralib turishni istaydi. Bunday jazolanuvchilar koloniya xodimlarining maslahatlariga kam quloq soladilar, tarbiyachilarga kinoyali munosabatda bo'ladilar, ularda ma'naviy o'zini takomillashtirishga istak uyg'onishga intilishga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. O'zini baholashi past bo'lgan jazolanuvchilar o'zlarida ishonchsizlikni his etadilar, qo'rqedilar, boshqalardan yomon ko'rindilar. Buning oqibatida ular boshqalar ta'siri ostida qoladilar.

Balog'atga yetmagan jazolanuvchilarda bu yoshda irodasi va irodaviy sifatlari shakllanishi jarayoni boradi. Bu davr davomida tarbiyalanuvchilar o'zlarini shaxs sifatida, kuchli va irodali shaxslarni namuna qilib olib o'zlarini tarbiyalashga qodir ekanliklarini anglab yetadilar.

Ammo tashqi ko'rinishi ularda ko'pincha qilgan ishlari ma'naviy mazmunini to'sib qo'yadi. Buning natijasida ma'naviy namuna sifatida ularda jinoyatchilik romantikasi ishqivozlari o'rinni oladi.

Ko'pchilik balog'atga yetmagan jazolanuvchilar uchun dunyoqarashlari qarama-qarshiliklari xosdir. Ularning qarashlari va ishonchlari mantiqsiz va qarama-qarshidir. Jazolanuvchilarning o'zlarini bu mantiqsizlikni, tartibsizlikni kamchilik deb tushunadilar. Bunday o'smirlarni qarama-qarshilikka ishontirish va ularda to'g'ri xulq qoidalarini tarbiyalash oson bo'ladi, lekin pedagogik va ijtimoiy ancha qarovsiz jazolanuvchi balog'atga yetmaganlar guruhlari bor.

Ular mantiqiy tartib bilan va asoslab o'z qarashlarini himoya qilishlari mumkin. Bunday turdag'i o'smirlar bilan ishlash ancha qiyin. Sotsiologik tekshirishlar ko'pchilik o'smirlar jazolanishlaridan avval militsiyada ro'yxatda turganlar bilan munosabatlarda bo'lganliklarini ko'rsatadi. Ular kitob o'qish, musiqa bilan qiziqmaganlar, ulardan kamdan-kamlarigina sport bilan qiziqqanlar. Tekshirishlar ko'rsatishicha jazolanuvchilarning 70 % dan ko'prog'i hukm etilishlaridan avval 5-8 soat bo'sh vaqtleri bo'lganligini ko'rsatdi, ular hech narsa bilan mashg'ul bo'lмаганлар, мактабга бормаганлар, исхламаганлар, уй исхларини bajarmaganlar. Ularning bilim darajalari odatda 2-3-sinfni tashkil etgan: o'smirlar orasida umuman savodsizlari ham uchraydi. Balog'at yoshiga yetmagan jazolanuvchilarning ko'pchiligi kasb-hunarga ega emas, ish stajlari yo'q.

Bo'sh vaqtlarining ko'pligi, ularning alkogol ichimliklari, narkotiklar iste'mol qilishlariga, erta jinsiy aloqalarni boshlashlariga olib kelgan. Bunday hayot ularni ijtimoiy foydali mashg'urolardan chetga tortadi, ko'pincha qarindoshchilik munosabatlarining uzilishiga, o'qishga qiziqishi yo'qolishiga, oxir oqibat jinoyat sodir etishiga olib kelgan.

Jazolanuvchilarning ko'pchilik qismi (53 %) to'la bo'lмаган oilalarda, bolalar uylarida tarbiyalanganlar. Ota-onalarining yo'qligi ma'naviy-axloqiy tarbiyalanishini qiyinlashtiradi. Bunday hollarda asosan bola qorni to'qligi va eni butunligi haqidagi qayg'uriladi. Ikkala ota-onasi bo'lgan oilalarda kattalar va

bolalar o'rtasida bir-birini tushunish yo'qligi, o'smirning ma'naviy axloqiy muammolari, do'stlariga ota-onalarning befarqligi aniqlandi.

Shunday qilib, mahkumning voyaga etmaganlarning shaxsiyati va guruhlarining xarakteristikasi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yosh xususiyatlari

- tananing tez jismoniy rivojlanishi;
- axloqiy beqarorlik;
- o'z-o'zini hurmat qilishning kamligi (ortiqcha, kam);
- irodani jadal shakllantirish jarayoni;
- dunyoqarashning qarama-qarshiligi.

2. Pedagogik va axloqiy beparvolik

- uyushmagan bo'sh vaqt mavjudligi;
- past ta'lim, ma'naviy va professional daraja;

3. Oiladagi muammolar

- ota-onaning yo'qligi yoki to'liq bo'lмагan oila;
- ota-onalar va qarindoshlarning ijtimoiy ko'rinishlari;
- oilaviy aloqalarni buzish;

4. Jinoyat sodir etishning sabablari

- sotib ololmaydigan narsa bor;
- yetuklikni namoyish eting, guruhning roziliginini oling;
- jinoyat sodir etayotgani haqida zaif tushuncha.

5. Deviant xatti-harakatlarga moyillik.

6. Katta jinoyatchilarga bo'ysunish.

7. Kam huquqiy madaniyat.

8. Ta'lim va muassasa rejimiga qarshi kurash.

9. Institut shartlariga moslashish qobiliyati.

10. Mahkumlarning tabaqlanishi (status-rol munosabatlari).

11. Muayyan hayot rejalarining yo'qligi.

Ana shu masala bo'yicha tekshirishlarni tahlil qilish quyidagicha xulosaga kelishga imkon beradi:

1. Zamonaviy oilalarning yoshi katta a'zolari yuqori darajada band bo'lishlari sababli ta'lim muassasalari pedagogik jamoalari bilan (maktab, kollej, litsey) o'zaro aloqalari yo'q. Shuning uchun ota-onalar o'smirning haqiqiy ichki dunyosi haqida, uning qiziqishlari va talablari haqida to'la tasavvurga ega bo'lmaydilar. Bular ota-onalarda bolaga ko'r-ko'rona muhabbatni yuzaga keltiradi.

Ota-onalarning bunday bir tomonlama qarashlarini ota-onalarning maktab (litsey, kollej) bilan aloqalarini yaxshilash yo'li bilan yo'qotish mumkin edi. Ma'lumki, o'quv yurtlarida o'smirning xulqi yomon belgilarini ancha ob'ektiv baholaydilar (uning hulqi og'ishini, jamoatchilik tartibiga zid harakatlari va huquqbuzarliklarini). Bunday hollarda ota-onalarga pedagoglar malakali yordam ko'rsatishlari mumkin bo'ladi.

2. O'smirning oiladan tashqaridagi yaqin odamlari haqida ota-onalar quyidagi yo'llar bilan xabardor bo'ladilar:

- a) ularning qiziqtirgan, uning o'zi haqidagi va uning do'stlari haqidagi muammolarni qo'pol va odobsiz usulda talab etadilar.
- b) bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxsdan oladilar.
- v) bolaning xulqini o'zlari kuzatishlari natijasida.

Ota-onalar odatda bolaga o'zlariga yoqqan bolalar bilan do'st-o'rtoq bo'lishni majbur qilishga harakat qiladilar. Aynan ana shu holat bolani ota-onasidan uzoqlashtiradi, uni yolg'onchi qiladi.

Ota-onalar bola bilan muomalani bilmaydilar. Shuning uchun ota-onalarni umumiyligi o'qitish tizimini yaratish zarur, masalan, maxsus seminarlar o'tkazish yo'li, bu maqsadlarda ommaviy axborot vositalardan foydalanish yo'li bilan, yoki ijtimoiy pedagoglar va psixologlar yordamida ishlab chiqilgan «oilaxizmati» tizimlari yordamida.

3. Bugungi kundagi ota-onalar ko'p tomondan huquqiy va pedagogik sohada tayyor emaslar. Shuning uchun ular bolagi nisbatan jinoiy xavf solinganda o'z farzandlariga to'g'ri harakat qilish bo'yicha biror-bir masalahat berishga qodir emaslar. Shu sababli ota-onalarning o'zlari orasida va oilaning katta a'zolari orasida profilaktik ishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

Ota-onalar ma'lum yuzaga kelgan vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini tushuntirib berishlari, bolani ayniqsa, notanish odamlar bilan tanishishda yoki notanish yangi joylarda bo'lishlarida diqqat-e'tiborli, ehtiyotkor bo'lishlarini tushuntirishlari kerak. Katta shahar sharoitida o'smir uchun zarar tegishi xavfi ayniqsa, yuqori bo'ladi. Bu yerda o'smirning xulqi asosiy yo'nalishi ularga xavfli joylarga borishni ta'qiqlagan ota-onalarining talablarini qat'iy bajarishi bo'ladi.

4 .Bolalar va o'smirlarning jinsiy tarbiyasi zamonaviy holati haqida olingan ma'lumotlar bu muammoni hal etishda ko'plab jiddiy xatolar va kamchiliklar borligini ko'rsatadi.

Kichik va katta sinf o'quvchilari jinsiy tarbiya masalalari bo'yicha faqatgina qisqa ma'lumotlar oladilar.

Hozirgi paytda 4-11-sinflar uchun respublikamizda yangi Fan kiritilgan, «**Sog'lom avlod tarzi (asoslari)**». Bu fanning dasturida jinsiy tarbiya haqida bo'lim bor. Lekin faqatgina jinsiy masalalarni o'rganishning o'ziga yetarli emas.

Balog'at yoshiga yetmaganlar jinsiy jaxlsizligiga jinoiy tajovuz qilish bilan kurashish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Chunki bu holat aniq bir balog'atga yetmagan yoki o'smirning o'ziga emas, balki uning atrofidagilarga ham juda katta ma'naviy zarar ko'rsatadi.

Befarqlik, berahmlik bilan jinoyat sodir etish usuli o'smirlar tomonidan (tarbiyasida kamchiliklari bo'lganlarida) faol huquqbazarlik faoliyatiga, shunga o'xhash harakatlarni amalga oshirishga chaqiriq deb qabul qilinishi mumkin. Boshqa tomondan bu o'smirga uning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (ya'ni, o'smirlar tengdoshlari va kattalarga ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladigan bo'lib qoladilar).

Shundan kelib chiqib, bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga to'g'ri baho berish va ommaviy axborot vositalari, pedagoglar, ota-onalarni jalb etib profilaktik ishlarni olib borish zaruriyati yuzaga keladi.

Tibbiyot xodimlari va huquqiy muxofaza qilish organlari seksual asosda tajovuzkor hulqli shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora ko'rish bo'yicha birgalikda ish olib borishlari kerak.

5. O'g'il bolalar va qizlar o'zaro munosabatlari muammolari o'smirning jinsiy yetilish yoshidan ancha avval yuzaga keladi. Bolalar va qizlar orasidagi yaqin aloqalar, munosabatlar haqidagi ma'lumotlar odatda noto'gri tushuniladi. Bola bu haqida ishonchli manbalardan qanchalik kam ma'lumotlarga ega bo'lsa, u bu sohaga shunchalik ko'p qiziqadi. Shuning uchun jinsiy tarbiyalash asoslari erta bolalik yoshidan boshlanishi kerak bo'ladi.

Akseleratsiya sababli bugungi kunda o'smirlarning erta dinsiy yetilishlari va uning ijtimoiy tashkil topishi jarayoni ancha uzoq davom etishi o'rtasida uzilish yuzaga kelgan. Bu holat bir qator muammolarni keltirib chiqardi, masalan, doimiy ravishda kinomotografiya, videofilmlar, matbuotdagi maqolalar va boshqa erotik manbalar tomonidan qo'zg'atib kelinayotgan jinsiy instinktlarining uzoq qondirilmasligi kabi.

Bu muammoni hal etish o'smirlarni sportga ommaviy jalg etish, ijtimoiy jamoatchilik ishlarida ishtirok ettirish bilan mumkin bo'ladi.

Shu sababli bizning fikrimizcha bunday ishlarning hamda o'smirlar o'rtasida huquqbazarlikni olidini olish bo'yicha faoliyatlar markazi umumta'lim maktab bo'lishi kerak deb to'g'ri fikr ayttilmoqda, maktab oilaga nisbatan va boshqa ijtimoiy institutlarni boshqarishi kerak bo'ladi.

Haqiqatan, maktab oilaga, ota-onalarga yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi bo'lishi kerak. Maktab bu ishga ijtimoiy pedagoglarni, tibbiyot xodimlarini, huquqiy himoya qilish organlarini jalg etishi kerak. Bu ishlar maktabning ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni ancha kengaytiradi.

Bu ishda qo'shimcha ta'lim, bolalarning dam olishlari va ijod bilan shug'ullanishlari, bolalar va yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining ham roli katta.

2.Voyaga yetmagan huquq buzarlar uchun maxsus o‘quv tarbiya muassasalari.

Tarbiyalash koloniylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat reabilitatsion dasturlari huquqbuzarlik sodir etgan o‘smlirlar bilan asosiy profilaktik ishlar asosan ochiq sotsiumda (o‘smir kichik huquqbuzarlik sodir etgan bo‘lsa yoki shartli hukm etilgan bo‘lsa) o‘tkazilsa yoki maxsus o‘quv tarbiyaviy tashkilotlarda olib borilsa, tarbiyalash koloniylarida asosan balog‘atga yetmagan hukm etilganlarga yordam reabilitatsion dasturlari amalga oshiriladi.Balog‘atga yetmaganlar uchun koloniylarda tarbiyalash jarayoni “kattalar” koloniylaridan ancha farq qiladi. Bu koloniylarda qonun hukm etilganlar bilan ishlash uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi, ta’sir ko‘rsatish pozitiv choralar qo‘llaniladi, bu imtiyozlar sonini ancha oshiradi va jazo choralarini ancha kamaytiradi. O‘smlirlar bilan ishlashda umumta’lim va professional tayyorgarlikdan iborat o‘quv-tarbiyaviy ishlarga asosiy e’tibor qaratiladi. Hamma tarbiyalanuvchilar uchun ular kasb egallashlari uchun kerakli sharoitlar yaratiladi: shu bilan birga kasb tanlash keng va ixtiyoriy imkoniyatlari ta’minlanadi. Region va mehnat bozori talablari, yoshi, jismoniy va psixik xususiyatlari hisobga olinadi. Mehnat tarbiyasining samaraliligini oshirish o‘smlarni ijtimoiylashtirish masalasini, ularni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.Hukm etilganlarning ko‘pchiligi koloniyaga kelishidan avval makkablarda kollejlarda o‘qiganlar, imtizomni buzuvchi, tartibbuzarlikni boshlovchi va janjallarda ishtirok etuvchi deb ta’riflanadilar, ular darslardan qochib ketadilar, tengdoshlari va o‘qituvchilarni haqoratlaganlar. Shuning uchun o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bilan hukm etilgan o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish kerak. O‘z faniga qiziqtirish, foydali ishlarga jalb eta bilish mahorati, chidamli bo‘lish va qo‘yilgan maqsadga erishishda qat’iy, tirishqoq bo‘lish – mana shular bu turdagi balog‘atga yetmaganlar bilan ishlovchi pedagogning professional mahorati mezonlaridir.

Koloniyada tarbiyalash jarayonida maktab o‘qituvchilarining, otryadlar tarbiyachilari va kasb-hunar kolleji o‘qituvchilari, ishlab chiqarish

murabbiylarining aniq o‘zaro aloqalari juda muhimdir. Koloniyada eng keng tarqalgan tarbiyaviy ishlar usullari suhbatlar, leksiya, munozaralar, qiziqarli insonlar bilan uchrashuvlar hisoblanadi. Oxirgi paytlarda halol hayot kechirayotgan kolonianing sobiq tarbiyalanuvchilari bilan hukm etilganlarning qarindoshlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar keng qo‘llanila boshlandi. Ozodlikdan mahrum etilish sharoitlarida o‘qishdan va ishdan bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish kerak bo‘ladi. Koloniyada bu vaqt tartibli belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Shuning uchun, ular rasmiy ko‘rinishda bo‘lmasligi uchun (hisobot uchun) hukm etilganlar uchun bo‘sh vaqt chora-tadbirlarni aniq rejalahtirish zarurdir. Chora-tadbirlar o‘smirlarda hayotga qiziqish uyg‘otishi, irodalilik sifatlari va ularning jamoatchilik tartibiga zid ta’sirlarga qarshi turishga imkon beruvchi xarakteri xususiyatlarini shakllantirish kerak. Hukm etilganlarning qarindoshlari bilan ijtimoiy-foydali aloqalardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo‘ladi, ular tarbiyaviy ishlar jarayonini faollashtiradi, ilgari yaratilgan jamoatchilik tartib qoidalariga zid hayot tarzi va hulqini buzishga imkon beradi. Hukm etilgan balog‘atga yetmaganlarga tuzatuvchi ta’sir ko‘rsatishlar samaraliligi umumiylar bo‘yicha belgilanadi. Bu kriteriyalar ma’lum tuzatish daradalariga asoslangan bo‘ladi: “tuzatish yo‘liga kirdi”, “tuzatish yo‘lidan aniq bormoqda”.

Balog‘atga yetmaganlar huquqbazarlik va retsidiv jinoyatchiliklarini profilaktika qilishda istalgan samaraga ular bilan tarbiyaviy ishlarga ijtimoiy pedagog-professionallarni jalb etilgandagina samaraga erishish mumkin. Penitensijsk tashkilotlar boshida bunday yuksak va qiyin masalani hal etishga qodir bo‘lgan – yuristlar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglarning eng yaxshilari turishlari kerak.

3.Voyaga yetmagan huquq buzarlar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat. Pedagogik faoliyat-ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yunaltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o’quv rejalar, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam ko’rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim aniq bir bolaga va uning ijtimoilashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini hal etishga yunaltirilgan bo`ladi.

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik texnologiyalar Deviant xulq-atvorga ega o’smirlar bilan ishslashning reabilitatsiya dasturlarini tuzishda quyidagilar inobatga olinadi:

1. Voyaga yetmagan bolaning ijobiy hislatlariga suyanish. Ijtimoiy pedagog deviant xulq-atvorga ega bolani qoralay olmaydi. U uchun muvaffaqiyat vaziyatini yaratish orqali uning xulq-atvorida ijobiy hislatlarni topish kerak va ijtimoiy pedagog faoliyatini shunga muvofiq tashkil qilish lozim.
2. Hayotiy intilishlarni shakllantirish. Odatda mакtabdagи surunkali muvaffaqiyatsizliklardan so’ng o’smirlar umidsizlikka tushishadi, o’z kuchlariga ishonch yo’qoladi. Bunday o’smir uchun keyingi kasbiy o’z-o’zini anglab olish muhim bo’lib, bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbiy o’z-o’zini anglab olish muhimi bo’lib bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbini aniqlashga qaratiladi.
3. Uning keyingi kasbiy taqdiri bilan bog’liq faoliyatdan tashqari deviant xulqatvorli bolani u uchun ahamiyatli bo’lgan ijtimoiy faoliyatga jalb qilish ham lozimdir. Bu murakkab vazifa hisoblanadi, chunki odatda bu holatda nafaqat u yoki bu faoliyat turiga nisbatan o’zgarishni, balki bolalar jamoasi bilan ham munosabatlarning normallashuvini talab qiladi. Amaliyotning guvohlik berishicha

qiyin tarbiyalanadigan bolalarda boshqa o'quvchilarga qaraganda bo'sh vaqt 4 marta ziyoddir.

4. O'smir bilan o'zaro munosabatlarga hurmat bilan qarash. Dezadaptatsiya bo'lган bolalarda yaxshi muomalaning yo'qligi sababli har qanday tarbiyaviy ta'sir voyaga yetmagan bola tomonidan qattiq qarshilikka duch keladi. Bunday bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagogdan sabr-matonat talab qilinadi.

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida mutaxassis quyidagi vazifalarni bajaradi:

- dezadaptatsiya boshlangunga qadar o'smirda bo'lган ijobiy hislatlarni tiklash,
- o'smirda u yoki ijtimoiy foydali faoliyatga kirishish orqali salbiy hislatlarini to'g'rilash, intilishni shakllantirish, o'smirning o'z-o'zini belgilab olishdagi ehtiyojini faollashtirish,
- o'smir faoliyatining ijobiy motivatsiyasini faollashtirish.

Ta'lim muassasida bolalar va o'smirlar tibbiy-pedagogik reabilitatsiyasining namunasi Ta'lim sharoitlarinin g tibbiygigiyenik optimallashu vi (ovqatlinish, jihozlash) O'quv-tarbiya jarayonini o'quvchilarning ruhiyfizioligik xususiyatlarini inobatga olgan holda ratsional tashkil qilish Sog'ligi holati bo'yicha turli o'quvchilar toifalari uchun ta'lim adaptatsiyasi o'quvchilarning tibbiygigiyenik ta'limi va tayyorg arligi. Kasalliklarning ommaviy profilaktikasi, o'quvchilar jismoniy holatini optimallashtirish. Ta'lim muassasalarida reabilitatsion faoliyat tizimi.

Reabilitatsion faoliyatning vazifalari, obyektlari va yo'nalishlari.

Bu yo'nalishdagi faoliyat amalga oshiriladigan muassasalar Reabilitatsion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari:

1. Ruhiy-pedagogik reabilitatsiya. Obyekt- ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar. Vazifalari: -maktab va oilaviy kamsitishlarning engish,

- yetakchi faoliyatda muvaffaqiyatga erishish,
- ruhiy va shaxsiy rivojlanishning uyg'unlashuvi,
- ijobiy "Men" obrazini shakllantirish,
- ijtimoiy adovat profilaktikasi.

Umumta'lim maktabgacha muassasalari, maktablar, oddiy guruh (sinf), korreksiya sinflari. Individual o'qitish maktablari. O'smirlar va bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari Pedagoglar. Amaliy psixologlar. ijtimoiy pedagoglar. Logopedlar. Korreksion ta'lif o'qituvchilari.

2. ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya. Obyekt-nizoli tarbiyaviy vaziyatda bo'lgan dezadaptatsiya qilingan bolalar, yetimlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar. **Vazifalari:** -huquqlarni himoya qilish, vasiylilik.

- nazoratsizlikni oldini olish,
- ijtimoiy zararli omillar profilaktikasi,
- ijtimoiy maqomning tiklanishi,
- psixofizik va shaxsiy rivojlanishsur'atlarini ushlab turish go'daklar uyi,

Bolalar uyi,

Maktab-internatlar,

maxsus maktablar,

xospislar,

ijtimoiy yordam va ijtimoiy reabilitatsiya markazlari.

ijtimoiy pedagoglar.

ijtimoiy ishchilar.

Amaliy psixologtarbiyachilar,

bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha inspektorlar, psixoterapevtlar, psixonevrologlar .

3. Tibbiy pedagogik reabilitatsiya.

Obyekt-nogiron bolalar, tez-tez kasalga chalinuvchi bolalar, cheklangan aqliy imkoniyatlarga ega Funksional buzilishlarga ega bolalar uchun muassasa.

Korreksion maktab. Pedagogdefektolog O'qituvchi dektolog bolalar.

Vazifalari: -tarbiyaviy mikromuhit gigiyenasi

-sog'lomlashadirish va davolash

-tibbiy profilaktika

-sog'lijni saqlash:

- ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya?

-zahiradagi imkoniyatlardan foydalanish,

-kompensatorlik funksiyalarni rivojlantirish Nogironlar uylari.

-Sog'liq markazlari.

-Davolash markazlari.

-Terapevt pedagogika markazlari.

-Maktabgacha muassasalar va maktablarda logopedik guruhlar.

-Ruhiy sog'lik va reabilitatsiya markazlari.

Bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda reabilitatsiya dasturlarini tuzayotganda o'smirning qaysi holatda ekanligini ham inobatga olish darkor. Bu oiladagi yoki tengdoshlari davrasidagi janjal natijasida kelib chiqqan ijtimoiy qarovsizlik holati ham bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning bu bolalar bilan ish

olib borishi o'smir ichki olamini ijtimoiy sog'lomlashtirishga qaratiladi. ijtimoiy pedagog bola tushib qolgan vaziyatni shoshilinch tashxiz qo'ya olishi va ijtimoiy-shaxsiy-emotsional xislatlarning buzilishi sabablarini ham aniqlashi lozim. SHu borada asosiy faoliyat turlariga: individual maslahat berish, salbiy emotsiyonal ahamiyatga ega vaziyatlarni to'g'irlash maqsadida o'smirlarni treyning guruhlariga qo'shish, bola qadriyatlari tizimi bilan individual ish olib borish, ijtimoiy ko'nikmalar paydo qilish kiradi. Bundan tashqari bola va ota-onalarda o'rtaida yaxshi o'zaro munosabatlarni tiklash uchun oila bilan ham ish yuritish lozim. Bu faoliyat oila pedagogik pozitsiyalariga tashxiz qo'yishni, ota-onalarni treyning guruhlarga jalb etishni ko'zda tutadi. Inqirozli holatda turgan o'smir boshqacha yondashuvlarni talab qiladi. Odatda bunaqa xulq-atvor o'smirning hal qilib bo'lmaydigan vaziyatga munosabatini bildiradi. Bu toifa bolalar bilan ish olib borishda emotsiyonal holatning shoshilinch diagnoztikasi, bu muammo sabablarini aniqlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalariga o'rgatish, ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish ustida ish olib borishni ko'zda tutadi. Ijtimoiy pedagog faolyatning boshqa bir yo'nalishi uy-joysiz bolalarga qaratilgan. Bu bolalar bilan ishlash ikki yo'nalishdan iborat: -bunaqa bolalarning yashab ketishlari uchun sharoitlar yaratish (tibbiy yordam ko'rsatish, ovqat bilan ta'minlash), - o'ziga, o'z kelajagiga ishonchni mustahkamlash uchun o'tgan hayotlarining salbiy tajribasidan xalos etish. Asosiy ish metodik-patrnj, asosiy ish shakli "Men" konsepsiyasini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy psixologik treyning tashkil qilish.

Bu reabilitatsiya dasturlarini quyidagi 3 shartlarni bajargandagina effektiv tarzda amalga oshirsa bo'ladi:

- 1) dasturning barcha ishtirokchilarini-bola, ota-onalarda, ijtimoiy pedagog, mutaxassis yuqori motivatsiyasi,
- 2) mutaxassislar va reabilitatsion muassasalar rahbarlarining ruhiy-pedagogik kompetentliklari,

3) turli davlat xizmatlari-ta'lim sog'liqni saqlash,

4) faoliyatini tartibga solish.

Dezadaptatsiya bo'lgan bolalar bilan ish olib borishning mavjud texnologiyalari deviant xulq-atvorni ijtimoiy nazorat ostiga olishga qaratilgan. Bu jarayon birinchidan eng xavfli deviant xulq-atvor shakllarini ijtimoiy foydali shakllar tomonidan siqib chiqarilishi, ikkinchidan bolaning ijtimoiy faolligini ijtimoiy ma'qullanadigan tomonga yo'naltirish, uchinchidan daydilik, giyohvandlik, besoqolbozlik, fohishabozlik bilan shug'ullanuvchi o'smirlarni jinoiy yoki ma'muriy kuzatuvdan xalos etish; to'rtinchidan maxsus ijtimoiy yordam xizmatlarini tuzishdan iborat.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — har kanday faoliyat o`z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o`zaro boglikligini va o`zaro shartlarini aniklaydi. **Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi** quyidagi komponentlardan iborat: sub'ekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), ob'ekt (faoliyat yunaltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orkali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orkali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat kaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining ob'ekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga muxtoj bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuksuni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki akliy shakllanishi buzilgan bolalarning katta kismi (ko`zi ojiz, kar—sokov, akliy ojiz va bolalar tserebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning aloxida mexriga muxtojdir.

Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bo'lmaydi. Bordiyu, ota—onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlay olmasa u xolda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo`ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruhiy sog'ligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni engib o'tuvchi ijtimoiy,

huquqiy, ruhiy, tibbiy va pedagogik muammolarini kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruhpsixologlar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) hamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lim, sogliqni saqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi) mazkur masalaga yunaltirilgan sa'y—harakatlarni muvofiqlashtirib turishda vositachi bo'la olishi kerak.

Ijtimoii pedagog faoliyatidagi muxim yunalish — bu BMT Konventsiyasida e'lon qilingan bolaning yashashga, sog'lom shakllanishiga, ta'lim olishiga, o'z qarashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning har kanday turidan ximoyalashga qaratilagan huquqlarini himoya qilishdir.

Ijtimoii pedagog faoliyatidagi yana bir yo'naliш—bu bolani shakllanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy loyihalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chikishda ishtirok etishdir.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

- tashxis qo'yish
- bashoratchilik
- vositachilik
- to'g'irlash va qayta tiklash
- himoyalash
- oghlanlirish va profilaktika
- evristika (ijodiy fikrlash)

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo`ladigan barcha harakatlar, predmetlar, ko'rgazma kurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sub'ekti shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorligidir.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavfsifnomasi ko'rib chiqiladigan bo'lsak, avvalo mazkur faoliyat sub'ektini — o'z sohasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo`ladi. U bola haqidagi ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni chuqur farqlay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum

nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va ko'nikmalarga, ma'lum darajadagi qobiliyatlarga ega bo`ladi.

Xo'sh ijtimoiy pedagog kim? Uning ruhiy surati va shaxsiy tavsifnomasi qanday, qaysi sohalar uning faoliyat doirasiga tegishli? U boshqa kasb egalaridan nimasi bilan farq qiladi?

Kundalik hayotda biz kasb inson ongida, uning xatti— harakatlarida va dunyoqarashida o`ziga xos iz qoldirishiga guvoh bo`lamiz. Psixologiyada bu narsa "**kasbiy mentallik**" deb ataladi. Mentallik — bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti —harakatlarini aks ettiruvchi ma'lum ijtimoiy—ruhiy qarashlar va qadriyatlar majmuidir. Mentallik o`zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo`lib, insonning qaysi ijtimoiy qatlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniqlanadi.

Psixologik tadqiqotlarda kasbiy mentallik ma'lum bir kasb egalariga xos bo`lgan xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri milliy qadriyatlar urf odatlari bolalar va o`quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir.

Oliy ta'lif muassasalarida pedagoglar ikki bosqichda o`qitiladi. Birinchi bosqichda, ya'ni bakalavriatda mutaxassis o`zi tanlagan soha bo'yicha 4 yil davomida ta'lif oladi. Ikkinci bosqich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning ham umumiy o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual—ruhiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko`rsatmoqda.

Kuzatuvchanlik, murakkab vaziyatda tez yo`lga tusha bilish, fahm—farosat bilan seza olish, o`zini boshqa odam o`rniga qo`ya olish va uning hissiyotlarini tushuna bilish, o`zini boshqara olish va refleksiya (fikr yuritib uni taxlit qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir. Shuningdek, ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, kizikkonlik, o`z fikrini o`tkaza olish, baxsli

vaziyatlarda yo'l topa biliш, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo'lmogi darkor.

Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual— ruhiy xususiyatlari to`grisida o`z fikrlarini bildirganlar. Masalai, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o`z—o`zini boshqara biliш, jismonan kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadilar.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy pedagog tomonidan quyidagi asosiy vazifalarni bajarishini ko'zda tutadi.

Birinchi vazifasi — diagnostika qilish. Bu faoliyat bolalarni spirtli ichimliklarga o'rganishlari xavfi omillarini yo'qotishga qaratilgan. Bu vazifa spirtli ichimlik iste'mol qilishga odatlangan bola haqida ma'lumotlar to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi. Pedagog bolaning xususiyatlarini o'rganadi, upish oilasi haqida ma'lumotlar to'playdi, bolaga yomon ta'sir ko'rsatish manbalarini o'rganadi, spirtli ichimlik ichishga o'rgatuvchilarni aniqtaydi, mikromuhitning bolaga ta'sirini o'rganadi.

Ma'lumotlar to'plash bolaning o'zi bilan. Uning ota-onalari. Sinf rahbari bilan suhbatlar, so'rovlari (og'zaki yoki yozma ravishda) amalga oshiriladi. Bupla i tashqari standartlashtirilgan intervyu olish, kuzatish, oila va bolaning hujjatlarini o'rganish usullarini ham qo'llaniladi.

Ikkinchi vazifasi — taxmin qilittg, uning mazmuni pedagog birinchi vazifasi asosida pedagog alkogolizmga berilgan bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Uchinchi vazifasi — ta'lim-tarbiyaviy. Bu faoliyat ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini **hamda uni** amalga oshirish metodlarini tanlashni ko'zda tutadi. Pedagog bolaning ijtimoiy-reabilitatsiyasi jarayonida uning qaysi sifatlari tarbiyalanishi kerakligini ashqnvdi, bolaning ta'lim va tarbiyasidagi kamchiliklarini yo'qotadi.

To‘rtinchi vazifasi — huquqni himoya qilish. Pedagogik o‘z faoliyatini huquqiy asosda qurishi kerak, bu bolaning huquqdarini himoya qilishni hamda ularga rioya qilishni bildiradi.

Beshinchi vazifasi — tashkilotchilik. Bu bola bilan ijtimoiy- pedagogik faoliyat olib borigsda turli mugaxassislarning ishtiroki va birgalikda ishlarni olib borishlarini talab etadi.

Oltinchi vazifasi — kommunikativ. Uning mazmuni ijtimoiy- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ma’lumotlar almashish maqsadida upish ishtiroklari o‘rtasida ko‘plab aloqalar o‘rnatilishi zaruriyati yuzaga kelishidan iborat bo‘ladi.

Yettinchi vazifasi — oldini olish — profilaktik, bu faoliyat olingan yaxshi natijalarni mustahkamlash va ichkilikbozlik va alkogolizmning takrorlanishi mumkinligini yo‘qotishni ta’minlaydi.

O‘zining faoliyatida ijtimoiy pedagog uchta asosiy rollarda ishtirok etadi: maslahatchi sifatida, u ota-onalar va bolalar o‘rtasida janjalsiz, tortishuvvsiz, kelishib munosabatlarda bo‘lish muhimligi va mumkinligi haqida oilaga ma’lumotlar beradi. Konsultant rolida, oilaviy, mehnat, boshqaruv va jinoiy qonunchilikni hamda psixologik, pedagogik, ijtimoiy pedagogik masalalarini tushuntiradi. Ota-onalar yoki yaqin atrofidagilari tomonidan bolaning huquqlari buzilgan hollarda himoyachi sifatida harakat qiladi.

GLOSSARY

Avtonomlashuv — (yunoncha, avto — o'zim, homus — qonun) — o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish imkoniyatini qo'lga kiritish.

Adaptatsiya — insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro faol munosabatda bo'lish va uning potentsialini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatalish qobiliyati.

Anamnez — bola haqida ota-onada yoki bolani tarbiyalovchi boshqa shaxslardan shifokor, pedagog yoki psixolog tomonidan ma'lumot olish. Anamnez to'planayotganda bolaning irsiyligi, boshidan kechirgan kasalliklari, nutqi, o'yin faoliyatining rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlanadi.

Anomaliya — jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning umumiyligi me`yorlaridan ogish.

Anomal bolalar — ruhiy va jismoniy rivojlanishida me`yordan og`ishish bo'lgan bolalar.

Affektiv buzilishlar emotsiyonal sohaning buzilishi bo'lib, kuchli asabiylashish hamda asabiylashish darajasining tushib ketishida namoyon bo'ladi (opatiya, befarqlik). Bular markaziy nerv sistemasining funktional va organik buzilishi oqibatida yuzaga keladi.

Bolalar jinoyatchiligi salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan barcha g`ayri huquqiy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi bo'lib, shu jamiyatga xos bilimlar, qadriyatlar, me`yor va qoidalar, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirishdan iborat (M. A Galaguzova).

Bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi — bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol ko'nikishi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarining turi.

Bolaning ijtimoiy dezadaptatsiyasi — bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga muvaffaqiyatli ko'nikishiga to'sqinlik qiluvchi, unda ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni yo'qotilishi.

Bolalikni ijtimoiy himoyalash — qonunchilik va bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan, voyaga etmaganlar huquqlarining kafolatini ta`minlashga qaratilgan chora-tadbirlar. Bular bolalarning optimaya biologik va ijtimoiy rivojlanishini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishini

ta`minlab beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va psixologik-pedagogik choralar majmuasidir.

Bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoyaning shakllaridan biri bo'lib, kam ta`minlangan oilalar farzandlarining hayotiy ehgiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi. Ijtimoiy pedagog bolalarga turli yordam ko'rsatadi, biroq ularning ichida ustuvor yordam bolalikni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bolalikka olish — bolalikka oluvchi va bolalikka olinuvchi o'rtasida, ota-onada farzandlar o'rtasida mavjud huquq hamda majburiyatlarni o'rnatuvchi yuridik akt.

Vasiylik — muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxeiy va mulkiy huquqlari ni himoya qilish.

Guruhning ijtimoiy psixologik iqlimi — guruh har bir a`zosining faoliyatiga ta`sir qiluvchi munosabatlarning dinamik maydoni.

Deviant xulq atvor — ijtimoiy yoki axloqiy me`yorlarga mos kelmaydigan xulq-atvor.

Deliikveitlik (ing. "gunohkorlik") — o'rnatilgan me`yorlarni buzuvchi va huquqbazarlikka olib keluvchi xulq-atvor.

Dinamik stereotip bosh miya faoliyatining fiziologik shakli bo'lib, inson xatti-harakatining shartli reflektor tartibida namoyon bo'ladi. Ularga insonning odatlari, oddiy mehnat ko'nikmalari kiradi.

Etim bolalar — 18 yoshgacha bo'lgan, turli sabablar bilan ota-onasining biri yoki ikkisi ham yo'q bolalar.

Etimlik — jamiyatda ota-onasidan judo bo'lgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa.

Jamoa — ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

Jinoyat — delinkvent xulq-atvor turi bo'lib, shaxsga hamda qonun bilan qo'riqlanadigan ob`ektlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli xatti-harakat.

Jinoiy xulq-atvor — jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga etganda jinoiy ish qo'zg'atishga asos bo'lувчи g`ayri huquqi y harakatlar.

Ijtimoiylashuv — insonning butun hayoti mobaynida o’z- o’zini o’zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo’naltirilgan jarayoni.

Ijtimoiy tarbiya — bolaning muvafaqqiyatli ijtimoiy- lashuviga yordam beradigan hamda unda ijtimoiy zarur sifatlarni shakllantirishga qaratish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

Insoniylik — bolani shaxe sifatida qadrlaydigan, uning g`ururi va erkinligini himoyalash bilan tavsiflanadigan, inson manfaagini ijtimoiy institutlar “baholashning asosiy me`yori“ deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

Infantilizm organizmning ruhiy rivojlanishidagi to’xtab qolish bo’lib, bolalik davridagi rivojlanish bosqichi jihatlarini saqlab qolish bilan tavsiflanadi.

Inqiroz — shaxe rivojlanishining diskret vaziyatida uning maqsadga qaratilgan hayotiy faoliyatining to’xtab qolishi. Surunkali inqiroz ijtimoiy dezadaptatsiya, o’z joniga qasd qilish, asab-ruhiy va psixologik kasallikkarga olib kelishi mumkin.

Ishontirish — mantiq, isbot-dalilga asoslangan aqliy emotsiyal ta`sir. Uning mohiyati inson ongiga ta`sir qilishga qaratilgan. Demak, ishontirishning muvafaqqiyatli bo’lishi ong qonunlariga mos kelishiga bog`liq. Ishontiruvchi so’zlar tushunarli bo’lkshi kerak. Ishontirish bolaning individual gajribasiga asoslanishi lozim.

Ichki ishonch — axborotni tanqidsiz qabul qilish va unga muvofiq kayfiyat, xulq-atvorni o’zlashtirishga qaratilgan ga`sir. Ishontirishning samaradorligi ishontiruvchi shaxsning kuchi va boshqa shaxsning ishonuvchanligi, shuningdek, ular o’rtasidagi munosabatlarga bog`liq.

Iqtidorlilik — bolaning o’z tengqurlariga nisbatan aqliy rivojlanishda ancha ilgarilab ketishi.

Katamnez — davolash yakunlangandan so’ng, kasal haqida olinadigan ma`lumotlar. Maxsus kuzatuv ostida bo’lgan o’quvchilarning mehnat hayoti, ta`limi to’g`risida davriy ma`lumot to’plash.

Kommunikativlik — shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo’lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o’rnatish, axborot

to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish.

Kompensatsiya — buzilgan funktsiyalar o'rnini to'ldirish, rivojlantirish.

Konkretlik — umumiy fikrlardan voz kechib, savollarga aniq javob berish qobiliyati.

Korreksion tarbiya — jamiyatdagi hayotga ko'nikish uchun sharoitlar yaratish, ba`zi toifa odamlarni rivojlanish nuqsonlarini engib o'tish yoki bartaraf etish.

Madaniyat jamiyat, ijodiy kurslar va inson qobiliyatlarining tarixan rivojlanish darajasi bo'lib, insonlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma`naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

Madaniyatlilik — bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning ma`naviy qadriyatlari asosida qurilishi.

"Men" kontseptsiyasi — insonning o'zi haqidagi tasavvurlari tizimi.

Mikrosotsium — tarkibida oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari hamda turli ijtimoiy, davlat, diniy, xususiy va tarbiyaviy tashkilotlari mavjud, muayyan hududda faoliyat yurituvchi jamiyat.

Nazoratsizlik — bolalarni, ularning xulq-atvorini, bo'sh vaqqlarini qanday o'psazishlarini nazorat qilmaslik, ularning tarbiyasi haqida qayg`urmaslik.

Oila — insonlar kundalik hayotining asosiy qismi jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

Ontogenetika — hayvon yoki o'simlik olamining yaralishidan boshlab hayotining oxirigacha individual rivojlanishi. Ontogenetika organizmni tashqi muhitning aniq bir sharoitlarda rivojlanishi hisoblanadi. Ontogenetika ham organizm birin- ketin rivojlanish bosqichlaridan o'gadi. Inson ontogenezi ikki bosqichdan iborat: prenatal va postnatal.

Pedagogik tashxis — o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta`lim-tarbiya jarayoniga individual va differentials yondashuvni ta`minlash uchun o'rGANISH.

Pedagogik texnologiya — ta`lim-tarbiyaning pedagogik samaradorligini oshiruvchi omillar tahlili orqali optimallashuvi jarayonidir. Pedagogik texnologiya bolalarni natijaviy qilib tarbiyalash, ta`lim berish va rivojlantirishga yordam beradi. Uning asosiy belgilari natijalilik, algoritm mavjudligi, iqgisod, loyihalashtirish, butunlik va boshqarish. Pedagogik texnologiyalar bir-biri bilan bog`liq aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo`lib, ish samaradorligini oshirish, har qanday sharoitlarda qo'llanilish imkonini beradi.

Pedagogik qarovsizlik — shaxe rivojlanishiga barcha omillar majmuasining dezintegratsiya ta`siri oqibati. Ular, avvalambor. to'laqonli individual-psixologik rivojlanishni ta`minlovchi etakchi faoliyat turlarini qoniqarsiz o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

Professional ijtimoiy pedagogik faoliyat bolalar va o'smirlarni o'rab turuvchi mikrojamiyatda ijtimoiy tarbiya bo'yicha bosqichma-bosqich ish olib borish bo`lib, bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi, individuallashuvi va integratsiyasiga qaratilgan. Uning ob`ekti bola hisoblanib, predmeti bolalarning ijtimoiy tarbiyasi jarayonidir.

Rahmdillik — kimgadir yordam berishga tayyor bo'lish yoki kimnidir hamdardlik, insonparvarlik tufayli kechirish.

Reabilitatsiya — bemorning psixofizik imkoniyatlari doirasida'Kundalik mehnat va hayotga qaytishi. Bu, birinchidan, tibbiyot yordamida insonning jismoniy nuqsonlarini bartaraf etish, ikkinchidan, maxsus o'quv metodlarini qo'llash, uchinchidan esa, professional tayyorgarlik asosida erishiladi.

Referent guruh — inson uchun o'lchov birligi hisoblangan tavsiyalar, ma'lumotlar.

Refleksiya insonning ichki ruhiy faoliyati bo`lib, o'z xatti- harakatlari, xislatlari, holatlarini anglab olishiga qaratilgan; insonning o'z ma`naviy dunyosini anglab olishi.

Somatik — jismoniy.

Ijtimoiy adaptatsiya metod va usullar tizimi bo'lib, uning maqsadi insonlarga ularning ijtimoiylashuvi va yangi ijtimoiy sharoitlarga ko'nikishlariga yordam berish.

Ijtimoiy vasiylik vasiylikka muhtoj odamlarni aniqlaydi, vasiylarni tanlaydi, ularning o'zaro munosabatlari ni tartibga soladi.

Ijtimoiy diagnostika (ijtimoiy tashxis) — ijtimoiy hodisani, uning holatini tavsiflash va rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash maqsadida yaxlit o'rganish jarayoni. Metod, usullar vositasida tadqiqetishga asoslanadi. Ijtimoiy diagnostika ijtimoiy muammoni bo'laklarga bo'lish orqali o'rganishni nazarda tutadi. Ijtimoiy tashhis o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning salbiy tendentsiyalarining oldini olishga qaratilgan amaliy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy etim — biologik ota-onaga ega, biroq ular muayyan sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug`ullanishmaydi va unga g`amxo'rlik qilishmaydi.

Ijtimoiy informatsion yordam — bolalarni ijtimoiy g`amxo'rlik, himoya, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar faoliyati to'g`risidagi ma'lumotlar bilan ta`minlashga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy ish — ijtimoiy sohadagi tashkiliy faoliyat bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlaridagi ijtimoiy muammolarni echishga qodir bo'lgan maxsus ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Uning maqsadi inson manfaati va ehtiyojlarini moddiylashtirish, ijtimoiy va shaxeiy ahamiyatga ega natijalarni qo'lga kiritish, jamiyatda shaxe, guruh hamda jamoaning ijtimoiy maqomini mustahkamlash yoki o'zgartirish.

Ijtimoiy iqtisodiy yordam — muhtoj bolalarning ruhiy, axloqiy va emotsiunal holatini tiklash bo'yicha muassasa va markazlarda yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy maqom — insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatları bilan tavsiflanadigan mavqeい.

Ijtimoiy me`yorlar — inson xatti-xerakatlarini, ularning ijtimoiy hayotini muayyan madaniyat, jamiyat qadriyatlariga muvofiq tartibga soluvchi xulq-atvor me`yorlari.

Ijtimoiy patronaj — shaxe huquqlari va voyaga etmaganlarning mol-mulklarini himoya qilishning maxsus turi. Patronaj uyda profilaktik, sog`lomlashtirish, sanitar chora- tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy pedagog — ijtimoiy pedagogika mutaxassisligi bo'yicha o'rta yoki oliy professional ma'lumotga ega, ijtimoiy- pedagogik faoliyatni yuqori saviyada yurita oladigan mutaxassis.

Ijtimoiy pedagogika — shaxe ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganishga, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadidagi samarali metodlar va ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan pedagogika sohasi.

Ijtimoiy-pedagogik bashorat — bolani yuzaga kelgan muammo bilan bog`liq ravishda biror bir ijtimoiy-pedagogik faoliyatga jalb qilish orqali bu muammo natijalarini oldindan taxmin qilish. Ijtimoiy-pedagogik bashorat ijtimoiy-pedagogik jarayonning mantiqi va mohiyati, uning qonuniyatlarini bilishga tayanadi.

Ijtimoiy-pedagogik markaz — ijtimoiy-psixologik markazlar, xududiy guruh va birlashmalar, tarbiya muassasalari tarmog`i.

Ijtimoiy pedagogning professional maqomi — sub`ektning huquq, majburiyatları va vakolatlarını aniqlab beruvchi shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiy pedagog maqomi u egallab turgan holatning in`ikosi hisoblanadi: ma`muriy-ijtimoiy pedagog, jamoaviy- ijtimoiy pedagog, oilaviy ijtimoiy pedagog, ta`lim muassasasining ijtimoiy pedagogi. Biroq professional maqom obro'-e`tiborini aniqlab bermaydi. Ular professional-shaxsiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi — ijtimoiy- pedagogik faoliyatning mazmuni, shakl, usul, vositalari va nazorati majmuasi.

Ijtimoiy pedagog refleksiysi — har bir bosqichda o'z faoliyatini tahlil qilish, uning salbiy va ijobiy tomonlarini anik^ash. olingan natijalarini bola shaxsiyatiga ta'sirini o'rganish.

Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya — bola organizmining ba`zi buzilgan funktsiyalari, uning ijtimoiy maqomining o'zgarishi va unda og`uvchi xulq-

atvorning paydo bo'lishi bilan bog`liq bolaning yo'qotgan ijtimoiy aloqalarni tiklashga qaratilgan choralar tizimi.

Ijtimoiy-pedagogik profilaktika — bolada turli faollik turlarining namoyon bo'lishiga va bolalarning optimal ijtimoiy rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy tarbiya chora-tadbirlari tizimi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat — bolaga ijtimoiylashuv jarayonida va jamiyatda o'z-o'zini anglashi uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan professional faoliyat.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat texnologiyasi — raiional va maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar bilan tavsiflanadigan amaliy ijtimoiy-pedagogik faoliyatning metod va usullari majmuasi.

Ijtimoiy-pedagogik yordam — bolaning ijtimoiylashuvi va to'la qonli rivojlanishi uchun psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy profilaktika — turli salbiy tavsifdagi ijtimoiy og`ishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar va shart-sharoitlarning oldini olish, bartaraf etish yoki neytrallashtirishga qaratilgan davlat, ijtimoiy, ijtimoiy- tibbiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi.

Ijtimoiy-psixologik yordam — oila va mikro jamiyatda qulay mikroiqlimni yaratishga, uy, maktab jamoasining salbiy ta`sirlarini bartaraf etishga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy reabilitatsiya — insonning ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish qobiliyatini tiklashga qaratilgan jarayon texnologiya sifatida tibbiy, maishiy, kasbiy, shaxeiy darajadagi reabilitatsiyaga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ilgari suradi.

Ijtimoiy reabilitatsion yordam — bolalarning ruhiy, aqliy, emotsional holati va sog`ligini tiklashga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy sog`lik individning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarining mukammallahuvi shakli va vositalarining muayyan darjasini bo'lib, o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi ruhiy va shaxeiy rivojlanishni anglatadi. Ijtimoiy sog`likning aksi ijtimoiy qarovsizlik holatidir.

Ijtimoiy tajriba — turli bilim, ko'nikma va malakalar birligi, xulq-atvor me`yorlari va stereotiplari, insonlar bilan muomala tajribasi, adaptatsiya, o'z-o'zini anglab olish tajribalari majmuasi.

Ijtimoiy tarbiya — shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiy tarbiyada yoshga ko'ra yondashuv — inson rivojlanishiga har bir yosh guruhning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda shart-sharoit yaratib berish.

Ijtimoiy tarbiyaga individual yondashuv — tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini ham shaxeiy, ham individ darajasida inobatga olish.

Ijtimoiy ta`lim — ta`lim oluvchilarga ijtimoiy bilimlarni hamda ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi ijtimoiy ko'nikma va malakalarni etkazish jarayoni.

Ijtimoiy ta`minot — davlat moddiy ta`minoti va ijtimoiy yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatish doirasida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi.

Ijtimoiy terapiya — davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, shu jumladan diniy tashkilotlarning ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir shakllariga amaliy ta`sir qilish jarayoni.

Ijtimoiy texnologiya — turli ijtimoiy muammolarni echish va aholining ijtimoiy himoyasini ta`minlashda ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan qo'llaniladigan vosita, metod va ta`sirlar majmuasi. Ijtimoiy pedagog faoliyatining zahirasida to'rt turdag'i ijtimoiy texnologiyani kuzatish mumkin: ijtimoiy ishga tegishli, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-pedagogik.

Ijtimoiy qarovsizlik — ijtimoiy xislatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarning rivojlanmasligiga, bo'sh ijtimoiy refleksiyaga, ijtimoiy rollarni egallashda qiyinchiliklarga olib keluvchi omillarning oqibati.

Ijtimoiy harakat — turli ijtimoiy guruhlarning umumiylar maqsad sari qaratilgan birgalikdagi xatti-harakatlari.

Ijtimoiy hudud—bola ko’z o’ngida har kuni sodir bo’ladigan harakatlar, ijtimoiy munosabatlar, transport, narsa- buyumlarning qiyofaviy majmuasi.

Ijtimoiy-huquqiy yordam—inson va bola huquqlari ga amal qilishga, bu huquqlarni amalga oshirishga, bolalarni oilaviy, mehnat, fuqarolik masalalari bo’yicha huquqiy tarbiyalashga qaratilgan yordam.

Ko’rsatma (ustanovka) — muayyan xulq-atvor, tasavvurni boshdan kechirishga tayyor bo’lish. Ko’rsatmalar faoliyatning[^] barqaror kechishini belgilab berishadi. Agar shaxeiy ko’rsatmalar kasbiy faoliyatning tavsifini belgilab bersa, ijtimoiy ko’rsatmalar .mutaxassiening mijoz bilan o’zaro munosabati usullari ga oydinlik kiritadi.

Sotsium — insonning ijtimoiy atrof-muxiti, hamjamiyati.

Submadaniyat — muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik belgilar (me`yor, qadriyat, steriotip, did) majmuasi.

Tayanch shaxe — insonning asosiy hayotiy intilishlarini belgilab beruvchi tabiiy andoza. Tayanch intilishlar hammada bir hil bo’ladi, biroq ularning namoyon bo’lishi genetik va tashqi omillarga bog`liq.

Tibbiy-ijtimoiy yordam — ta`lim-tarbiya jarayonida sog`liqni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan chora- tadbirlar.

Shaxslararo munosabatlar — ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisalar bo’lib, bir guruhtsa bo’lgan va birgalikdagi faoliyat ha\ada muloqot jarayonida bir-biriga ta’sir ko’rsatuvchi shaxslar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarda namoyon bo’ladi.

Shaxslararo muomala — insonlar orasida aloqalar o’rnatishning murakkab jarayoni. Pedagogik jamoada shaxslararo muomalaning quyidagi xususiyatlari korreksiyanishga muhtoj: ba`zi pedagoglarning sabrsizligi, irodasizligi, kasbdoshlarini tinglay olmasligi, o’z maqomini oqlash. Ijtimoiy-pedagogik treninglar, boshlang`ich pedagogik o’qishlar orqali sabr-matonat, tinglash madaniyati kabi xislatlarni shakllantirish mumkin.

Shaxsning hayot tarzi — maqsadga muvofiq shakllangan qiziqishlar, faoliyat turlari va hayot yo’llari tizimi.

Shaxsning o’z-o’zini rivojlantirishi — bu insonning o’z hayotiy faoliyatining sub`ektiga aylanishi. Sub`ektlik insonning hayotdagi faol, mustaqil holati va maqomi. U inson tug`ilishidanoq unga xos bo’lib, uning ilk psixologik namoyon bo’lishi - bolaning jonlanishi hisoblanadi. YOsh o’tgan sari u o’z shakllarini o’zgartiradi — insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo’zg’atuvchi sabablar paydo bo’ladi. Inson o’z-o’zini anglash, muomala va faoliyat sub`ektiga aylanadi. Bu faollik ham shaklan, ham mazmunan o’zgaradi. Insonning qanchalik yoshi o’tsa, u shunchalik ko’proq o’z-o’zini rivojlantirish sub`ekti bo’ladi.

Homiylilik — alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta`minlangan oilalar, muhgojlarga ko’rsatiladigan yordam. Voyaga etmaganlarning (boshqatoifa insonlarning ham) shaxeiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish shakli. Homiylikda vasiylikka qaraganda, ancha kengtoifadagi bolalar huquqlari himoya qilinishi mumkin.

Huquqbazarlik — biror-bir huquqni buzuvchi xatgi-harakat. Huquqbazarliklar ijtimoiy xavfli harakat va jinoyatlarga bo’linadi.

O’zaro munosabatlar — jamoada ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish asosi.

O’z-o’zini aiglash inson onging eng oliy irodasi bo’lib, o’zi haqidagi tasavvurlar — xulq-atvori, faoliyati, ex^yojlarini anglashda namoyon bo’ladi.

O’z-o’zini tarbiyalash — insonning o’zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

O’z-o’zini faollashtirish — insonning o’z shaxeiy imkoniyatlarini to’liq aniqlashga va rivojlantirishga qaratilgan doimiy intilishi.

Emotsional “zararlash” — bevosita emotsional holatlarni (qo’l, yuz xatti-harakatlari, intonatsiya) uzatish orqali ta’sir ko’rsatish

Empatiya — dunyoga boshqalar nazari bilan qarash, uni boshqalar kabi tushunish, boshqalarning xatti-harakatlarini ularning nuqtai nazariga ko’ra qabul qilish va shu bilan birga o’zining tushunchasini bildirishga qodirlik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни //ЎРҚ-637-сон 23.09.2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сон Фармони <https://lex.uz/pdfs/5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so’zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston”, 2017.
5. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
6. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatiarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O’zbekiston”, 2017.
7. Abdullayeva. SH., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
8. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019
9. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma T:Fan va texnologiya 2012-yil
10. Nishonova S., Imomova M., Xasanov R..Pedagogika tarixi. Darslik T.: O’qituvchi 1996-yil
11. Egamberdieva N., Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O’zMKN.T.: 2009-yil.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya / Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: “ Fan van texnologiyalar”, 2007.– 176 b.

13. Bashina T.F., Iljin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.
14. Kieron Hutton. “Social pedagogy in UK”. -Angliya. Russel House Publishing, -2013.
15. Egamberdieva N.M. «Ijtimoiy pedagogika» - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y.
16. Mavlonova R. va boshqalar “Ijtimoiy pedagogika” T.: Istiqlol, 2009 y.
17. Galaguzova M. A. Sotsialnaya pedagogika- M.: Vlados, 2000 g.
18. Istorya sotsialnoy pedagogiki / Pod. red. M.A. Galaguzovoy - M.: Vlados, 2003 g
19. Yo‘ldoshev J. Ta’lim yangilanish yo‘lida. - T.: O‘qituvchi. 2000 y.
20. Podlasyyu I.P. Pedagogika. V 2x kn. M.: Vlados, 2003 g
21. B. N. Almazov, M. A. Belyaeva, N. N. Bessonova “Metodika i texnologii raboty sotsial’nogo pedagoga” M.: “Akademiya”. 2002 g.
22. M.A.SHakurova “Metodika i texnologii raboty sotsial’nogo pedagoga” M.: “Akademiya”. 2002 g
23. P.A. SHeptenko, G.A. Voronina «Metodika i texnologiya raboty sotsial’nogo pedagoga »M.: Izdatel’skiy tsentr «Akademiya», 2001

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOBIJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT - PEDAGOGIKA FANI SOHASI SIFATIDA.....	5
1. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti va predmeti	5
2. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari.....	14
3.Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari.....	20
4. Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.....	30
II BOB. IJTIM OYILASHUV OM ILLARI VA M EXANIZM LARI. SHAXSNI O'ZINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	
1.Ta'lim-tarbiya bola (o'quvchi) shaxsni ijtimoiylashtirish omili sifatida.....	38
2.Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoiy sifatlari.....	46
III BOB. OILA BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIM OIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT. VASIYLIK VA HOMIYLIK.....	55
1. Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari.....	55
2.Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.....	61
3.Yetimlikning kelib chiqishi sabablari.....	66
4.Vasiylik va homiylik tushunchasi.....	67
5.Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.....	70
IV BOB . DEVIANT XULQ - IJTIM OIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	72
1.Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif.....	73
2.Me'yordan og'ish turlari.....	74
3.Deviatsiya turlari.....	77
4.0'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari.....	79
V BOB. JINOYATCHIIK BOLALARDA G'AYRIQONUNIY HATIXARAKTNING NAMOYON BO'LISHI SHAKLI SIFATIDA.....	82
1.Voyaga yetmaganlar jinoyatchilik muammosi.....	82
2.Voyaga yetmagan xuquq buzarlar uchun maxsus o'quv tarbiya muassasalari.....	93
3.Voyaga yetmagan huquq buzarlar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogogik faoliyat.....	94
GLOSSARIY.....	120

ISMOIL ERGASHEVICH DAVRONOV

UMUMIY PEDAGOGIKA

Muharrir: **Sh.Raximov**

Tehnik muharrir: **O.Safarov**

Musahhih: **G.Beknazarova**

Sahifalovchi: **S.Hamroyev**

**Nashriyot litsenziyasi AI № 291.08.14.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 14.11.2022. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma
usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tabog`i 8.5
Adadi 100. Buyurtma №77.**



Tip. “Shahzod Print” X/K. bosmaxonasida chop etildi:

Buxoro sh., A. Jomiy ko`chasi, 17-uy.